

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

MIRZAXALOV SARDORBEC JAMOLIDDINOVICH

YOSH TADBIRKOR – YURTGA MADADKOR

Monografiya

NAMANGAN – 2023

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IJTIMOIIY- DEMOGRAFIK HAMDA SIYOSIY-HUQUQIY HOLATI	12
1.1-§. O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-demografik qiyofasi	12
1.2-§. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari	21
1.3-§. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab- quvvatlanishining me‘yoriy-huquqiy asoslari.....	35
Birinchi bob bo‘yicha xulosa	49
II BOB. O‘ZBEKISTON DA YOSHLARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISH HAMDA KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	51
2.1-§. Yoshlar bandligini ta‘minlashda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni	51
2.2-§. Yosh tadbirkor kadrlarni tayyorlash tizimi va uning istiqbollari	64
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa	74
III BOB. YOSHLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR TOMONIDAN QO‘LLAB-QUVVATLANISHI, SOLIQ VA BANK SIYOSATI.....	77
3.1-§. Yoshlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni.....	77
3.2-§. Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari va ularning soha rivojiga ta‘siri	94
3.3-§. Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bank kreditlarining ahamiyati	104
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.....	116
XULOSA	118
FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI	122
ILOVA.....	139

KIRISH

Jahon davlatlari taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti muhim ahamiyatga ega bo'lib, kichik biznes va tadbirkorlik integratsiyalashuvi bu jarayonda eng muhim harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Eng rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Germaniyaning qisqa vaqt ichida Yevropa iqtisodiyotining ustunlaridan biriga aylanishi, Yaponiyaning dunyoga mashhur "yapon mo'jizasi" sifatida nom qozonishi, AQShning bugungi yuksak taraqqiyoti hamda Yevropa Ittifoqi tarkibidagi qator davlatlarning iqtisodiy yuksalishida yirik konsern va kompaniyalar emas, aynan kichik biznes va tadbirkorlik hal qiluvchi rol o'ynadi. Ayni omillar kichik biznes va tadbirkorlik sohasini zamonaviylik va tarixiylik nuqtai nazaridan atroflicha o'rganishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyoning turli mamlakatlarida kichik biznes va tadbirkorlik sohasining o'ziga xos jihatlari, jumladan, kapital mablag' sarfini kam talab qilishi, bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan talablariga tez moslashishi, ichki bozorni sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar bilan to'ldirishi, aholiga turli xizmatlar ko'rsatish, eksport salohiyatini o'stirish, aholining, yoshlarning bandligini ta'minlashdagi hissasi, shu bilan birga yosh yigit-qizlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati alohida o'rni masalalari ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etilmoqda. Hozirgi kunda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, bu jarayonda uchraydigan muammolar sabablarini o'rganish yuzasidan keng ko'lamli tadqiqot ishlari olib borish, qolaversa, muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, ijtimoiy muammolarni hal etishda bozor iqtisodiyotini barpo etish va mamlakatda tadbirkorlik hamda kichik biznesni rivojlantirish yo'lidan bordi. Natijada, tadbirkorlik va kichik biznes subyektlari mamlakat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida faoliyat olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2016-yil 8 sentabrda Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida, eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalaridan biri sifatida aholini, ayniqsa, yoshlarni mehnat bilan bandligini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratishdan iboratligini

ta’kidladi. Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilari bandligini ta’minlash bunda alohida o’rin tutishi belgilandi¹. Hamda, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi”da “kichik biznes va xususiy tadbikorlik milliy iqtisodiyotni yaratish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini asosi hisoblanuvchi o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o‘rishga erishishda muhim omil hisoblanadi²”, deya alohida ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son, 2020-yil 30-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6017-son Farmonlari, 2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 10-oktyabrdagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” 834-son qarorlari³, shuningdek sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuni o‘rganishda O‘zbekistonda va xorijda faoliyat olib borgan huquqshunoslik, siyosatshunoslik, pedagogika, iqtisodiyot, sotsiologiya, tarix va boshqa fan sohasi vakillarining yoshlar masalasiga oid keng qamrovli tadqiqotlari tahlil qilindi. Mazkur yo‘nalishlardagi tadqiqotlar aks etgan adabiyotlarni tarixshunoslik nuqtai nazaridan ikki asosiy guruhga bo‘linadi. Jumladan, mustaqillik davrida yoshlar masalasiga oid bajarilgan ishlar hamda xorijiy tadqiqotlarda yoshlar tadbirkorligiga oid nashrlarga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз, 1-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2019. – Б. 14.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони // Халқ сўзи. – 2017. – 8 февраль.

³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 23-son qarori // lex.uz qidiruv tizimi. Murojaat qilingan sana:11.03.2021.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida yoshlar muammolarini ilmiy tadqiq etish dolzarb masalaga aylandi. Xususan, bu davrda o'rta-maxsus ta'lim va mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasini rivojlantirish, sanoatni yo'lga qo'yishda ishchi yoshlar, qishloq xo'jaligini taraqqiy ettirishda yoshlarning ishtiroki masalasi muayyan bir jihatlar yoritilgan.

Mustaqillik yillarida D.Bobojonova, T.Mahmudov, I.Saifnazarov, A.Mavrulov, O.Ata-Mirzayev, V.Gentshke, R.Murtazayevalarning ilmiy ishlari yoshlarda tarixiy xotiraning rivojiga, siyosiy, ma'naviy, ma'rifiy omillar ta'siri, demografik holati masalalariga bag'ishlangan⁴.

A.Hakimov, A.Tatiboyev, R.Tolipov, S.Sulaymanovalarning ilmiy tadqiqotlari mustaqillik yillarida o'rganilgan bo'lsa-da, istiqlolgacha bo'lgan tarixiy davrlarni yoritilganligi bilan xarakterlanadi⁵.

Xususan, A.Xakimov tomonidan olib borilgan tadqiqot 1976–1985-yillarda O'zbekiston sanoatini rivojida ishchi yoshlarning o'rni masalasiga bag'ishlangan. Unda asosan, o'sha davrda faoliyat olib borgan yoshlar tashkilotlari tomonidan yangi avlodni mamlakatdagi ilmiy-texnikaviy jarayonlarga jalb qilinishi, mehnat musobaqalarini tashkil qilinishi yoritilgan. A.Tatiboyev esa o'z tadqiqotida XX asr 60–80-yillarida yoshlarning mamlakat rivojida o'rni yoritilgan turli asarlarni tahlil qilib, qishloq xo'jaligining paxtachilik, don yetishtirish, chorvachilik sohalarida mehnat qilgan qishloq yoshlarining o'rnini dalillar asosida tahlil qilgan. R.Tolipov O'zbekistonda o'rta-maxsus ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash muammolarini yoritgan. S.Sulaymanova o'z izlanishlarida 1971–1980-yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan agrar islohotlarda yoshlar tashkilotining ishtiroki va qishloq xo'jaligini rivojlantirishda ularning faolligiga e'tibor bergan.

⁴ Бобожанова Д.Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусияти. – Тошкент: Фан, 1995. – 94 б.; Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавий. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 124 б.; Саифназаров И.С. Иқтисодий ва маънавий манфаатлар уйғунлиги ва баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2002. – 166 б.; Маврулов А. Маънавий баркамол инсон тарбияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 80 б.; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2011. – 251 с.

⁵ Хакимов А.Р. Ўзбекистон саноатини ривожлантиришда ишчи ёшлар: Т.ф.н. дисс. ... – Тошкент, 1993. – 164 б.; Сулайманова С.У. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигини ривожлантиришда ёшларнинг иштироки: Т.ф.н. дисс. ... – Тошкент, 1994-165 б.; Толипов Р.Н. Ўзбекистонда ўрта-максус таълим ва кадрлар тайёрлашни ривожлантириш ва такомиллаштириш: тажриба ва муаммолар: Т.ф.н. дисс. ... – Тошкент, 1994. – 168 б.; Татыбоев А.С. Историография участия молодёжи Узбекистана в экономическом развитии республики 60-е-80-е годы XX века: Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1996. – 155 с.

D.G‘ulomov, O.Topildiyev, X.Xaqnazarov, Sh.Raximovlarning ilmiy tadqiqot ishlari yoshlarning ahloqiy qadriyatlar, ijtimoiy-siyosiy jaryonlardagi o‘rni hamda kundalik turmush tarziga bag‘ishlangan⁶.

Jumladan, D.G‘ulomov o‘tish davri yoshlarida axloqiy qadriyatlarni shakllanishi va rivojlanishi muammolarini aniqlash va ularning yechimiga oid tavsiyalar ishlab chiqqani bilan ahamiyatlidir. O.Topildiev tadqiqoti O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning o‘rni masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, u o‘z ichiga 1991–2008-yillarni qamrab oladi. X.Xaqnazarov o‘z tadqiqotida yoshlarning kundalik turmush tarzi va hayoti, madaniyati, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini zamonaviy axborot texnologiyalar va globallashuv jarayonlari ta’sirida o‘zgarishini etnosotsiologik faktlar asosida ochib bergan. Sh.Rahimov O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida xorijiy tajribaning o‘rni va amaliy ahamiyati, yoshlar ijtimoiy hayotida “Kamolot” YOIHning o‘rnini tizimli tahlil qilib bergan.

Yuqoridagi mavzuga oid adabiyotlar hamda ilmiy tadqiqot ishlari yoshlar tadbirkorligini tadqiq etishda ilmiy-nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qildi.

Garchi tadqiqotlarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy sohadagi muammolariga e’tibor qaratilgan bo‘lsa-da, ularda iqtisodiyotning real sektori, ya’ni tadbirkorlik faoliyati to‘laqonli ochib berilgan ilmiy tahlillar mavjud emas, mazkur muammo yaxlit tarzda tarixiy aspektda ilmiy tadqiq etilmagan.

Xorijiy davlatlar tadqiqotchilari tomonidan yaratilgan tadqiqotlar orasida innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda aynan yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ushbu sohani rivojlantirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy barqarorlikka erishishning tamoyillari va ayrim metodologik muammolarni tahlil qilishga bag‘ishlangan bir qator asarlar mavjud⁷.

⁶ Гуломова Д.А. История формирования нравственных ценностей студенческой молодежи Узбекистана в период независимости: Дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2008. – 170 с.; Топилдиев О.Р. Ўзбекистоннинг ижтимоий-сиёсий ҳаётида ёшларнинг тутган ўрни (1991-2008): Т.ф.н. дисс... – Тошкент, 2010. – 148 б.; Хақназаров Х.Д. Ўзбекистон ёшларининг кундалик турмуш тарзи: Т.ф.ф.д дис... – Тошкент, 2019. -186 б.

⁷ Шумпетер Й. Теория экономического развития: (Исслед. предпринимат. прибыли, капитала, кредита, процента, цикла конъюнктуры) / перевод с нем. В.С. Автономова и др. – Москва: Прогресс, 1982. – 455 с.; John M. Ivancevich, Peter Lorenzi, Steven J, Skinner with Philip B. Crosby “Management. Quality and Competitiveness” Richard D. Irving, inc., 1994; Gibb A. A not on the meaning of entrepreneurial core qualities and qualities and management. – London: 1998; Сей Ж.Б. Трактат политической экономики // Экономика (Москва).1999; Zahra

Jumladan, L.I.Grosheva o'z tadqiqotida yoshlarni tadbirkorlik faoliyati davlat iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega bo'lib, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida ayni shu yoshdagi tadbirkorlar mamlakatning yangi tadbirkorlar guruhini tashkil qila olishi, har qanday bozor sharoitiga moslashuvi, o'zini-o'zi tezda safarbar eta olishi bilan ajralib turishi ahamiyatini dalillar bilan ochib bergan. Y.Shumpeter o'z tadqiqotida "biznes" va "tadbirkorlik" tushunchalari ahamiyatini ochib berib, tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqqan. G.T.Lemmon o'z maqolalarida Osiyo xotin-qizlarning tadbirkorlikka faol kirib kelishi va ularning jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beradi. S.Zaxra, Z.Astraxan tadqiqotlarida yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishda oilaviy biznesning o'rni va ahamiyati o'rganilgan. A.Gibb, M.Jon, J.Sey kabilarning tadqiqotlarida tadbirkorlik psixologiyasi, o'quvchilarni kichik korxonalarni boshqarishga o'rgatish, tadbirkorlik ta'limini tashkil etish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Ushbu adabiyotlar ishni yoritishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etdi.

Monografiyada sohaga oid quyidagi yangiliklar yoritilgan, O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish dastlab aholining keng tabaqalarini bozor faoliyatiga olib kirish, boqimandalik, iste'molchilik ruhiyatini bartaraf qilish, tadbirkorlik bilan faol shug'ullanish istagidagi yoshlar salmog'ini oshirib borish borasidagi islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirilgani aniqlangan;

Farg'ona vodiysi viloyatlarida tadbirkorlikni rivojlantirish hududda shakllangan mahalliy xususiyatlar – demografik vaziyat, urbanizatsiya jarayonlari, mehnat resurslarida yoshlarning ko'pchilikni tashkil qilishi hamda qadimdan rivoj topgan o'ziga xos tadbirkorlik maktabi yaratilgani bilan bog'liqligi asoslandi;

S. International expansion of U.S. manufacturing family businesses: the effect of ownership and involvement. *Journal of Business Venturing*. 18(4) doi: 10.1016/S0883-9026(03)00057-0; Ахиярова Н.В. Социально-управленческие проблемы государственной поддержки молодежного предпринимательства в Республике Башкортостан: Автореф. дис. ... канд. социол. наук. – Уфа, 2009.; Astrachan J.H. Strategy in family business: Toward a multidimensional research agenda. *Journal of Family Business Strategy*, 1(1) doi: 10.1016/j.jfbs.2010.02.001.; Иванова А.В. Комплексная оценка факторов развития молодежного предпринимательства в университетской среде: Автореф... канд. эконом. наук. – Екатеринбург, 2013; Грошева Л.И. Управление бизнес-активностью молодежи в Тюменской области: Дисс.... канд. социол. наук. – Тюмень, 2016.; Титиков А.А., Эрназаров Т.Я., Шеримова Н.М. Молодёжная безработица и пути её решения посредством молодежного предпринимательства.– Павлодар: Кереку, 2017.; Леммон Г.Т. Женщины предприниматели – не исключение, а реальность // <https://www.Ideanomics.ru> (murojaat qilingan sana: 07.06.2022);

aholining ijtimoiy faol qismi tarkibida izlanuvchan va tashabbuskor, innovatsion g'oyalarni ro'yobga chiqarishga qodir tadbirkor yoshlar salmog'ining oshib borishi, ularning tashabbuslarini davlat va nodavlat tashkilotlari, respublika jamg'armalari va davlat dasturlari ko'magida yo'lga qo'yish ishlari asosli tarzda tahlil qilib berilgan;

O'zbekiston milliy taraqqiyotida qisqa davr ichida (2017–2021-yillar) yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning yangi tizimi yaratilgani, yoshlar masalasida xalqaro tajribalar asosida tizimli ishlarni yo'lga qo'yilishi va "demografik dividend"ga katta e'tibor berilishining ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Monografiya O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va uning Andijon, Namangan, Farg'ona viloyati bo'limlarining ma'lumotlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivining Andijon, Farg'ona viloyatlari bo'limlari, O'zbekiston Milliy arxivi, Andijon, Namangan hamda Farg'ona viloyatlari davlat arxivlari, nodavlat notijorat tashkilotlarinng joriy arxivlarida saqlanayotgan ko'plab hujjatlarga asoslangani, birlamchi manbalarga tayanilgani, xulosa, taklif va tavsiyalarni amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning turli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

I BOB. O‘ZBEKISTON YOSHLARINING IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK HAMDA SIYOSIY-HUQUQIY HOLATI

1.1-§. O‘zbekiston yoshlarining ijtimoiy-demografik qiyofasi

O‘zbekistonda zamonaviy demografik⁸ vaziyatning o‘ziga xos jihatlaridan biri, mehnat yoshdagi aholining yuqori darajada o‘ssishi bo‘lib, bunda ularning bandligini ta‘minlash masalasidagi muammolarni oshiradi. O‘zbekiston Respublikasining Farg‘ona vodiysi viloyatlari⁹ demografik tuzilishi bo‘yicha alohida ahamiyatga ega. Vodiy viloyatlari O‘zbekiston aholisining eng ko‘p joylashgan hududlaridan bo‘lib, uning 57 foiz aholisi shaharlarda va 43 foiz aholisi qishloqlarda istiqomat qiladi. Aholining 31 foizini mehnatga layoqatli yoshgachalar, 58,3 foizini mehnatga layoqatli va 10,6 foizini mehnatga layoqatli yoshdan kattalar tashkil etadi. O‘zbekiston aholisi soni mustaqillik yillarida keskin ortib bordi. 1991-yilda aholining umumiy soni 20 mln 857 ming kishi bo‘lib shunda yoshlar (14-30 yoshlilar) 6 mln 523366 kishini tashkil qilgan bo‘lsa, aholi 2021-yilga kelib 34 mln. 558,9 ming kishini tashkil qildi, yoshlar esa 9 mln 790357 kishini tashkil qildi. (1.1.-jadval).

1.1.-jadval

O‘zbekiston Respublikasida 1991-2021-yillarda o‘rtacha doimiy aholi soni va undagi yoshlarning salmog‘i (ming kishi)¹⁰.

	1991		2001		2011		2021	
O‘zbekiston Respublikasi	20857000	6523366	24964400	8051331	29123400	9992692	34558900	9790357
Andijon viloyati	1810800	593787	2232000	722320	2672300	898179	3188200	883577
Namangan viloyati	1575000	504539	1968000	634890	2379500	823804	2867400	822700
Farg‘ona viloyati	2242500	719921	2713600	863671	3229200	1080317	3819900	1068261

⁸ Demografiya – (yun. demos — xalq va... grafiya) — har yili turli sabablarga ko‘ra vafot etgan aholi o‘rnini yangidan dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirib borilishi qonuniyatlarini ijtimoiy-tarixiy sharoitlarga bog‘liq holda o‘rganadigan fan. (Qomus.uz Onlayn Ensiklopediya)

⁹ O‘zbekiston Respublikasining Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari. Keyingi eslatishlarda Farg‘ona vodiysi viloyatlari – muallif.

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi joriy arxivining 1991-2021 yillarga oid ma‘lumotlar. <http://stat.uz> hamda Davlat statistika qo‘mitasining 20.04.2021 yil №01/4-01-19-576-sonli xati asosida tayyorlandi.

1991-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasining aholi dinamikasi doimiy o‘tib bordi. 2021-yilga bu 34558900 kishi tashkil qilgan bo‘lsa, shundan Farg‘ona vodiysi viloyatlari aholisining ulushi 9875500 kishiga to‘g‘ri keladi. Shu yili Farg‘ona vodiysi viloyatlari aholisining 14-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar soni 2774538 nafarni tashkil etdi¹¹. Demak, Respublika aholisining 28,5 foizi Farg‘ona vodiysi viloyatlari hissasiga to‘g‘ri kelib, undagi yoshlar vodiylar aholisining 20 foizni tashkil qildi. Bu hududda yoshlarning salmog‘i kattaligini hisobga olganda, yoshlar katta kuch ekani muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda, yoshlarning Respublika umumiy aholisining 32 foizini yoki aholining 10 milionidan ortig‘ini 14-30 yoshdagilar tashkil etishi mamlakat hayotida ularning ahamiyatini ko‘rsatadi¹². Ayni shu bois ham yoshlar masalasi davlat siyosatida alohida o‘rin egallaydi. Yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi qirralarini kamol toptirish uchun shart-sharoit yaratishni nazarda tutuvchi ijtimoiy-iqtisodiy, tashkilish va huquqiy islohotlar amalga oshiriladi.

Mustaqillik yillarida o‘zining tarixiy-ma’naviy o‘rni, demografik tarkibi va ijtimoiy harakatchanligi nuqtai-nazardan yoshlar qatlami jamiyatda alohida o‘rin tutayotganligi ijobiy holdir. Yoshlarni jamiyatda o‘z o‘rnini belgilashi, maqsad va orzularini aniqlashda milliy hamda umuminsoniy urf odatlar va qadriyatlar mezonini muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalada yoshlarning maqsadlarini to‘g‘ri belgilab olishga yordam berish, ushbu jarayonni rejali va ilmiy tashkil etishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Yoshlarni demografik qiyofasini aniqlashda, ularning yosh chegarasini belgilab olish zarur. Bu borada bir necha tadqiqotlarda va me’yoriy hujjatlarda turlicha qarashlar mavjud. Xususan, “Yoshlar” tushunchasiga A. V. Ivanova quyidagicha ta’rif beradi: “16-35 yoshdagi fuqarolar xavf-xatardan qo‘rqmay harakat qila oladigan hamda sarmoyalarni samarali birlashtirib biznes guruh tashkil

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining joriy arxivi. 2015-2021 yillar ma’lumotlari. <http://stat.uz>

¹² Мирзиёев Ш. М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Президенти лавозимига Кириш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017. – Б.13.

qila oladigan kishilardir”. Shuningdek, A. V. Ivanova “yoshlar”ning yoshiga doir chegarani 35 gacha etib belgilashni taklif qiladi¹³.

N. V. Axiyarova yosh chegarasini 30 ga tushirib, yoshlarning o‘ziga xos xususiyatlarini quyidagicha ta’kidlaydi: “...aynan shu yoshdagi insonlar guruhida innovatsion g‘oyalar, ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘zini-o‘zi tezda safarbar eta olishga moyillik kuchlidir”¹⁴. Shu bilan birga, N. V. Axiyarova yoshlarning ishga chanqoqligi, o‘zgarishlarni tezda ilg‘ay olishi va unga moslashuvchanlik (adaptatsiya) holatlari tabiatan kuchli bo‘lishi, konservativ qarashlardan esa yiroq bo‘lishini ta’kidlaydi.

Bir guruh olimlar yoshlar tadbirkorligini tadqiq etib, yoshlar faqat foydani ko‘zlovchi emas, balki ijobiy fikrlovchi, talabchan va dunyoni o‘zgartirishga tayyor kishilardir, ular hayotda har qanday o‘zgarishlarga tezda ta’sir o‘tkazuvchi hamda ularning yaxshi tomonlarini ijobiy qabul qila oluvchi odamlar degan xulosa berganlar¹⁵. Demak, ushbu toifadagi fuqarolarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va mamlakatda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bugungi kunda O‘zbekistonning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini oshirishi ham mumkin.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasining mavjud qonunchiligiga ko‘ra, yoshlar tadbirkorligi deb, 18-30 yoshdagi fuqarolar tomonidan tashkil etilgan kichik, o‘rta va katta biznes subyektlarining faoliyati tushuniladi¹⁶. Shuningdek, ular tomonidan klaster¹⁷ tashkil etishda, ishtirokchilar yoshi 35 yoshgacha ko‘rsatilgan¹⁸. Shunisi e’tiborliki, yoshlarni tadbirkorlikning u yoki bu turiga jalb qilish hisobiga soliq tushumlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, shuningdek, ilg‘or g‘oyalarni amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Yuqoridagilardan

¹³ Иванова А. В. Комплексная оценка факторов развития молодежного предпринимательства в университетской среде: Автореф. дисс ... канд. эконом. наук. – Екатеринбург, 2013. – С. 9.

¹⁴ Ахиярова Н. В. Социально-управленческие проблемы государственной поддержки молодежного предпринимательства в Республике Башкортостан: Автореф. дисс ... канд. социал. наук. – Уфа, 2009. – С. 17–18.

¹⁵ Шумик Е. Г. и др. Молодёжное предпринимательство: проблемы и пути решения // Вестник ТомГУ. Экономика. 2017. №40. – С.185.

¹⁶ “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni // <https://www.lex.uz/acts/3026246>.

¹⁷ Klaster – bu ingliz tilidan olingan bo‘lib, “to‘plam” ma’nosini anglatadi. Unda bir necha mustaqil kompaniyalar mahsulot ishlab chiqarish uchun ixtiyoriy birlashadi // “Yangi O‘zbekiston”, 2021. 11 fevral.

¹⁸ “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori / <https://lex.uz/docs/3382157>

kelib chiqib, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan yoshlar yuqori darajadagi innovatsion g'oyalar bilan beqaror ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega va belgilangan maqsadlarga erishish uchun xavfli moliyaviy tavakkal qila oladigan qarorlarni qabul qilishni biladigan kishilar, degan xulosaga kelish mumkin.

Yoshlarning ijtimoiy hayotga moslashuvi o'z ichiga zaruriy ravishda ularning jamiyat hayotiga qo'shilishi, ijtimoiy jarayonlarga moslashuvi hamda iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri kabilarni qamrab oladi. Jumladan, bugungi kunda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy omillar bilan ifodalanadigan o'ziga xos ijtimoiy-demografik holat yuzaga keldi. Unga muvofiq, 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolar yosh toifalarining quyidagicha chegaralanadi:

1. 1-6 yosh – maktabgacha bo'lgan yosh.
2. 7-17 yosh – maktab yoshi.
3. 18-30 yosh - fuqarolik yoshi¹⁹.

Yosh chegarasini yuqoridagi uch asosiy o'ziga xos guruhga ajratish, asosan, ijtimoiy yo'nalishlardagi muammolarni tadqiq etish qo'l keladi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (77-modda)²⁰ va O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonuniga (20-modda) binoan ishga qabul qilishda 16 yoshdan boshlab yo'l qo'yiladi, shu bilan birga, 15 yoshga to'lgan shaxs, uning ota-onasidan birining yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxsning yozma ravishdagi roziligi bilan ishga qabul qilinishi mumkin, – deya ta'kidlangan²¹. Shunga ko'ra, 15 yosh O'zbekiston Respublikasida ishga qabul qilishdagi eng kichik yoshni anglatadi. Demak, yoshlarni mehnat qilish yoshiga qarab demografiyasini ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

1. 0-14 yosh – mehnatga layoqatli davrgacha yoshdagilar.
2. 15-30 yosh – mehnatga layoqatlilar.

¹⁹ Убайдуллаев Р.А., Ата-Мирзаев О., Умарова Н. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳолининг бандлиги. –Тошкент: Университет, 2006. – Б.59.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi <https://lex.uz/docs/142859>

²¹ O'zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi qonuni <https://www.lex.uz/acts/1297315>

Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatidagi muammolarni tadqiq etish yoqoridagi o'ziga xos demografik guruhlarini boshqalardan farqlashni nazarda tutadi.

Mustaqillik yillarida aholining bandlik darajasini doimiy ravishda oshirib borishi va uning tarmoq tuzilishini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim hamda ustuvor vazifasi sifatida belgilab olindi. Hozirgi kunga qadar ushbu muammoni hal qilishda tadbirkorlik faoliyati katta rol o'ynamoqda.

O'zbekistonda yildan-yilga iqtisodiy faol aholi soni o'sib bormoqda. Mahsulot tayyorlash va xizmatlar turlarini tashkil qilish uchun ishchi kuchi yetkazib berish va iqtisodiyotda ish bilan band bo'lganlarni hamda mehnat organlarida rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tgan ishsizlarni o'z ichiga oladi. 1991-yilda O'zbekiston da jami mehnat resurslari 194,2 ming kishini tashkil qilgan²². 2000-yilda iqtisodiy faol aholi soni respublika bo'yicha 9018,4 ming kishini tashkil qilgan bo'lib, shundan Farg'ona vodiysi viloyatlarining ulushi 2467,1 ming kishiga to'g'ri keldi.

2020-yilga kelib esa respublika bo'yicha iqtisodiy faol aholi soni 5779,5 ming kishiga ko'payib, 14797,9 ming kishini tashkil etdi, shundan Farg'ona vodiysi viloyatlarining faol iqtisodiy aholi soni 4206,5 ming kishiga yetdi²³. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, O'zbekiston aholisi mustaqillik yillarida keskin o'sdi, undagi mehnat resurslari soni ham mutanosib ravishda o'sib bordi.

2020-yilda Farg'ona vodiysi viloyatlari aholisining umumiy iqtisodiy faollik darajasi o'rtacha 73,2 foizini tashkil etdi, aholining bandlik darajasi esa 65,3 foizini tashkil etgan holda ishsizlik darajasi 10,85 foizdan iborat bo'ldi²⁴. Qolgan 26,8 foizni iqtisodiy faol bo'lmagan aholi tashkil etib, ular tarkibiga iqtisodiyotda band bo'lmagan mehnatga layoqatli kishilar va ishlab chiqarishdan ajralgan holda tahsil oluvchilar kiradi.

Iqtisodiy faol aholi soni o'rtacha 2020-yilga kelib, Respublika bo'yicha 4,2 foizga ortgan bo'lsa, Farg'ona vodiysi viloyatlarida ushbu ko'rsatkich 4,9

²² O'zbekiston Milliy arxivi (O'zMA), M.110-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 40-varaq

²³ Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. 2019: Статистик тўплам. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. – Тошкент, 2019. – Б. 26.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi joriy arxivi. 2000-2020 yil ma'lumotlari asosida hisoblab chiqilgan// stat.uz.

foizni tashkil etdi²⁵. Demak, Farg‘ona vodiysi aholisining iqtisodiy faollik darajasi, Respublika miqyosida olganda 0,7 foizga ko‘p. Shuning hisobiga ham ishsizlik mummosi ushbu hududda dolzarblik kasb etadi.

Shunisi e‘tiborliki, O‘zbekiston qishloq aholisining iqtisodiy faolligi shahar aholisiga nisbatan ancha past (1.1.1.-ilova). Tahlillarga ko‘ra, 2019-yilda ishchi kuchidagi iqtisodiy faol qishloq aholisi soni (47,3 foiz) shahar aholisidan (52,7 foiz) 5,4 foizga kam. Ayni paytda respublikada jami mehnat resurslarining 46,9 foizi qishloq joylariga to‘g‘ri keladi²⁶. Qayd etish joizki, 2007-yilda qishloqlardagi iqtisodiy faol aholi soni shahardagi faol iqtisodiy aholi soniga nisbatan 11 foizga ko‘p bo‘lgan, vaholanki, o‘sha davrda qishloqlardagi mehnat resurslari respublikaning jami mehnat resurslari 60 foizini tashkil qilgan²⁷. Demak, davlatning aholini ish bilan ta‘minlash va farovonligini oshirish yo‘lidagi sa’y-harakati yaxshi samara bermoqda. Bunda davlat siyosatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ustuvorligi va qo‘llab-quvvatlanishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratilgani hamda aholining bandlik darajasi oshganini kuzatish mumkin.

Masalan, butun O‘zbekiston bo‘ylab xususiy tadbirkorlikda band aholi soni 2018-yilda 10128,4 ming kishi bo‘lib, bunda Farg‘ona vodiysi viloyatlari hisobiga 3052,1 ming kishiga to‘g‘ri kelgan²⁸. Bu esa respublikada ushbu sohada band bo‘lganlarni 30,1 foizni tashkil qiladi. Bundan ko‘rish mumkinki, Farg‘ona vodiysi viloyatlari kichik biznesni rivojlantirishda, O‘zbekiston ning boshqa hududlari bilan solishtirganda, yetakchilik qilgan. Qolaversa, iqtisodiyotda band aholining kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi ulushi Farg‘ona vodiysining Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida o‘rtacha 81,2 foizini tashkil qiladi (1.1.2. – ilova)²⁹.

²⁵ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi joriy arxivi. 2000-2020 yil ma’lumotlari asosida hisoblab chiqilgan// stat.uz.

²⁶ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi joriy arxivi. 2000-2020 yil ma’lumotlari asosida hisoblab chiqilgan// stat.uz.

²⁷ Ата-Мирзаев О., Гентешке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: “Янги аср авлоди”, 2011. – С.70-71.


²⁸ Ўзбекистонда кичик тadbirkorлик. 2019. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. 2019. – Б. 47.

²⁹ Ўзбекистонда кичик тadbirkorлик. 2019. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. 2019. – Б. 48.

O‘zbekistonning iqtisodiy faol aholisining mutloq ko‘pchiligini (81,7 foiz) nodavlat sektorda ish bilan bandlar tashkil etadi, ularning soni 2018-yilda 10846,1 kishiga yetdi. Ushbu ko‘rsatkichni 2015-yilga taqqoslaganda (10 717), o‘tgan davr mobaynida, xususiyl sektorda 129,1 mingta yangi ish o‘rinlarini yaratilganini guvohi bo‘lish mumkin³⁰.

2000-yillarga kelib, ish bilan band bo‘lgan aholining o‘rtacha yillik o‘shish sur‘ati 3 foizni tashkil etdi, bu respublikaning iqtisodiy faol aholisi o‘shish sur‘atlariga to‘g‘ri keldi. O‘zbekistonda ish bilan band bo‘lganlar sonining ko‘payishi, asosan, mehnatga layoqatli yoshga yetgan aholining iqtisodiyotga jalb qilinishi bilan ta‘minlanadi. 2006-yilda, Respublika iqtisodiyotida band bo‘lgan aholi tarkibida yosh guruhlar quyidagicha ko‘rsatkichni tashkil qildi (1-rasm)³¹.

1.1.-rasm



Bunda respublika iqtisodiyotida band bo‘lgan aholi tarkibida 30 yoshgacha bo‘lgan yosh guruhlar ulushi 31,8 foizni tashkil qilgan. 2000-yillarda Respublika aholisining yosh tarkibi, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar nisbati 32-34 foizni tashkil qilgani hisobiga esa, O‘zbekiston iqtisodiyotida band bo‘lgan aholining o‘rtacha yoshi 36,4 yoshni tashkil etdi³².

Xalqaro ekspertlar fikriga ko‘ra, O‘zbekiston ilk demografik dividend³³ bosqichida turibdi, bu esa mamlakatni iqtisodiy jihatdan barqaror va ildam

³⁰ Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. 2019: Статистик тўплам. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. 2019. – Б. 31.

³¹ Ата-Мирзаев О., Гентешке В., Муртазаева Р. Ўзбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2011. – С. 71.

³² Ата-Мирзаев О., Гентешке В., Муртазаева Р. Ўзбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2011. – С. 72.

³³ Demografik dividend - bu iqtisodiy o‘shish potentsiali bo‘lib, mamlakatdagi mehnatga layoqatli aholining ulushi mehnatga layoqatsiz aholi (bolalar va qariyalar) ulushidan oshib ketganda va qoida tariqasida tug‘ilish darajasining pasayishi natijasida paydo bo‘ladi. Bu esa bir necha o‘n yillar davomida sog‘liqni saqlash, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish, o‘qish va mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlashga mablag‘ ajratadigan davlat

rivojlanishi uchun noyob davr hisoblanadi. O'zbekiston ning demografik o'sish qiyofasini hisobga olgan holda, yoshlar va o'smirlar³⁴ tadbirkorligini rivojlantirish uchun ularga shu davrda kapital kiritish zarur. Aks holda, keyingi o'n besh yilda mamlakatning demografik qiyofasi qariy boshlaydi³⁵.

Shu o'rinda, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Antoniu Guterreshning 2018-yil 12-avgustda "Xalqaro yoshlar kuni"ga bag'ishlangan tadbirda so'zlagan nutqi o'rinlidir. Xususan, u "O'zbekiston muhim demografik chegarada turibdi va undagi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar aholining 60 foizini tashkil qiladi. Keyingi yigirma yil ichida bugungi bolalar va yoshlar O'zbekiston tarixidagi eng katta ishchi kuchiga aylanadi. Bugungi kunda yoshlarning rivojlanishiga to'g'ri sarmoyalar kiritish bilan ular O'zbekistonni yangi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichiga olib chiqadigan avlodga aylanishi mumkin. Aks holda, bugungi yoshlarning farovonligi uchun yetarli miqdorda mablag' sarflamaslik huquqsizlik va yoshlarning yuqori ishsizligini keltirib chiqarishi mumkin. Bu, o'z navbatida, siyosiy va diniy ekstremizm uchun zamin yaratishi va mehnat emigratsiyasini kuchaytirishi mumkin, oqibatda esa qimmatbaho "demografik dividend" davri boy berilishi mumkin", - degan edi³⁶.

So'nggi yillarda dunyo iqtisodchilari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, Sharqiy Osiyo mamlakatlarining "iqtisodiy mo'jizasiga" ayni demografik omillar sabab bo'lgan. Demografik dividend olishning universal formulasi mavjud bo'lmasa-da, O'zbekiston boshqa mamlakatlarning demografik dividend olish modelini ishlab chiqish tajribasini moslashtirishi va o'zlashtirishi mumkin. Koreya Respublikasining tajribasi O'zbekiston demografik dividend olish uchun qanday qadamlar qo'yishi mumkinligiga misol bo'lib xizmat qiladi.

Koreya Respublikasi demografik dividenddan muvaffaqiyatli foydalanish uchun namuna sifatida keng tan olingan. 1960-yilda Koreya Respublikasi jon

organlari va xususiy tashkilotlarning samarali harakati bilan o'lchanadi. (Elektron resurs.) Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/> murojaat qilingan sana 28.04.2021 y.

³⁴ O'smir – bu bolalikdan balog'at yoshiga o'tish davridagi 12-16 yoshli bola. Qarang: O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopediyasi, 2020. – B. 173.

³⁵ Поколение 2030 Узбекистан (Elektron resurs). Murojaat qilingan sana: 29.06.2021, kirish rejimi: <https://www.unicef.org/uzbekistan>.

³⁶ Молодёжная политика // (Elektron resurs). Murojaat qilingan sana: 29.06.2021, kirish rejimi: <https://www.unicef.org/>

boshiga 100 AQSH dollari miqdorida daromad bilan dunyodagi eng qashshoq davlatlardan biri bo'lgan. Biroq, 30 yil ichida Koreya Respublikasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotiga a'zo bo'ldi va 50 yil ichida jon boshiga 20 ming AQSH dollari miqdorida daromad keltirdi. Ushbu ijobiy o'sishning aksariyati Koreya Respublikasidagi demografik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. O'tgan asrning 60-yillarida tug'ilish darajasi bir ayolga 6,1 bolani tashkil etgan bo'lsa, keyingi bir necha o'n yilliklar ichida bu raqam sezilarli darajada kamaydi va 1982-yilga kelib, har bir ayolga 2,26 bola to'g'ri keldi. Ta'kidlash joizki, 2017-yilda O'zbekistonda tug'ilish koeffitsiyenti 2,26 ni tashkil qildi hamda uning barqaror pasayishi kutilmoqda. Bundan tashqari, Koreya Respublikasida qaramlik koeffitsiyenti bir necha o'n yillar davomida tez pasayib ketdi, bu esa, soliq tushumlarini ko'paytirdi, hukumatni ish o'rinlarini yaratishga ustuvor ahamiyat berishga undadi va umuman, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash uchun qulay muhit yaratdi³⁷.

Koreya Respublikasining o'tgan demografik tendensiyalari va O'zbekistonning hozirgi demografik qiyofasini tahlil qilish orqali, Koreya Respublikasining demografik devidentdan unumli foydalangan tomonlarini o'zlashtirish yaxshi samara beradi. Bunda uchta asosiy omilga e'tibor berish zarur – ta'lim, imtiyozlarni kengaytirish va iqtisodiyotni rejalashtirish.

Demografik dividend olishda sog'liqni saqlash va ta'lim tizimini moliyalashdan tashqari, istiqbolli boshqaruv tizimlarini tashkil etish va samarali iqtisodiy siyosat bilan bog'liq. Iqtisodiy siyosat yangi ish o'rinlarini yaratishda, ochiq savdo-sotiqni yoki kredit³⁸ berishni rivojlantirishda asosiy demografik omillar va uzoq muddatli imtiyozlarni hisobga olishi kerak.

O'zbekistonning ko'p sonli yoshlari mamlakatga noyob imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin. Yoshlarning intellektual va jismoniy rivojlanishi uchun tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar jamoalari hamda tashkilotlari

³⁷ Поколение 2030 Узбекистан (Elektron resurs). Murojaat qilingan sana: 29.06.2021, kirish rejimi: <https://www.unicef.org/uzbekistan>.

³⁸ Кредит – кайтариб бериш шарти билан, кўп холда қарздор қарздан фойдаланганлик учун фоиз тўлайдиган, кредитловчи томонидан қарздорга тақдим этиладиган пул ёки товар шаклидаги қарз. Қаранг: Иқтисодий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2021. – Б. 144.

faoliyatini kengaytirishning ko‘plab afzalliklari bor. Bu yoshlarning ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish va o‘z mablag‘larini topish imkoniyatlarini kuchaytiradi. Shuningdek, mamlakatni rivojlantirish yo‘lidagi madaniy-ma‘rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy muammolarni kamaytirishga yordam beradi, bu esa o‘z navbatida, davlat siyosatining barqarorligini oshiradi. Xususan, yoshlarga o‘z mamlakatlari va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etish, shuningdek, ishonch, ijtimoiy kapital va umumiy mas‘uliyat hissini shakllantirishga imkon beradi. Qolaversa, yoshlar ishchi kuchini potensial qismining 30 foizdan ortig‘ini tashkil qilishni hisobga olib o‘rtacha arifmetik hisoblab chiqilsa, mamlakatda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlarining ko‘pchiligini ayni yoshlar tashkil qiladi degan xulosa kelish mumkun.

1.2-§. O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligiga qaratilgan davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar masalasiga alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlar masalasiga oid islohotlar izchil amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu siyosatning mazmuni, asosiy yo‘nalishlari, yoshlarga beriladigan siyosiy-huquqiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy kafolatlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari, Prezident Qarorlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va Farmoyishlarida ifodalangan.

O‘zbekistonda yoshlar masalasiga qaratilgan davlat siyosatning amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari 1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilab qo‘yilgan. Ushbu Qonun yoshlar tadbirkorligini amalga oshirishga qaratilgan tashkiliy ishlarni ham ko‘zda tutadi³⁹.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati o‘ziga xos quyidagi qoidalarga asoslanadi:

³⁹ Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги Қонуни // Халқ сўзи, 1992. 8 январь.

1. Millati, irqi, tili, dini, ijtimoiy mavqei, jinsi, ma'lumoti va siyosiy e'tiqodidan qat'i nazar yoshlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish.

2. Yoshlarni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish.

3. Yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida yoshlar manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlariga kafolat berish.

4. Jamiyatni rivojlantirishda, mamlakat yoshlari hayotiga doir islohotlar va loyihalarni ishlab chiqish hamda ro'yobga chiqarishda ularning bevosita ishtirok etishi.

5. Huquq va burchlarning erkinlik va fuqarolik mas'uliyatining birligini ta'minlash.

Qonunning asosiy tamoyillari demokratik ruhda bo'lib, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan birga, teng huquqliligini ham davlat kafolatlaydi. Bu esa yoshlarni dini, irqi, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar kelajakka ishonch bilan qarashiga olib keldi. Ushbu qonun asosida yoshlar tadbirkorligiga imtiyozlar taqdim etildi. Imtiyozlar olish imkoniyatiga esa, ishlab chiqarish jarayonlari yoshlar uchun mo'ljallangan firmalar, kichik tadbirkorlik subyektlari va boshqa shunga o'xshash xususiy subyektlar ega bo'ldi. Ushu davrda yoshlar tadbirkorligi tushunchasiga davlat idoralari xodimlari va xalq orasida hali aniq bir to'xtamlar bo'lmagan.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirish va sohaga yoshlarni jalb qilishga e'tibor hamisha katta bo'lgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda davlat siyosatida alohida dasturlar asosida ish olib borildi. 1995-yil 28-avgustda Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi to'g'risi"da 344-sonli qarori qabul qilindi⁴⁰. Dasturning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

aholining keng tabaqalarini, xususan yoshlarni bozor faoliyatiga olib kirish, boqimandachilik, iste'molchilik psixologiyasini bartaraf qilish, tadbirkorlik, xususiy biznes bilan faol shug'ullanish istagi "kasalligini" yuqtirish;

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 344-son qarori // <https://lex.uz/docs/470217>.

qishloq xo‘jaligi qayta qurilayotganligi munosabati bilan ishsiz qolayotgan kishilarni, birinchi navbatda yoshlarni ish bilan band qilish maqsadida qishloqda yangi ish o‘rinlari yaratish;

qishloqda bozor munosabatlari va infrastrukturani jadal rivojlantirish, raqobatni rivojlantirish uchun sharoitlarni tashkil etish;

xizmatlar hajmini, ayniqsa, bank, auditorlik, konsalting, vositachilik faoliyati bilan bog‘liq ilm-fanni ko‘p talab qiladigan xizmatlar hajmini keskin oshirish⁴¹.

Dastur asosida yoshlarning biznes tashabbuslari har tomonlama qo‘llab-quvvatlandi, iqtisodiyotdga bozor qonuniyatlari kirib kelish jarayoni aholining keng tabaqalari tomonidan amalga oshirildi. Dasturning to‘rtta qismi – yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, ayniqsa, qishloqda jadal rivojlantirish va faoliyat ko‘rsatishi uchun umumiy bozor qonuniyatlari va sharoitlarini yaratish, biznes tashabbuslarni davlat tashkilotlari tomonidan himoyalash chora-tadbirlari, moliyaviy ko‘mak va tashkiliy ishlar qismlarini o‘z ichiga oladi.

Dastur ijrosini ta‘minlash maqsadida viloyat hokimliklarining qarorlari va ushbu qaror asosida tuman va shahar hokimlari qarorlari qabul qilindi. Xususan, Andijon viloyat hokimining 1995-yil 16-oktyabrda 250-sonli qarori asosida viloyat dasturi tasdiqlandi⁴².

Dasturning ijrosi natijasida 1996-yilga kelib viloyatda 7128 ta tadbirkorlik subyektlari davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi. Shundan, o‘rtacha arifmetik hisobda 35 foizi yoshlar tadbirkorligidir. Andijon va Shahrixon shaharlari hamda Andijon, Baliqchi, Izboskan, Paxtaobod, Xo‘jaobod tumanlarida dasturning ijrosini faol amalga oshirdi⁴³.

Dasturni amaliyotga tatbiq etish hamda yoshlarni xususiy mulkka bo‘lgan qiziqishini ortirish maqsadida Andijon viloyatining o‘zida ko‘chmas mulk

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “ O‘zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 344-son qarori <https://lex.uz/docs/470217>

⁴² Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA) M.734-fond, 1-ro‘yxat, 428-ish, 1-varaq.

⁴³ AVDA M.734-fond, 1-ro‘yxat, 428-ish, 1-varaq.

obyektlarini sotishga mo'ljallangan 27 ta idora tashkil etildi, aksiya bozorini rivojlantirish uchun esa 9 ta agentlikning ish faoliyati yo'lga qo'yildi⁴⁴.

Andijon viloyatida 1996-yilning birinchi yarim yilligida ko'chmas mulk obyektlarini auksion va birjalar orqali sotish yo'li bilan tadbirkorlik subyektlariga 40 ta qurilishi bitmagan obyektlar mulk sifatida rasmiylashtirib berildi. Natijada, 6959,4 ming so'mlik ishlar amalga oshirildi⁴⁵.

1996-yilning oxiriga kelib, viloyatda tadbirkorlarning jadallashgani ko'zga ko'rinda boshladi. Masalan, viloyat tadbirkorlari "Tashabbus" ko'rik tanlovida faol qatnashib, Andijon viloyatdagi "Bek" xususiy firmasi respublikada 3-o'rinni egalladi⁴⁶. Demak, bu davrda tadbirkorlik faoliyatini rivojlanish davlat siyosatida ustuvorlik kasb etgan. Qolaversa, yangi mustaqillikka erishgan yosh davlat oldida aholi, ayniqsa, yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini bartaraf etishda samarali yo'l sifatida qaratilgan.

1996-2001-yillar mobaynida Yoshlar tashkilotlari hamda jamg'armalari asosida yoshlar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda yuqoridagi qonunlar ko'magida amalga oshirilib kelindi. 2001-yilga kelib esa yoshlar sohasida katta bir harakat vujudga keldi, ya'ni "Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati". Ushbu tashkilot keyingi yillarda yoshlar masalasida davlat siyosatini har tomonlama amalga oshirishga ko'maklashdi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-iyuldagi "Ta'lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni yoshlar tadbirkorligi sohasidagi ishlarning davomi bo'ldi⁴⁷. Endi yoshlar tadbirkorligi tushunchasi birmuncha o'zgardi. Farmonga muvofiq, mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlarning kamida 30 foizini o'rta va o'rta-maxsus ta'lim muassasalari bitiruvchilarini ishga qabal qilgan tadbirkorlik subyektlariga qushimcha imtiyozlar va afzalliklar berildi. Bular,

⁴⁴ AVDA M.734-fond, 1-ro'yxat, 428-ish, 2-varaq.

⁴⁵ AVDA M.734-fond, 1-ro'yxat, 428-ish, 3-varaq.

⁴⁶ AVDA M.734-fond, 1-ro'yxat, 428-ish, 6-varaq.

⁴⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Таълим муассасаларининг битирувчиларини тadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qushimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi ПФ-4232-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010, №30, 251 мода.

Birinchidan, xaridorlar tomonidan moliyaviy va ijtimoiy majburiyatlarni amalga oshirish sharti bilan davlat mulki obyektlarini “nol” qiymatda xarid qilish bo'yicha o'tkaziladigan tanlov savdolari natijalarida, tanlov savdolarining boshqa qatnashchilari bilan uning takliflari o'rtasida teng sharoitlar yuzaga kelgan taqdirda egalik huquqini tuzishda ustunlik berildi.

Ikkinchidan, davlat mulki uchun ijara olingan taqdirda ijara to'lov stavkasining 50 foizi miqdorida belgilash. Bunda xodimlar sonining oshirilishiga yo'l qo'yiladi, imtiyozlar va preferensiyalar esa O'zbekiston Respublikasining o'rta ta'lim muassasalarining bitiruvchilari tashkil qilishi va bitiruvchilar o'qishni yakunlaganiga hali uch yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lishi lozimligi ko'rsatilgan.

Qolaversa, kichik firmalar va korxonalar tomonidan respublikaning ta'lim muassasalari bitiruvchilari ishga olib, ular bilan mehnat shartnomalari tuzilgan taqdirda, band xodimlarning o'rtacha yillik soni qonun hujjatlarida belgilangan cheklangan me'yordan 50 foiz oshirilgan hollarda o'z maqomi va kichik korxonalar taqdim qilingan imtiyozlar, huquqlar va kafolatlar ularda saqlanib qolishi belgilangan⁴⁸. Ushbu imtiyozlar, yoshlar tadbirkorligini davlat siyosatida qo'llab-quvvatlanishini anglatadi.

Ammo shuni ham takidlab o'tish kerakki, 2010-2017-yillar mobaynida taqdim etilgan imtiyozlardan to'g'ri va oqilona foydalanish tartiblari va nazorati to'liq ishlab chiqilmagan edi. Ayni shuning uchun ham joylarda imtiyozlarni olishda tanish-bilishchilik, korrupsion holatlar avj oldi. Bu esa yosh tadbirkorlar orasida ijtimoiy notenglik vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Natijada esa, ularning ijtimoiy-psixologik ishchangligi sustlasha boshladi.

Yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan band bo'lishi, shu sohaning egasi va ertasi bo'lishi uchun mo'ljallangan farmon to'laqonli bajarilmadi va amaliyotda qo'llanilmadi. Jumladan, 2014-yilda kasb-hunar kollejlarining 495 ming nafarga yaqin bitiruvchisining bandligi ta'minlangani ko'rsatilgan. Ularning 423,1 ming nafari ishga joylashdi, 56 ming nafari tadbirkorlik faoliyati bilan band, 14,3 ming

⁴⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Таълим муассасаларининг битирувчиларини тadbirkorlik faoliyatiga жалб этиш борасидаги қўшимча чора-таdbirkorlik faoliyatlar тўғрисида”ги ПФ-4232-сон Фармони // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010. №30, 251-модда.

nafari oliygohlarga o'qishga qabul qilingan, deb ta'kidlangan. O'z xususiy ishini ochib, biznes bilan shug'ullanishga qaror qilgan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga tijorat banklari tomonidan 200 mlrd so'mdan ortiq imtiyozli kredit berilgani to'g'risida ma'lumotlar ham mavjud⁴⁹.

2010-2016-yillarda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tuman Yengil sanoat kasb-hunar kollejida o'qituvchilik qilgan Zaynabxon Mamadjanovanning so'zlariga ko'ra, voqea aslida boshqacharoq bo'lgan. Ya'ni, hisobotlar uchungina bitiruvchilarni ishga joylashtirish, mutaxassislagi to'g'ri kelmasa ham fermerlar, tadbirkorlar va boshqa shunga o'xshash xususiy sektor, yuridik shaxs maqomiga ega tashkilotlardan uch tomonlama shartnoma imzolangan. Aslida, o'quvchilar qayerga ishga joylashgani, nima vazifa bajarishini o'zi ham bilmagan. Hisobotlar esa, "xo'jako'rsinga" tayyorlangan. Ishga joylashgan o'quvchilarga hattoki oylik maosh ham tayinlanmagan. Umuman olganda, 2010-yillarda yoshlar orasida ishsizlik katta bo'lgan, kollej bitiruvchilarining katta qismi o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topa olmagan⁵⁰.

O'zbekiston Respublikasida yosh avlodga qaratilgan davlat siyosatining bosh tamoyillari davrga hamohang tarzda takomillashib borishi zamon talabi edi. O'tgan davr mobayni yoshlar masalasiga oid ko'plab ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi, aslida yoshlar tadbirkorligi deganda kimlar tushinilishiga aniq izohlar berilmaganligi, buning natijasida yoshlarga taqdim etiladigan imtiyozlar va afzalliklar olishda turli hil ijtimoiy notenglik, korrupsion holatlar avj olishi ushbu sohada yangi islohotlarini talab qildi.

Ushbu maqsadda, 2016-yil 14-sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni yangi tahrirda qabul qilindi⁵¹. Buning natijasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi sohasida muhim vazifalar belgilandi:

⁴⁹ Boymirzaev D. N. Kasb-hunar kolleji bitiruvchilarini ish bilan bandligini ta'minlash muammolari (Elektron resurs) kirish rejimi: maqolalar.uz murojaat qilingan sana: 06.06.2020 y.

⁵⁰ Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumanida yashovchi nafaqadagi o'qituvchi Mamadjanova Zaynabxon Ahmadjanovna bilan qilingan suhbat. Suhbat 09.06.2022 yilda yozib olingan.

⁵¹ O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Qonuni (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 7.07.2020 y. kirish rejimi: <https://www.lex.uz/docs/3026246>

- 1) mamlakatda yoshlarga doir davlat siyosatida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilash;
- 2) yoshlar qatlamini ijtimoiy yo‘nalishlarda himoya qilish dasturlarini ishlab chiqish;
- 3) yoshlar masalasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi boshqaruv idoralarini tuzish;
- 4) yoshlar tadbirkorligini tashkil etish va amalga oshirishga mo‘ljallangan moliyaviy mablag‘larni tartibga solish;
- 5) respublikada yoshlar manfaatlarini xalqaro majburiyatlari doirasida ifodalash;
- 6) mamlakatda yoshlar va ularning tashkilotlari hamda birlashmalarini ijtimoiy munosabatlarini huquqiy jihatdan qayta ko‘rib chiqish;
- 7) respublika yoshlarining, yoshlar jamoat uyushmalarining tashabbuslarini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va tashkiliy jihatdan qo‘llab-qo‘vvatlash;
- 8) barcha huquq subyektlarining O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo‘yilgan majburiyatlariga rioya etishlarini nazorat qilish, yoshlarga oid siyosatni shakllanitirish hamda amalga oshirishning boshqa masalalari⁵².

Yuqorida belgilangan vazifalar asosida O‘zbekiston da yoshlar tadbirkorlik sohasini bosqichma-bosqich, aniq maqsadga yo‘naltirilgan holda isloh qilish bo‘yicha ko‘zlangan dasturlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Chunki, jamiyat kelajagi yoshlarning moddiy va ma‘naviy, oliy insoniy qadriyatlarni o‘zlashtirishlari, ijtimoiy faollikka tayyorligi bilan belgilanadi.

Yangi tahrirda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonunda, sohaga oid siyosatni amalga oshiruvchi davlat idoralarining tizimi va ularning vakolatlari ham aniq qilib belgilab qo‘yildi.

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyati idoralari, ta‘lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, madaniyat, mehnat tashkilotlari mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda alohida vakolatlari, ijtimoiy himoya qilish masalasidagi majburiyatlari,

⁵² O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” Qonuni (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 7.07.2020 y. kirish rejimi: <https://www.lex.uz/docs/3026246>.

iqtidorli va iste'dodli, tadbirkor yoshlarni davlat tomonidan qo'llab-qo'vvatlash masalalari alohida moddalarda o'z aksini topgan.

Ikkinchidan esa, yuqoridagi qonunning 3-moddasida yoshlarga oid davlat siyosati, yoshlar (yosh fuqaro), yosh oila, yosh mutaxassis, yoshlar tadbirkorligi tushunchalariga alohida ta'rif berilgan. Qolaversa, qonunning 2-bobida yoshlar masalasiga doir davlat siyosatini amalga oshiruvchi davlat organlarining vakolatlari va vazifalari moddalar bilan aniq qilib belgilab qo'yilgan. 14-moddada esa yoshlarning mehnat qilishi va bandligini tartibga solish davlat mehnat organlari zimmasiga yuklatilgani aks etadi. Ushbu qonunnig 26-moddasida yoshlar tadbirkorligining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida qanday imtiyozlar va shart-sharoitlar yaratilganligi haqida so'z boradi. Albatta, qonunda yoshlar masalasiga oid ko'p qirrali siyosat haqida so'z yuritilar ekan, bunda har bir ijtimoiy-iqtisodiy masalalar hisobga olingan. Ushbu qonunni yangi tahrirda qabul qilinishi natijasida yoshlar tadbirkorligi aniq, qisqa va lo'nda tushunchaga ega bo'ldi. Xususan, yoshlar tadbirkorligi deb, 18-30 yoshli fuqarolar tomonidan tashkil etiladigan subyektlar tushinilishi belgilangan, qolaversa ishchilar sonining 70 foizidan ortig'ini yoshlar tashkil etsa, tassischisi yoshi katta bo'lsa ham yoshlar tadbirkorligini anglatishini nazarda tutuvchi qoidalar qabul qilingan.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida Prezident Sh. M. Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 27-iyunda "Yoshlar-kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmonini qabul qilinishi respublika umumiy ishchi kuchining katta qismini tashkil etayotgan yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqdi. Buning natijasida, birinchidan, yoshlarni biznes tashabbuslari, startaplari⁵³, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga amaliy ko'maklashish va qo'llash; ikkinchidan, ishsiz bo'lgan yoshlarni dunyo mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblarga va biznes qilish ko'nikmalariga o'qitish; uchinchidan, yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlash ko'zda tutildi.

⁵³ Стартап (Startup) – (инг. “startup” – бошламоқ) — ўз фаолиятини инновацион гоялар ёки технологияларга асосланган ҳолда юритувчи янги ташкил этилган компания, фирма ёки бизнес лойиҳа. Қаранг: Иқтисодий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2021. – Б. 206.

Yuqoridagi vazifalarning ijrosi o‘laroq, 2018-yilda Yoshlar ittifoqi huzurida “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tashkil etildi. Jamg‘arma davlat dasturida belgilangan vazifalarni davlat tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirib keldi.

Xususan, Yoshlarning tadbirkorlik sohasini rivojlantirish bo‘yicha Respublika komissiyasining 2020-yil 3-fevraldagi hisobotiga ko‘ra, “Yoshlar – kelajagimiz” dasturi doirasida 2020-yilda yoshlarning 1818 ta tadbirkorlik loyihalariga jami 427,8 mlrd. so‘m miqdorida imtiyozli kredit mablag‘lari ajratish orqali 10 025 ta ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi⁵⁴. Jumladan, 840 ta ish o‘rni ishlab chiqarish sohasida yaratilgan bo‘lsa, ushbu faoliyat turiga jami 197,7 mlrd. so‘mlik kreditlar taqdim etilgan, xizmat ko‘rsatish sohasida 155 mlrd. so‘m evaziga 657 ta, qishloq xo‘jaligida 75,1 mlrd. so‘mlik 321 ta loyiha amalga oshirildi⁵⁵.

Shu o‘rinda, dastur doirasida imtiyozli mablag‘larni olib o‘z biznes faoliyatini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor yoshlar tomonidan 2020-yil davomida 2,7 mln. AQSH dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilinishiga erishilganini e‘tirof etish maqsadga muvofiq⁵⁶.

2018-2020-yillar davomida Jamg‘arma tomonidan yoshlarning biznes loyihalarini nafaqat “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi orqali, balki “Har bir oila – tadbirkor”, hunarmadchilikni rivojlantirish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalarini qo‘llab-quvvatlash kabi boshqa dasturlar doirasida ham moliyalashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilganligi natijasida 2139 nafar yoshlarning 95,1 mlrd. so‘mlik loyihalarini moliyalashtirishga ko‘maklashildi⁵⁷.

Davlat dasturi doirasida hududlarda 19 ta “Yosh tadbirkor” kovorking-markazlari⁵⁸ hamda 212 ta “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari foydalanishga

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi joriy arxivi (O‘zR YoKJJA), 2018-2021 yil ma‘lumotlari. 3-06-jild 1-varaq.

⁵⁵ O‘zR YKJJA, 2018-2021 yil ma‘lumotlari. 3-06-jild 1-varaq orqasi.

⁵⁶ O‘zR YKJJA, 2018-2021 yil ma‘lumotlari. 3-06-jild 1-varaq.

⁵⁷ O‘zR YKJJA, 2018-2021 yil ma‘lumotlari. 3-06-jild, 2-varaq.

⁵⁸ Kovorking (ingliz tilidan kovorking “hamkorlik”) keng ma‘noda - umumiy makonda turli xil ish bilan band bo‘lgan odamlarning ishini tashkil etishga yondashuv. Kovorking – ish joyining moslashuvchan tashkil yetilishini va rezidentlar hamjamiyatini hamda ichki madaniyatni shakllantirish istagini tavsiflaydi. (Elektron resurs) Murojaat qilingan sana: 12.08.2021 yil. Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/wiki/коворкинг>.

topshirildi hamda ularda jami 2 380 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi⁵⁹. Mazkur komplekslarda 152 ta savdo do‘koni, 96 ta tikuv sexi, 161 ta ayollar va erkaklar saloni, 108 ta novvoyxona va qandolat sexi, 70 ta avtoservis, 16 ta umumiy ovqatlanish shahobchasi, 14 ta hunarmandchilik ustaxonasi, 13 ta o‘quv markazi, 8 tadan “Buk kofe”, kitob do‘koni, telefon tuzatish ustaxonasi, kompyuter xizmati, fotostudiya, dorixona va boshqa pullik xizmat ko‘rsatuvchi maskanlar tashkil etildi⁶⁰. Hududlarda ishbilarmonlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan yoshlarning sohaga oid bilimlarini oshirish hamda ularga tadbirkorlik sirlarini o‘rgatish maqsadida malakali mutaxassislar tomonidan 142 ta biznesga oid darslar tashkil etilib, shu yo‘l orqali 3112 nafar yoshlar tadbirkorlikka yo‘naltirildi. Dasturi ko‘magida respublikaning barcha tuman (shahar)larida imtiyozli sarmoyalarni olib, o‘z biznes faoliyatini yo‘lga qo‘ygan yosh tadbirkorlar ishlab chiqargan mahsulotlarining savdo rastalari tashkil etilib, ularda 2,5 ming nafarga yaqin tadbirkorlik faoliyatiga qiziqqan yoshlar jalb qilindi. Sohada o‘z ishini boshlash istagida bo‘lgan 2 ming nafar yoshlarni joylardagi katta-katta ishlab chiqarish obyektlariga 174 marotaba sayohatlari tashkil etildi. Bu esa yoshlarda tadbirkorlikka bo‘lgan ishtiyoqini oshirishga xizmat qildi⁶¹.

Davlat dasturi doirasida bir qator biznes loyihalar ishlab chiqildi. Xususan, Yoshlarning startaplari va rejalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning boshlang‘ich dasturlarini ishlab chiqish, biznes ishlarini xomaki rejalarini yaratish, loyihalarning hayotiyligini sinash va bozor faoliyatiga tatbiq qilish jarayonlarini o‘rgatish, shuningdek, yoshlarning zamonaviy, amaliy va istiqbolli startap loyihalariga grant mablag‘lari ajratish maqsadida “Startap tashabbuslar” loyahasini amalga oshirildi. Loyiha dasturi to‘g‘risida o‘zbek, rus, ingliz tillarida batafsil ma’lumot berish hamda Dasturda ishtirok etish istagini bildirgan jamoalardan onlayn ariza qabul qilish maqsadida www.startupinitiatives.uz saytining faoliyati tashkil etildi. Ushbu dasturga www.startupinitiatives.uz sayti orqali 2020-yilning o‘zida 905 ta onlayn ariza kelib tushdi. Loyihadan muvafaqiyatli o‘tgan 447 ta startap jamoadan

⁵⁹ O‘zR YoKJJA, 2018-2021 yil ma’lumotlari. 3-06-jild, 3-varaq.

⁶⁰ O‘zR YKJJA, 2018-2021 yil ma’lumotlari. 3-06-jild, 3-varaq.

⁶¹ O‘zR YKJJA, 2018-2021 yil ma’lumotlari 3-06-jild, 3-varaq.

255 tasi akseleratsiya⁶² bosqichiga taklif qilindi. 2021-yil fevral oyida loyihaning final bosqichi (Demo day) o'tkazildi. Ushbu loyiha orqali o'z tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan, tadbirkorlik g'oyasi bilan yurgan jamoalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlandi. E'tirof etish kerakki, shunday loyihalar dunyoni rivojlangan davlatlarida juda ko'p uchraydi. Bu esa yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga davlat tomonidan ko'maklashishni yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi⁶³.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan Andijon viloyatidagi yoshlarning startap loyihalariga 2 mlrd. so'm miqdorida grant mablag'i ajratishga qaratilgan "Yunikorns" ("Unicorns") tadbiri amalga oshirildi. "Yunikorns" loyihasiga turli jamoalaridan 466 ta elektron arizalar qabul qilindi, ushbu loyihalarining 215 tasi dastlabki bosqichidan o'tib, keyingi taqdimot bosqichiga o'tdi⁶⁴.

2020-yil 10-avgust kuni "Startap loyihani muvaffaqiyatli taqdimot qilish" mavzusida YUTub (YouTube) tarmog'i orqali vebinar⁶⁵ tashkil etildi. Ushbu vebinarida 997 nafar yoshlar ishtirok etdi⁶⁶.

"Yunikorns" loyihasining taqdimot bosqichidan samarali o'tgan 69 ta startap loyihalar jamoasi keyingi akseleratsiya bosqichida tajribali tadbirkorlarni va o'z sohasini mutaxassislarini jalb qilgan holda 2020-yilning 28-sentyabrdan 11-oktyabrga qadar o'quv darslar tashkil etildi. "Yunikorns" loyihasining yakuniy bosqichi esa 2020-yil 23-noyabrda Andijon shahridagi Dijital siti ("Digital city")da tashkil etildi. Ushbu dasturidan muvaffaqiyatli o'tgan 25 ta jamoa o'z loyihasini taqdimot qildi. Loyihaning so'nggi natijasiga ko'ra, g'olib deb topilgan 15 ta samarali startap loyihaga 1,8 mlrd.so'm maqsadli grant mablag'i ajratildi⁶⁷.

⁶² Акселерация (лот. acceleratio тезлаштириш, ингл. acceleration) — ишлаб чиқариш қувватининг кўпайиши-озайиши, истеъмол талаби билан боғлиқ ҳолда инвестициянинг кўпайиши-озайиши. Микдор жиҳатдан акселерация коэффиценти ёки акселератор томонидан фойданинг нисбатан ўсиши, истеъмол талаби ёки тайёр маҳсулотнинг ошиши билан боғлиқ ҳолда инвестиция ўсиши муносабати билан акс этирилади. Бу кўрсаткич истеъмол сарфларининг ўсиш даражаси натижасида ҳосил бўлган янги капитални изоҳлайди. Қаранг: Кичик бизнес ва тadbirkorlikни ташкил этиш, режалаштириш, бошқариш. Ўқув қўлланма. – Тошкент: "Фан ва технология" – 2005. – Б. 225.

⁶³ O'zR YKJJA, 2018-2021 yil ma'lumotlari. 3-06-jild, 5-varaq.

⁶⁴ O'zR YKJJA, 2018-2021 yil ma'lumotlari. 3-06-jild, 5-varaq.

⁶⁵ Vebinar – bu internet tarmog'i orqali, jonli e'firda tashkil qilingan anjumanar, darslar va uchrashuvlardir. (Elektron resurs) kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/wiki/murojaat> qilingan sana: 11.12.2021 y.

⁶⁶ O'zR YKJJA, 2018-2021 yil ma'lumotlari. 3-06-jild 6-varaq.

⁶⁷ O'zR YKJJA, 2018-2021 yil ma'lumotlari. 3-06-jild, 6-varaq.

Akseleratsiya loyihalari yaxshi samara berishi rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lum. Ushbu loyihaning O'zbekiston da keng joriy qilish maqsadida Farg'ona shahridagi O'zbekiston – Koreya xalqaro universiteti va Buxoro davlat universitetida tajriba-sinov tariqasida “Biznes akselerator” faoliyati yo'lga qo'yildi. Mazkur faoliyatni muvofiqlashtirib borish maqsadida www.accelerators.uz sayti ishlab chiqilib, uning faoliyati yo'lga qo'yildi. Ushbu sayt orqali O'zbekiston da yoshlar tadbirkorligi sohasida mavjud loyihalar bilan tanishish va qatnashish mumkin. Sayt barcha uchun ochiq bo'lib, respublikaning istalgan yeridan tashrif buyurib, so'rovnoma to'ldirib, ishtirokchiga aylanish mumkin. 2021-yil aprel oyiga kelib 6 ta akseleratsiya loyihasi sayt orqali yo'lga qo'yilgan⁶⁸.

“Yoshlar-kelajagimiz” dasturi doirasida olib borilayotgan izchil ishlar, yoshlar tadbirkorligiga oid davlat siyosatini amalga oshirish ishlari amaliy natijalarni berdi. Mamlakatda yosh tadbirkorlarning manfaatlari yanada to'liq ta'minlashga qaratilgan keng qamrovli amaliy ishlar bajarildi. Xususan, o'tgan davr (2018-2020-yillar) mobaynida mazkur jamg'armaning viloyat, shahar va tuman filiallari tomonidan tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi yoshlarni kichik biznesga yo'naltirish va ularning loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, o'zining ishbilarmonligi bilan ajralib turgan yosh tadbirkorlar faoliyatini rivojlantirishga yaqindan ko'maklashish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

“Yoshlar-kelajagimiz” davlat dasturi asosida yosh tadbirkorlarning 459 ta biznes loyihalariga jami 137 mlrd. 655 mln. so'm imtiyozli kredit ajratish orqali 2 540 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. O'z faoliyatini Dastur loyihalari asosida yo'lga qo'yib ish boshlagan yosh tadbirkorlar tomonidan, 2018-2019-yillar mobaynida 2 million 100 ming AQSH dollarida mahsulot eksport qilindi⁶⁹.

“Yoshlar-kelajagimiz” jamg'armasi tomonidan “har bir yoshga bir gektar yer” loyihasini amalga oshirilishi natijasida, aniq mashg'ulot (ish) turiga ega bo'lmagan yoshlar qatlami ijtimoiy va moddiy muhofaza qilishga erishildi. Birgina

⁶⁸ O'zR YKJJA, 2018-2021 yil ma'lumotlari 3-06-jild 6-varaq.

⁶⁹ Дадабоев О. Ёшлар тadbirkorлиги: кичик бизнестан юксалиш сари // Наманган ҳақиқати, 2020. 15 июнь.

2020-yilning o'zida loyiha doirasida 1638 nafar yosh o'g'il-qizlar fermer xo'jaliklariga birlashtirilib, 1 gektardan yer ajratib berildi⁷⁰.

Yoshlarning bandligini ta'minlash, ularning muammolarini hal etish maqsadida mahallalar kesimida shakllantirilgan "Yoshlar balansi"⁷¹ asosida 2021-yildan boshlab "Yoshlar daftari"⁷² tizimi joriy etildi⁷³.

Qolaversa, yoshlarni har tomonlama qullash tizimini yanada takomillashtirish, ularni ish bilan bandligini oshirish, tadbirkorlik sohasidagi g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish, ularni muqim daromad olishi uchun qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish, bu borada olib borilayotgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish maqsadida "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6208-sonli Farmoni e'lon qilindi. Farmonga ko'ra, "Yoshlar daftari" tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, unga ro'yxatga olingan yoshlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi va o'zini-o'zi band qilishiga zarur bo'lgan texnika va anjomlarni xarid qilish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan subsidiya⁷⁴ ajratish ishlari tashkil qilindi. "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turgan yoshlarni ishga qabul qilgan tadbirkorga davlat mulkini ijaraga olishda to'lovlaridan imtiyozlar taqdim etildi (1.2.1-ilova). 2021-yil 1-iyundan esa, "Yoshlar daftari"da turgan biznes faoliyatini boshlash uchun bino va inshootlarni ijaraga olgan yosh tadbirkorlarga bir yillik ijara xarajatlarning

⁷⁰ Дадабоев О. Ёшлар тadbirkорлиги: кичик бизнестан юксалиш сари // Наманган ҳақиқати, 2020. 15 июнь.

⁷¹ Ёшлар баланси – бу ҳудудлардаги ёшларни умумий қамраб олган ҳолда бандлигини таъминлаш ва бўш вақтини мазмунли ташкил этишга қаратилган тизим. Қаранг: Ёшлар билан манзилли ва тизimli ишлаш бўйича долзарб вазифалар белгиланди // Янги Ўзбекистон, 2021. 28 январь.

⁷² Yoshlar daftari – ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish bo'yicha ma'lumotlar bazasi.

⁷³ Yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyati boshqarmasi joriy arxivi, 2020-2021 yil ma'lumotlari.

⁷⁴ Субсидия – (лотинча "subsidiium" – ёрдам, қўллаб қувватлаш) – товарлар ishлаб чиқариш, ишлар бажариш, хизматлар кўрсатиш ва уларни реализация қилишни молиялаштириш ёки биргаликда молиялаштириш ёхуд мақсадли харажатларнинг ўрнини қисман қоплаш учун бюджет тизими бюджетлари ҳисобидан юридик ва jisмоний шахсларга бериладиган пул маблағлари. Қаранг: Иқтисодий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2021. – Б. 208.

30 foizi, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravarigacha bo'lgan miqdori "Yoshlar daftari" jamg'armalari hisobidan to'lab berilishi yo'lga qo'yildi⁷⁵.

2021-yilning 9 oyida amalga oshirilgan ishlar natijasida, Namangan viloyatidan 49646 nafari "Yoshlar daftari"ga kiritilib, 48230 nafar (97,1 foiz) yoshlar bevosita tadbirkorlikka yo'naltirildi. Tizimni raqamlashtirish, yoshlarga berilayotgan imtiyozlarning shaffofligini ta'minlash, joylarda amalga oshirilayotgan ishlarni 3 bosqichda monitoring qilish imkonini beruvchi "yoshlardaftari.uz" yagona elektron platformasi ishga tushirildi. Bu esa yosh tadbirkorlar faoliyatida uchrayotgan byurokratik to'siqlar, ortiqcha vaqt sarflashlar va boshqa bir qancha muammolarga yechim bo'ldi⁷⁶.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida yosh tadbirkorlarga oid davlat siyosati izchil amalga oshirilayotgani, o'tgan davrda, yoshlar tadbirkorligi sohasiga oid qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingani, ularda yoshlarning intilishi va iqtidorlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishga oid, rahbar kadrlarning boshqaruv salohiyatini yuksaltirish bo'yicha mustahkam tizim ishlab chiqilganini ko'rish mumkin.

O'zbekistonda davlat va jamiyat taraqqiyotida o'ziga yarasha munosib hissa qo'shayotgan yosh avlod vakillarining ijtimoiy-iqtisodiy hayotga kirib kelishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunga kelib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi asosida yoshlar hayotiga bevosita taalluqli bo'lgan 40 tadan ortiq Qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilinganini e'tirof etish zarur. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 3 ta Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni, 8 ta Qarori, 2 ta Farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 18 ta Qarori va 4 ta Farmoyishi imzolandi⁷⁷. Qolaversa, har o'quv yili yakuni bilan tuman, shahar, viloyat va respublika darajasida bitiruvchilar bandligini ta'minlashga oid dasturlar

⁷⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va bandligiga ko'maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6208 Farmoni// <https://lex.uz/docs/5382151>.

⁷⁶ Ma'lumotlar Yoshlar ishlari agentligi Namangan viloyati bo'limi tomonida elektron ko'rinishda taqdim etilgan.

⁷⁷ Қосимов Р. С. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсати, унинг меъёрий-ҳуқуқий асослари // "Ёшларга оид давлат сиёсатини амалга ошириш стратегияси: мавжуд вазият ва ривожлантириш истиқболлари" мавзусидаги Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2019. – Б.5.

qabul qilish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi. Dasturda har bir mahalla, tuman va viloyat kesimida qancha yoshlarni kasb-hunarga o‘qitish, shunchasini ish bilan ta’minlash, nechta startap va tadbirkorlik loyihasini amalga oshirish belgilanishi shart etib qo‘yildi. Bu esa yoshlar bilan ishlash bo‘yicha “bandlik”, “innovatsiya” va “investitsiya” dasturi bo‘lib xizmat qiladi⁷⁸.

Qabul qilingan qarorlar va farmonlar davlat siyosati yo‘nalishidagi qonunchilikka bu qadar jiddiy munosabat O‘zbekistonda yoshlarga bo‘lgan e’tibordan dalolat beradi. Bugungi yoshlarning ma’naviy qiyofasi, bilimi ertaga jamiyat manfaati, yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida yoshlarning o‘rni va mas’uliyati oshib bormoqda.

Mamlakatda yoshlar tadbirkorligi sohasiga oid yo‘nalishlardagi qonunchilikka jiddiy e’tibor berilishi, mamlakatda yoshlarga oid olib borilayotgan davlat siyosati ularni tarbiyalashda va har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1.3-§. Yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishining me’yoriy-huquqiy asoslari

Taraqqiy etgan davlatlar tajribasi hamda yangi tarix bozor iqtisodiyoti, xususiy mulk munosabatlari va tadbirkorlik faoliyati mamlakat rivojida samarali ekanligini isbotladi. O‘tgan 30 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li davomida esa, O‘zbekistonda olib borilgan ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy islohotlar natijasida tadbirkorlik sohasi nafaqat qayta shakllandi, balki uning mustahkam huquqiy poydevori yaratildi va ushbu sohada islohotlar davom ettirilmoqda. “Qayta shakllandi” deyilishiga sabab esa, qadimdan “Buyuk ipak yo‘li”da joylashgan Markaziy Osiyo hududida savdo, ishlab chiqarish, hunarmandlik va xizmat ko‘rsatish sohalari bozor qonuniyatlariga asoslangan edi⁷⁹. Bunga birgina qadimgi Turon hududida yashagan xalq o‘z farzandlarini 5 yoshga to‘lishi bilan bilim olishga yo‘llab, dastavval, xat-savod va hisob-kitobni o‘rganishga jalb qilgani va

⁷⁸ Мирзиёев Ш. М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 254.

⁷⁹ Тошқулов А. Хуқуқий асос – кичик бизнес фаолиятининг бош омили // Сурхон тонги, 2012. 24 январь.

bolalar o'smir-balog'at yoshiga yetgach esa, ularni dunyo tanish, savdo-tijorat ishlarini o'rganish uchun maxsus vakillar homiyligida xorijiy ellarga yuborilgani misol bo'la oladi⁸⁰.

Mustaqillik sharofati bilan esa, tadbirkorlik tarixiy tajriba va zamon talablari darajasida qayta qaror topdi, tadbirkorlar esa jamiyatni harakatga keltiruvchi kuchga aylandi. Yoshlar faqatgina davlat idoralarida emas, balki tadbirkorlik sohasining tikuvchi, me'mor, dasturchi va boshqa shu kabi kasblarga qiziqish bildirib, ushbu zamon talabidagi bilim va ko'nikmalarni mukammal o'zlashtirmoqdalar. Ushbu faoliyat turlarini, asosan, tadbirkorlik sohasi birlashtirishini hisobga olganda, biznes vakillari tomonidan moddiy ne'matlar yaratilayotgani, davlat va jamiyat oldidagi mas'uliyat, shuningdek, o'z moddiy imkoniyatlarini kengaytirishi, ya'ni yuqori daromadli ish turlari ekanligi yoshlarni tadbirkorlikka bo'lgan qiziqishini yanada ortirmoqda. O'tgan yillar davomida 2008-yil "Yoshlar yili", 2009-yil "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2011-yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili", 2018-yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-qo'vvatlash yili", 2019-yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", 2021-yil esa "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" bo'lgani yoshlar tadbirkorlik faoliyatini yanada rag'batlantirish barobarida bu sohadagi 30 yillik ishlarni va islohotlarni sarhisob qilish hamda yangi vazifalarni belgilab olish imkoniyatini berdi. Eng muhimi, yillarning nomlanishi bilan ushbu sohadagi islohotlar keyingi yillarda ham ustuvorlik kasb etishi hamda islohotlarni yangi kuch bilan davom ettirilishi an'anaga aylandi.

Yoshlar tadbirkorligining me'yoriy-huquqiy tizimini va uni davlat tomonidan qo'llanilishini tahlil qilish jarayonida yoshlarning ishbilarmonlik faoliyatiga bevosita aloqador va daxldor me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shartli ravishda ikki guruhga ajratildi:

Birinchi guruh xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar: BMT Bosh Assambleyasining 2011-yil 21-iyundagi BMT A /RES/65/267-sonli "Yoshlar

⁸⁰ Усмонов Қ., Содиқов М., Бурханова С. Ўзбекистон тарихи. - Тошкент. 2006. – Б. 103.

masalalari bo'yicha yuqori darajadagi uchrashuvni tashkil etish to'g'risida"gi qarori⁸¹, BMT Bosh Assambleyasining 2009-yil 18-dekabrda 64/134-sonli "2010-yilni Xalqaro yoshlar yili deb e'lon qilish to'g'risida"gi qarori⁸², BMTning 2009-yil 1-dekabrda A/64/432-sonli qarori loyihasi "Yoshlarga oid siyosat va dasturlar"⁸³, 2011-yil 13-iyulda A/65/L.87-sonli "Yoshlar: muloqot va o'zaro tushunish" mavzusidagi Bosh assambleyaning yuqori darajadagi yig'ilishining yakuniy qarori⁸⁴.

Ushbu hujjatlar odatda yoshlar bilan ishlashning umumiy strategiyasini o'z ichiga oladi. Hujjatlarda tadbirkorlik va biznesning ayrim jihatlariga e'tibor berilgan. Masalan, tadbirkorlik faoliyatini batafsil tartibga solish ixtisoslashgan tashkilotlar va fondlarga topshiriladi. Bundan tashqari BMT doirasidagi rasmiy shaxslarning xabarleri va nutqlari hamda yoshlar biznesini rivojlantirishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalarning qarorlari soha oid normativ hujjatlar sirasiga kiradi. Jumladan, yoshlar bandligi, ularni ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ko'maklashish imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq umumiy maqsad va vazifalar, shuningdek, xalqaro yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlari ko'rsatilgan axborotlar asosida yangi dasturlar ishlab chiqiladi. Ushbu guruhga yoshlar bilan ishlashni xalqaro hamkorlik darajasida takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar to'plami va maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlari kiradi. Qabul qilingan va amaliyotga joriy qilingan hujjatlar o'z xususiyatiga ko'ra quyidagini ifodalaydi: hujjatlar mazmun jihatdan tizimli va ko'p hollarda amaliy xususiyatga ega, qolaversa, qabul qilingan qonunlarda tavsiyalarni amalga oshirish, uni nazorat qilish va amalga oshirish bo'yicha aniq tadbirlarni ko'zlamaydi.

⁸¹ Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН №A/RES/65/267 от 21 июня 2011 г. «Организация заседания высокого уровня по вопросам о молодежи». (Elektron resurs). murojaat qilingan sana: 25.12.2020 g. Kirish rejimi: http://vmo.rgub.ru/files/organizazija_zased_po_molod_2011-146-2.pdf.

⁸² Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 18 декабря 2009 года №64/134 «О провозглашении 2010 года Международным годом молодежи» (Elektron resurs). murojaat qilingan sana: 25.12.2020 g. Kirish rejimi: http://vmo.rgub.ru/files/resol_64_134-146-2.pdf.

⁸³ Проект резолюции ООН от 1 декабря 2009 года №A/64/432 «Политика и программы, касающиеся молодежи» (Elektron resurs). murojaat qilingan sana: 25.12.2020 g. Kirish rejimi: http://vmo.rgub.ru/files/proekt_rezoluzii_oon_2010-146-2.pdf.

⁸⁴ Итоговый документ заседания высокого уровня Генеральной Ассамблеи по теме «Молодёжь: диалог и взаимопонимание» №A/65/L.87 от 13 июля 2011 г. (Elektron resurs). murojaat qilingan sana: 25.12.2020 g. Kirish rejimi: <http://www.un.org/ru/events/youth2010/hlm.shtml>.

Shu o'rinda xalqaro me'yoriy-huquqiy bazani tahlil qilishda quyidagi kamchiliklarni ta'kidlash o'rinli: ushbu qarorlar va qoidalarning aksariyati tavsiya xarakteriga ega va majburiy emas. Ularni amalga oshirilishi shubhasiz yoshlar tadbirkorligida ijobiy natijalarga erishishga olib keladi. Shu bilan birga, hujjatlar barcha davlatlarda birdek amal qilmaydi (ba'zi hollarda, ular mamlakatlar va mintaqalarning etnomadaniy va iqtisodiy xususiyatlari tufayli qo'llanilishi mumkin emas – muallif), bu esa ushbu sohadagi rivojlanish jarayonlarining nomuvofiqligi va buzilishini, shuningdek, dunyo hamjamiyati bilan bog'liq holda rag'batlantirishni kamaytiradi⁸⁵. Bir qator qoidalar rejalashtirilgan eksperimental tekshirishni va chuqur tahlilni talab qiladi, shuning uchun faqat ma'muriy bo'lib qolgan me'yoriy-hujjatlar amalda yanada rivojlanmaydi. Masalan, yoshlarni ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish uchun Xalqaro biznes liderlar forumi va shahzoda Uels fondi bilan hamkorlikda Yoshlar biznesini rivojlantirish dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, dasturni amalga oshirish bilan Xalqaro Yoshlar biznesi tashkiloti (YBI) shug'ullanadi. Ushbu dasturni tatbiq etishda dunyoning 39 mamlakati qamrab olingan⁸⁶. Dasturning mohiyati axborotni tarqatishdan boshlanib, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan yakunlanadi. Provard maqsadi esa, yoshlar startapi tashabbuslarini har tomonlama rivojlantirishdir. Afsuski, ushbu tashkilotlarning xizmatlaridan yosh tadbirkorlarning o'rtacha 10-15 foizidan ko'prog'igina foydalanadi⁸⁷. Buning sababi esa birinchidan, ushbu tuzilmalarning kuzatuvchi vakillarining jiddiyoq taqsimlanmaganligi bo'lsa, ikkinchidan, ajratilgan mablag'lar cheklangan va yordam olish shartlari, ayniqsa, moddiy yordam juda qiyin.

Ikkinchi guruhga, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari, Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Yoshlar tadbirkorligiga qaratilgan davlat dasturlar kiradi.

⁸⁵ Грошева Л. И. Управление бизнес-активности молодёжи в Тюменской области: Дисс... канд. социал. наук. – Тюмень. 2016. – С. 66.

⁸⁶ Международный форум лидеров бизнеса // Фонд содействия развитию микрофинансовой деятельности. (Электронный ресурс). мурожаат қилинган сана: 21.01.2021 Кириш режими: <http://www.fundmfi.ru/about/partners/iblf>.

⁸⁷ Грошева Л. И. Управление бизнес-активности молодёжи в Тюменской области: Дисс... канд. социал. наук. – Тюмень. 2016. – С. 66.

O'zbekistonda ilk marotaba 1990-yillarning boshlarida yoshlar tadbirkorligiga alohida e'tibor berildi (1991-yil 20-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati asoslari to'g'risida"gi qonun). Arxiv manbalariga ko'ra, ushbu qonun hujjatlari viloyatlarda bajarilishi yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Farg'ona viloyati faollar yig'ilishida yoshlarni ma'naviy, axloqiy va moddiy erkinligini ta'minlashda ularni kichik biznesga jalb qilish samarali ekanligi ta'kidlangan⁸⁸. Yoshlarga yangi to'liq tadbirkorlar sifatida qaralgan. Bular, asosan, o'rta maktabni bitirgan, hunar-texnika bilim yurtlari bitiruvchilari, harbiy xizmatni ado etib qaytgan yigitlar, yosh xotin-qizlar, davlat korxonalar va vazirlik idoralarini ish o'rinlar qisqarilishi sabab tark etgan mutaxassislardir. Aynan ular mamlakatimizda kichik biznesning shakllanishini ta'minladilar. 2021-yilga kelib, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan biznes subyektlarining 22,9 foizi (106 ming 574 tasi) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Yakka tartibda faoliyat olib boruvchilarning 21,5 foizini (71 ming 467 nafarni) 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Shuningdek, respublikada 3,4 mingta yosh fermerlar, 7,8 mingta yosh hunarmandlar faoliyat yuritadi⁸⁹. Yosh tadbirkorlar tomonidan yaratilgan ish o'rinlar soni Andijon viloyatida 9 229 ta, Namangan viloyatida 2 072 ta va Farg'ona viloyatida 8 770 tani tashkil etadi⁹⁰.

1991-yil 20-noyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonun yoshlar tadbirkorligiga quyidagicha sharh beradi: Xususiy tadbirkorlik subyektlarida umumiy ishlovchilarning tarkibi kamida 75 foizini 30 yoshgacha bo'lgan tashkil etganlar: o'quv muassasalarini kunduzgi bo'limlarining bitiruvchilari, ilmiy-tadqiqot muassasalar, innovatsiyalar va amaliyotga joriy etish ishlari olib borish ishlari uchun yosh izlanuvchilar tashkil etgan korxonalar, qolaversa, yoshlar masalasida tuzilgan tashkilotlar hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

⁸⁸ Farg'ona viloyati davlat arxivi (FVDA), 1220-fond, 1-ro'yxat, 129-ish, 10-30 varaqlar.

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" qarori // Lex.uz qidiruv tizimi. Murojaat qilingan sana: 12.08.2021.

⁹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-son Farmoniga 4-ilova // <https://lex.uz/docs/3826820#4458418>. Murojaat qilingan sana: 18.03.2021 yil.

Mahkamasi ro'yxatini belgilaydigan yoshlar uchun mahsulotlarni ixtisoslashtirib ishlab chiqaruvchi va xizmatlar taqdim qiluvchi korxonalar yoshlar tadbirkorligi hisoblanadi va imtiyozlar taqdim etiladi⁹¹. Ya'ni yuqoridagi omillarning birortasi to'g'ri kelsa, ushbu korxona, tashkilot yoki firma "Yoshlar tadbirkorligi" degan ma'noni anglatgan.

1991-yildan to 2016-yilgacha ("O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilingunga qadar – muallif) yillik davlat dasturlari, turli xil loyihalar asosida yoshlar tadbirkorligi rag'batlantirib kelindi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yoshlar masalalariga bag'ishlangan 2012-yil 7-martdagi 34-sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan "Yoshlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ma'naviy intilishlarini qo'llab-quvvatlash, ularni ma'naviy va jismoniy kamol toptirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturi"da (keyingi o'rinda Dastur deb ataladi – muallif) yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish, ularni har tomonlama qo'llash borasidagi ishlarni har bir viloyat, tuman va shahar kesimida tahlil qilib borish tizimi joriy qilishni nazarda tutadi⁹². Dastur ijrosini har bir davlat idoralari va vazirliklar tomonidan o'z xususiyatidan kelib chiqib bajarilishi ko'zda tutilgan.

Dastur ijrosini monitiring qilib borish maqsadida "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati saytining (www.kamolot.uz) Dastur ijrosi portali tashkil etildi⁹³. Portalga har bir tashkilot dasturning tegishli bandi bo'yicha ijro hujjatlarini yo'qlab bordi. Masalan, Markaziy bankka Dasturning 27-bandi tegishli bo'lib, unda o'tgan 2008-2012-yillar mobaynida yosh tadbirkorlarga berilgan kreditlar va ularni realizatsiyasi haqida tizimli ma'lumot tayyorlash va kelgusidagi istiqbolli loyihalarni moliyalashtirish vazifasi yuklatilgan⁹⁴. Xususan, birgina 2012-yil davomida yosh tadbirkor, fermer va hunarmandlarga ajratilgan kredit hajmi

⁹¹ " O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni // kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/140894>. Murojaat qilingan sana: 18.03.2021 yil.

⁹² O'zbekiston milliy arxivi (O'z MA), M.13-fond, 2-ro'yxat, 390-ish, 38-varaqning orqasi.

⁹³ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 392-ish, 1-varaq.

⁹⁴ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 390-ish, 174-varaq.

509,3 mlrd. soʻmni tashkil etib, ushbu koʻrsatkich 2008-yilga nisbatan 3 barobarga oʻsgan⁹⁵, deb koʻrsatilgan.

Shuningdek, yosh tadbirkor, hunarmand va fermerlarni kreditlash tizimini yanada takomillashtirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 2-martdagi 5/1-sonli “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash va rivojlantirishga oid qarori” qabul qilindi. Ushbu qarorga asosan, Markaziy bankka biriktirilgan kasb-hunar kollejlari faoliyatini takomillashtirish va hamkorlikni yoʻlga qoʻyishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi⁹⁶.

Dastur doirasidan tashqari, yoshlar tadbirkorligini qator huquqiy hujjatlar asosida moliyalash tartib joriy qilingan boʻlib, oʻtgan davr mobaynida davlat va nodavlat banklar tomonidan ushbu tartib asosida tadbirkorliklar kreditlashtirilib kelindi. Xususan, 2007-yil 18-maydagi “Yosh oilalarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 3878-son Farmoni asosida 2007-yilning oʻzida 50,0 mlrd. soʻm evaziga biznes subyektlari tashkil qilindi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga yoʻnalishida moliyalash ishlari amalga oshirildi⁹⁷.

2000-yil 19-mayda Vazirlar Mahkamasining 195-sonli “Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga, dehqon va fermer xoʻjaliklariga imtiyozli kreditlar berish maxsus jamgʻarmasi hisobidan kredit berish tartibi toʻgʻrisida”gi qarori bilan Nizom qabul qilingan boʻlib, yosh tadbirkorlarni kreditlash shu Nizom asosida amalga oshirilib kelindi. Nizomga koʻra, kredit mablagʻlari asosan viloyatlarning chekka hududlarida joylashgan, borish qiyin boʻlgan tumanlarda, qolaversa, ishsizlar koʻp boʻlgan joylarda kichik tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy texnologiyali va ilgʻor loyihalarini, mahsulot ishlab chiqarishga moʻljallangan kichik firmalarini, korxonalarni, dehqon va fermer

⁹⁵ Oʻz MA, M.13-fond, 2-roʻyxat, 390-ish, 174-varaq.

⁹⁶ Oʻz MA, M.13-fond, 2-roʻyxat, 390-ish, 175-varaq.

⁹⁷ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Yosh oilalarni moddiy va maʼnaviy qoʻllab-quvvatlashga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida” // <https://lex.uz/docs/1200664>.

xo‘jaliklarini kreditlash uchun ajratildi⁹⁸. Bunda ko‘zlangan maqsad esa, chekka hududlardagi ishchi kuchini tadbirkorlikka jalb qilish orqali bandligini ta‘minlash edi.

Qonun hujjatlari tahliliga ko‘ra, 1991-2016-yillar mobaynida yoshlarni tadbirkorlikka qiziqtirish, shu orqali ularni bandligini ta‘minlashga erishishda asosiy e‘tibor yillik dasturlar doirasida va maxsus kreditga oid qonunlar asosida amalga oshirilib kelindi. Shu o‘rinda quyidagi tanqidiy fikrlar o‘rinli: yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishda chet el tajribasi kam o‘rganildi. Masalan, Rossiya, AQSH va boshqa bir qator rivojlangan davlatlar qonunchiligida “Yoshlar tadbirkorligi” iqtisodiyotda alohida tarmoq sifatida ajratib, qonun bilan mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari BMT va Yevropa Ittifoqi dasturlari doirasida bironta ham xalqaro grantlar jalb qilinmagan, ushbu sohada kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlarni tarbiyalashga, ularni bu yo‘nalishga kirishishi uchun yetarli darajada qo‘llab-quvvatlashga e‘tibor berilmagan.

Albatta, o‘tgan davr mobaynida xalqaro grantlarni jalb qilishga harakatlar bo‘lgan. Masalan, 1996-yilda “Kamolot” jamg‘armasi tomonidan BMTning PDPII dasturi doirasida grantga so‘rab murojaat qilingan, ammo BMTi koordinatori tomonidan Jamg‘arma mustaqil NNT emas, deb topilgan va dastur Nizomiga to‘g‘ri kelmaganligi bois rad javobi berilgan⁹⁹.

Demak, O‘zbekistonda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun avvalo, uning huquqiy maqomini belgilab olish zarur. Buning uchun bir qator qonun hujjatlarida yoshlar tadbirkorligini iqtisodiyotda alohida tarmoq sifatida ajratish maqsadga muvofiq.

Yoshlarning tadbirkorlik sohasidagi ishlarini kompleks rivojlantirish va yoshlarni biznes faoliyati bilan shug‘ullanishga faol jalb qilish bo‘yicha joylarda maqsadli dasturlar amalga oshirilmadi hamda zarur sharoitlar yaratilmadi, bu esa

⁹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. “Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag‘batlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”. (Elektron resurs). Murojaat qilingan sana: 1103.2021 y. Kirish rejimi: lex.uz.

⁹⁹ O‘z MA, M.13-fond, 1-ro‘yxat, 9-ish, 68-varaq.

o‘z navbatida ko‘plab ish joylarini yaratishning eng muhim omili hisoblanadi¹⁰⁰. Yoshlar tadbirkorligi alohida tarmoq sifatida ajratilmagan bo‘lsada, qabul qilingan yillik Davlat dasturlarida yoshlar masalasi hamisha dolzarblik kasb etgan. Dasturlarni ijrosi esa, har doim ham maromiga yetkazilmagan.

Qayd etish lozimki, 2014-yil 6-fevralda “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Prezident qarori qabul qilindi¹⁰¹. Ushbu qaror asosida Respublikada yosh tadbirkorlar orasida “Mening biznes g‘oyam”, “Yosh tadbirkor – yurt poydevori” loyihalari o‘tkazilishi belgilandi. Qaror shuningdek, yoshlar masalasidagi qonunni yangi tahrirda qabul qilishni nazarda tutdi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, 2016-yil 15-sentyabrda “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi¹⁰². Qonun o‘z mohiyatiga ko‘ra, mamlakatimizda yoshlarga doir davlat munosabatlarining asosiy yo‘nalishlarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirishni nazarda tutar edi. Qonunni amalda samarali tatbiq etilishi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarga qo‘shimcha ish joylarini yaratish, o‘qitish va malaka oshirishning maxsus dasturlarini tashkil etish imkonini beradi.

Qonunning muhim jihati shundaki, unda avvalo, “yoshlarga oid davlat siyosati”, “yoshlar (yosh fuqarolar)”, “yosh oila”, “yosh mutaxassis”, “yoshlar tadbirkorligi” kabi tushunchalarning mazmuni ochib berildi. Jumladan, “yoshlar tadbirkorligi” tushunchasi quyidagicha ifodalanadi: yuridik shaxs tashkil etmagan holda, yoshlar tomonidan, shuningdek, ta‘sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Qonunga ko‘ra, yosh fuqaro tushunchasiga o‘n to‘rt yoshdan o‘tgan va o‘ttizgacha bo‘lgan fuqarolar kiradi¹⁰³. Demak, yoshlar tadbirkorligi deganda ta‘sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yoki yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanadigan yosh fuqarolarning faoliyatini anglatadi. Qolaversa, XX asr

¹⁰⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Yoshlar kelajagimiz” davlat dasturi to‘risida // Lex.uz qidiruv tizimi.

¹⁰¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” // elektron resurs: nrm.uz.

¹⁰² Сайидалиев Қ. Ёшларга оид давлат сиёсатининг мустаҳкам ҳуқуқий асоси // Жамият, 2016. 7 октябрь.

¹⁰³ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida” // lex.uz qidiruv tizimi.

90-yillaridagi tadbirkorlikka va yoshlarga oid qonunlarda yoshlar tadbirkorligi tushunchasi nisbatan tushunarsiz va aniq belgilangan asoslarga ega bo'lmagan bo'lsa, 2016-yilgi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi yangi qonunda, belgilanayotgan yoshlar tadbirkorligi tushunchasi o'zining yetarli darajada aniq, ravshan asoslariga ega bo'ldi.

Ushbu qonunda, shuningdek, yoshlar tadbirkorligini davlat tomonidan quyidagicha qo'llab-quvvatlanishi belgilandi:

davlat tashkilotlari yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda ko'maklashishi;

yoshlarning tadbirkorlik ishlariga jalb etish maqsadida imtiyozli moliyaviy ko'mak ko'rsatish;

yoshlarni biznes yuritish sirlariga o'qitish, ta'lim tashkilotlari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlikni shartnomalar asosida tashkil etish;

yoshlar biznes faoliyatini qo'llab-quvvatlash loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish yo'li bilan tashkil etish.

Yoshlarning ishbilarmonlik tashabbuslarini qo'llash maqsadida davlat tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq tegishli imtiyozlar va afzalliklar belgilanishini nazarda tutadi¹⁰⁴.

Qonunni yangi tahrirda qabul qilinishi yoshlar tadbirkorligi sohasidagi xuquqiy asosni yangi pog'onaga olib chiqdi va yoshlar tadbirkorligini alohida tarmoq sifatida ajratishdagi ilk qadam bo'ldi. Bu esa o'z navbatida yoshlar tadbirkorligini xuquqiy tomondan mustahkam asosga ega bo'lishiga olib keldi.

2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq holda respublikamizda biznes subyektlari, oilaviy tadbirkorlik, ayollar uchun imkoniyatlarni oshirish, yoshlar tadbirkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlarni biznes bilan shug'ullanishga faol jalb etish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish hamda yoshlar bandligini ta'minlash uchun qator qonun

¹⁰⁴ O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" // lex.uz qidiruv tizimi..

hujjatlari qabul qilindi¹⁰⁵. Ushbu qonun hujjatlari bu boradagi faoliyatning huquqiy asosini mustahkamladi. Ular doirasida shuningdek, Davlat dasturlari ishlab chiqildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-sonli Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustdagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida"gi 669-sonli qarori qabul qilindi¹⁰⁶. Yoshlarning biznes g'oyalari, startaplari, tashabbuslari va loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish va qo'llash, ishsiz bo'lgan yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar va tadbirkorlik yuritish ko'nikmalariga o'qitish, shuningdek, iqtisodiy-ijtimoiy faolligini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan ushbu dasturga binoan O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzurida "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi va uning tuman va shahar filiallari tashkil etildi¹⁰⁷.

Qolaversa, qarorga muvofiq, "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi tomonidan yoshlarning biznes loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli moliyalash va mol-mulkni ijaraga berish

¹⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 maydagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" PF-5106-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 10 oktyabrda "Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida" 834-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabrda "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5242-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevralda "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5325-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 27 iyunda "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturi to'g'risida"gi PF-5466-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 aprelda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-3680-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 iyunda "Har bir oila – tadbirkor" dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 iyulda "Aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3856-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martda "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4231-son Qarori; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 iyunda "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6017-son Farmoni; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvarda "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 23-son Qarori.

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 669-son Qarori. "O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi huzuridagi "Yoshlar — kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" //Lex.uz qidiruv tizimi. Murojaat qilingan sana:17.03.2021 yil.

¹⁰⁷ Ёш тadbirkorларга ўз бизнесларини йўлга қўйишлари бўйича назарий ва амалий кўрсатмалар. Услубий қўлланма / тузувчилар К.Н.Гафуров, З.Я.Рахманов ва бошқ. – Тошкент: "Инновацион ривожлантириш нашриёт-матбаа уйи", 2019. – Б. 26-27.

amaliyoti tatbiq etildi. Imtiyozli shartlarda kredit yoki mol-mulkni ijaraga olish uchun yoshlarning biznes g'oyalari va loyihalarni manzilli ro'yxatga kiritish talab etiladi. Manzilli ro'yxatlarni tuman (shahar) yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish komissiyalari shakllantiradi¹⁰⁸. Komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy rivojlantirish, yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha hokim o'rinbosari – komissiya raisi;
- yoshlar masalalari bo'yicha ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i o'rinbosari;
- O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman (shahar) kengashi raisi;
- Savdo-sanoat palatasi (SSP) huzuridagi Tadbirkorlikka ko'maklashish markazi tuman (shahar) bo'linmasi rahbari.

Komissiyalar har bir uy xo'jaligi bilan tanishish, mavjud infratuzilmani xatlash, yoshlar shug'ullanish istagini bildirgan mehnat faoliyati turini tahlil qilish maqsadida joylardagi vaziyatlarni tahlil etish orqali imtiyozli kreditlar va lizingga talabnomalarni tanlash yo'li bilan tasdiqlanadigan parametrlar doirasida manzilli ro'yxatlarni shakllantiradi¹⁰⁹.

Mazkur manzilli ro'yxatlar respublika komissiyasi tomonidan har yilning 25-dekabridan kechikmasdan tasdiqlanadi. Biznes-reja tuzish jarayonini yengillashtirish uchun Savdo-sanoat palatasi (keyingi o'rinlarda SSP) banklar bilan hamkorlikda hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan kelishgan holda namunaviy biznes-rejalar loyihasini ishlab chiqadi. Yoshlarning biznes loyihalari, startaplari va g'oyalarini 2 milliard so'mdan yuqori bo'lganlarini moliyalashtirish ularning biznes-rejalari Milliy agentlik bilan kelishilgandan so'ng amalga oshirilishi belgilandi. Yoshlar ittifoqi huzurida tashkil etilgan “Yoshlar – kelajagimiz” jamg'armasidan olingan mablag'lar hisobiga imtiyozli kreditlar va mol-mulkni lizingga berish Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, AITB “Ipak yo'li”, AT

¹⁰⁸ Ёш тadbirkorларга ўз бизнесларини йўлга қўйишлари бўйича назарий ва амалий кўрсатмалар. Услубий қўлланма / тузувчилар К.Н.Гафуров, З.Я.Рахманов ва бошқ. – Тошкент: “Инновацион ривожлантириш нашриёт-матбаа уйи”, 2019. – Б. 26.

¹⁰⁹ Ёш тadbirkorларга ўз бизнесларини йўлга қўйишлари бўйича назарий ва амалий кўрсатмалар. Услубий қўлланма / тузувчилар К.Н.Гафуров, З.Я.Рахманов ва бошқ. – Тошкент: “Инновацион ривожлантириш нашриёт-матбаа уйи”, 2019. – Б. 27.

“Xalq banki” va ATB “Hamkor bank” orqali amalga oshirilishi belgilandi. Kredit berishdan tashqari, Jamg‘arma yoshlarning tadbirkorlik loyihalarida muassis sifatida bevosita ishtirok etadi. Bunda Jamg‘arma ulushi 50 foizdan oshmasligi lozim. Keyinchalik Jamg‘arma ulushi 5 yil davomida realizatsiya qilinadi. Shu bilan bir qatorda, band bo‘lmagan yoshlar yashaydigan uy xo‘jaliklari uchun:

- Tirik parranda va quyonlar;
- Mayda chorva mollari;
- Yirik chorva mollari sotib olish uchun pul beriladi.

Ularning qiymati kelishilgan muddatlarda qaytarilishi kerakligi alohida belgilab qo‘yilgan¹¹⁰.

Shuningdek, Dasturda “Yosh tadbirkor” kovorking¹¹¹ markazlari tashkil etish nazarda tutilgan. “Yosh tadbirkor” kovorking markazlarida yosh tadbirkorlar imtiyozli shartlarda binolar, ofis texnikasi va sarflash materiallarini ijaraga olishlari, Internetdan foydalanishlari mumkin bo‘ladi. Qolaversa, mazkur tashkilotlar ularga biznes-loyihalar ishlab chiqishda, konsultatsiyalar, yuridik, buxgalteriya va boshqa xizmatlarni ko‘rsatishda yordam beradi, bundan tashqari forum-tadbirlari va seminarlar o‘tkazadi. Kovorkinglar barcha tumanlar (shaharlar)da, “Yoshlar mehnat guzarlari” majmualari esa faqat mehnat kuchi haddan ziyod bo‘lgan tumanlarda tashkil etiladi. Ular davlat-xususiy sheriklik shartlarida quriladi.

“O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-sonli qarori sohaga oid me‘yoriy-huquqiy xujjatlar ichida alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda — Konsepsiya – muallif) O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid

¹¹⁰ Ёш тadbirkorларга ўз бизнесларини йўлга қўйишлари бўйича назарий ва амалий кўрсатмалар. Услубий қўлланма / тузувчилар К.Н.Гафуров, З.Я.Рахманов ва бошқ. – Тошкент: “Инновацион ривожлантириш наприёт-матбаа уйи”, 2019. – Б. 28.

¹¹¹ Kovorking (ingliz tilidan kovorking “hamkorlik”) keng ma’noda - umumiy makonda turli xil ish bilan band bo‘lgan odamlarning ishini tashkil etishga yondashuv. Kovorking – ish joyining moslashuvchan tashkil yetilishini va rezidentlar hamjamiyatini hamda ichki madaniyatni shakllantirish istagini tavsiflaydi.(Elektron resurs) Murojaat qilingan sana: 12.08.2021 yil. Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/wiki/kovorking>.

davlat siyosati to'g'risida"gi Qonun, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlik qarorlari, BMTning 2030-yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari, "Yoshlar strategiyasi", Yoshlar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha butunjahon harakatlar dasturi, 2020-yil dekabr oyida tashkil etilgan "O'zbekiston yoshlari forumi"da hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan vazifalar asosida ishlab chiqilgan¹¹².

2017 - 2021-yillarda Respublikada yoshlarga doir davlat munosabatlarining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 137 ta huquqiy hujjatlar qabul qilindi¹¹³. Shunga qaramay, yoshlar tadbirkorligining davlat tomonidan xuquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishida quyidagi bir qator muammolar saqlanib qolmoqda. Bular quyidagilar:

yoshlarga doir me'yoriy hujjatlarning yagona bazasini shakllantirilmagan;

davlat tashkilotlarida tartibli ravishda yoshlar ishlariga oid statistik ma'lumotlar yuritilish ta'minlangan;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijrosini amalga oshirishda to'laqonli monitoringini yuritish ishlari yo'lga qo'yilmaganligi;

joylarda yoshlarga doir me'yoriy xuquqiy-hujjatlar amalga oshirilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni tashkil etilmaganligi;

yoshlarga masalasiga doir qonun hujjatlarni qabul qilish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tajribasini tahlil qilib borish, samarali usullarni milliy amaliyotda qo'llash choralari ko'rilmaganligi;

yoshlarning uyushmagan qatlami orasida tegishli tashkilot mutasaddilari o'rtasida oson muloqot o'rnatishning yagona platformasini yaratilmaganligi;

yoshlar orasidagi dolzarb muammolardan kelib chiqqan holda tajribali guruhlarini shakllantirish, ular yordamida mavjud me'yorlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish yo'lga qo'yilmaganligi;

¹¹² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 23-son Qarori. "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" // lex.uz qidiruv tizimi.

¹¹³ lex.uz qidiruv tizimi orqali tahlil qilindi. Murojaat qilingan sana: 25.03.2021 yil.

davlat idoralari tomonidan yoshlarning huquqiy manfaatlarini kafolatlash va himoyalashga qaratilgan faoliyatni kuchaytirish zarurligi;

qonun ijodkorligida yoshlarning yaqindan ishtirokini ta'minlash sohadagi mavjud muammolarni yechishda o'rinlidir¹¹⁴.

O'zbekistonda Yoshlar tadbirkorligi sohasida me'yoriy-xuquqiy baza mustahkam asosga ega emas. Mamlakatda, "Tadbirkorlik kodeksini" qabul qilish va unda yoshlar tadbirkorligiga alohida huquqiy maqom berish vaqti keldi. Ushbu yo'l orqali, birinchidan, yoshlar tadbirkorligiga davlat idoralarini jiddiy yondashishiga erishilsa, ikkinchidan, yoshlar masalasidagi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, noqonuniy migratsiya, boqimandalik muammolariga yechim bo'ladi, uchinchidan, yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga huquqiy imtiyozlar berish orqali, ularni sohaga keng jalb qilish, moddiy imkoniyatini oshirishga erishiladi. Moddiy imkoniyati keng yoshlar, rivojlangan davlatlarning yoshlari bilan raqobatbardosh ishchi kuchini yarata oladi. Bu esa mamlakatni yarmidan ko'pini tashkil qiladigan yoshlarni, yaqin o'n yillikda mamlakatda katta kuchga aylanishiga hech qanday shubha qoldirmaydi.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

O'zbekiston dunyo hamjamiyati orasida aholisining katta qismi yoshlar tashkil etuvchi mamlakatdir. Yoshlarning aholi orasida ko'pchilikni tashkil qilishi mamlakatni ertangi kungi barqaror rivojlanishiga katta ishonch beradi. Ularning intellektual va jismoniy rivojlanishi uchun tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va yoshlar jamoalari hamda tashkilotlari faoliyatini kengaytirishning ko'plab afzalliklari bor. Shulardan biri kelajak avlodlarini ma'naviy ehtiyojlarini qondirish va o'z mablag'larini topish imkoniyatlarini kuchaytirishdir. Shuningdek, davlatni rivojlanishi yo'lidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy zaiflik holatlarini kamaytirishga yordam beradi, ushbu yo'l orqali, davlat siyosatining iqtisodiy barqarorligini oshiriladi. Xususan, yoshlarga o'z mamlakatlari va jamiyat taraqqiyotida faol

¹¹⁴ O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risi Vazirlar Mahkamasining 23-sonli qarori // Lex.uz qidiruv tizimi. Murajaat qilingan sana:11.03.2021 yil

ishtirok etish, shuningdek, ishonch, ijtimoiy kapital va umumiy mas'uliyat hissini shakllantirishga imkon beradi.

Qabul qilingan qarorlar va farmonlar davlat siyosati yo'nalishidagi qonunchilikka bu qadar jiddiy munosabat O'zbekiston da yoshlarga bo'lgan e'tibordan dalolat beradi. Bugungi yoshlarning ma'naviy qiyofasi, bilimi ertaga jamiyat manfaati, yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yoshlarning o'zni va mas'uliyatini oshirib boradi.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligiga oid davlat siyosati yo'nalishidagi qonunchilikka jiddiy e'tibor berilishi, mamlakatda yoshlarga oid olib borilayotgan davlat siyosati ularni tarbiyalashda va har tomonlama barkamol bo'lib yetishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligi sohasida me'yoriy-huquqiy asos yaratilmoqda. Mamlakat tadbirkorlik kodeksini qabul qilish arafasida turibdi. Bu esa, birinchidan, tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat idoralarini jiddiy yondashuvini tizimli yo'lga qo'ysa, ikkinchidan, ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, noqonuniy migratsiya, boqimandalik muammolariga yechim bo'ladi.

O'zbekiston aholisini moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda uni tadbirkorlik sohasiga jalb qilish nihoyatda ahamiyatlidir. Qolaversa, sohaga doir davlat siyosati yildan-yilga o'z dolzarbligini oshirib bormoqda. Ayni shuning uchun ham sohaga doir qonunchilik takomillashib bormoqda.

II BOB. O‘ZBEKISTONDA YOSHLARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISH HAMDA KADRLAR TAYYORLASH MASALASI

2.1-§. Yoshlar bandligini ta’minlashda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni

O‘zbekiston Respublikasining taraqqiy etib borishi mustaqil hayotga qadam tashlayotgan yoshlarning faoliyatida, maqsad sari intilishlarida ko‘proq mehnatsevarlik va tirishqoqlikni talab etmoqda. Jamiyat hamisha yoshlarning intilishlariga, ularning hayotdagi orzu-umidlari hamda qiziqishlari va ularni amalga oshirishga hech qachon bee’tibor bo‘la olmaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng yoshlarga nisbatan “o‘tish davri yoshlari” atamasi ishlatila boshlandi. Xususan, bu davrda yoshlarga nisbatan o‘ta talabchanlik bilan qarash va baho berish, yoshlar jismoniy qiyofasidagi ijobiy va salbiy jihatlarni o‘tish davri bilan bog‘lab tushunish, yoshlar xatti-harakatidagi xususiyatlarni kattalar (keksa avlod) bilan bog‘lash hollari mavjud. O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tish davrida davlat bosh islohotchi bo‘lib, u butun islohotlar jarayonida davlat va jamiyat manfaatidan kelib chiqib boshqarib kelmoqda. Ushbu munosabat bilan davlat va jamiyat qurilishida, yoshlarning bilimi, jamiyatdagi o‘rni hamda muammolarini tadqiq va tahlil etish muhimdir. Tadqiqot davomida ilmiy-tahliliy natijalarga ko‘ra, yoshlar ijtimoiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar quyidagilardan iborat:

- zamonaviy fikrlash va faoliyat olib boruvchi yangi yosh avlodni voyaga yetayotganligi;
- ta’limning barcha yo‘nalishlarida yoshlarga ta’lim berishning ma’naviy va kasbiy malakalar bo‘yicha o‘qitishning yangi tizimlari ishlab chiqilayotganligi;
- mamlakatdagi iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarda yanada mustahkam jahonning ilg‘or tajribasining yaxshi jihatlari o‘zlashtirilayotganligi;
- yoshlarni biznes yuritishi va tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi ulushini oshirish hisobiga yangi ish o‘rinlarini tashkil etilayotgani masalasida hukumat jiddiy bosh qotirayotganligini ta’kidlash o‘rinli.

Dunyoda mehnat migratsiyasining intensiv rivojlanish sharoitida yoshlarni yaxshi ish bilan ta'minlash va samarali mehnat faoliyatiga jalb qilish XXI asrning dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Barcha davlatlarda bo'lgani kabi, mustaqil O'zbekistonda ham yoshlarni qiynayotgan muammolardan biri ishsizlik masalasidir. Ishsizlik darajasini amaliyotda aniqlash va uni bartaraf etish kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Avvalo, aholining barcha qatlamini uch asosiy guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh 16 yoshga to'lmagan hamda maxsus muassasalardagi shaxslar;

ikkinchi guruh "ishchi kuchi tarkibidan chiqqan", ammo mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, ba'zi sabablarga ko'ra ish qidirmay yurgan shaxslar;

uchinchi guruh esa, ishchi kuchining asosini tashkil qiladi. Bu guruhga mehnat qilishni bilganlar, uni xohlovchilar kiradi. Ushbu guruh ishchi kuchining potensial¹¹⁵ qismini tashkil qiladi¹¹⁶.

Demak, ishsizlik obyektni o'rganishda yoshlar ayni aholini ishchi kuchining potensial qismi hisoblanib, mavzuning dolzarbligini ochib beradi.

Jahonda yoshlarni, ayniqsa ishsiz yoshlarni bandligini ta'minlash muhim muammolardan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkilotining "Yoshlar o'rtasida ishsizlik – 2017" ma'ruzasida ta'kidlanishicha, hozirgi vaqtda dunyoda 15-24 yoshdagi yigit-qizlar o'rtasida ishsizlik darajasi 12.0 foizni tashkil qiladi. 2017-yilda butun dunyoda 70 mln.dan ko'proq yigit-qiz ish topa olmagan. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan kamaygan bo'lsa ham, bugungi kunda jahon bo'yicha jami ishsizlarning 35,0 foizini yoshlar tashkil etadi. Bu esa dunyo bo'yicha ishsizlikning o'rtacha darajasidan deyarli uch barobar ko'pligini anglatadi¹¹⁷. Shu bois ham barcha davlatlar o'z ichki siyosatida yoshlarni ishsizligini kamaytirish borasida tegishli chora-tadbirlarni keng miqyosda amalga oshirmoqda.

¹¹⁵ Potentsial – u yoki bu faoliyat turining natijalariga katta ta'sir qiluvchi odamlar (shaxslar). (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 12.12.2021. Kirish rejimi: <https://ru.wikipedia.org/wiki>.

¹¹⁶ Йўлдошев З. Ishsizlik dаражасини аниқлаш // Иқтисод ва ҳисобот. – Тошкент, 1993. – Б. 15.

¹¹⁷ Абдурахманов Қ. Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. – Тошкент: Fan, 2019. – Б. 279.

O‘zbekistonda ham yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni ma’naviy va moddiy jihatdan erkinligini ta’minlashga alohida e’tibor berib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 19-sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqida yoshlar masalasiga alohida to‘xtalib, “...Bugungi dunyo yoshlari – son jihatdan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etmoqda”¹¹⁸, degan firklari bilan qo‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirishni taklif etgani yaqqol misol bo‘la oladi. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Yoshlar orasida ishsizlik muammosini bartaraf etish masalasi bunda alohida o‘rin egallagan.

Masalan, ishsizlik darajasini statistik ma’lumotlar asosida tahlil etish mumkin. Respublikaning doimiy istiqomat qiluvchi aholi soni 2021-yilga kelib 34558,9 ming kishini tashkil etdi. Shu jumladan, shahar aholisi soni 17510,4 ming kishiga (jami aholi sonidagi ulushi 50,6 foiz), qishloq aholisi soni esa 17048,5 (50,4 foiz) ming kishiga to‘g‘ri keldi¹¹⁹. Shundan, aniqlangan ishsizlik darajasi 9,6 foizni tashkil etdi¹²⁰. Ishsizlik muammosini hal etishda, tadbirkorlik subyektlariga erkinlik berish masalasi kunning dolzarb mavzularidan biri bo‘lib bormoqda. Albatta, ushbu mavzuga mustaqillikni dastlabki kunlaridanoq alohida e’tibor berilgan bo‘lib, ishsizlik darajasini pasaytirishda tadbirkorlikni rivojlantirish muhim omil sifatida qaraldi.

Tadbirkorlik tavakkalchilikka asoslangan faoliyat turi bo‘lib, asosan, moliyaviy daromadni oshirishga qaratilgan ish hisoblanadi. Moliyaviy daromadlarni esa xususiy mulksiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgandan so‘ng, uning iqtisodiy erkinligini ta’minlash masadida xususiy mulk va daromadlar erkin tasarruf etilishi belgilanib, davlat himoyasiga olinib tadbirkorlikni asosini tashkil eta boshladi. Xususiylashtirish hayotiy zaruratga aylangani amalda o‘z isbotni topdi.

¹¹⁸ Мирзиёев Ш. М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баходир. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2018. – Б. 252.

¹¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi joriy arxivi (O‘zR DSQJA). 2000-2022 yillar // stat.uz.

¹²⁰ O‘zbekistonda ishsizlik darajasi ma’lum qilindi // (Elektron resurs) Kirish rejimi: kun.uz/news/2020/08/03.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992-yil 23-sentyabrda “Mahalliy sanoat, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, davlat savdosi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari va tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilgan bo‘lib¹²¹, unda davlat korxonalarini tadbirkorlarga xususiy mulk sifatida rasmiylashtirishni nazarda tutdi. Viloyatlarda ushbu qarorning ijrosini 1994-yil hisobida 105 foizga bajarildi. Xususan, 1994-yil boshiga kelib, 4250 dan ortiq davlat inshootlari, savdo tarmoqlari va maishiy xizmat ko‘rsatish shahobchalari har xil ko‘rinishdagi jamoat mulkiga, xususiy mulkka, aksionerlik mulkiga o‘tkazildi¹²².

Davlat mulkini turli shakllarda xususiylashtirish yaxshi samara berishni boshladi. Masalan, birgina Farg‘ona viloyatining Quva sanoat kombinati 28 kishi bilan ish boshlagan bo‘lsa, 1994-yilda mulk xususiylashtirilgandan so‘ng yangi dastgohlar qo‘yildi, mahsulot turlari ko‘paytirildi. Natijada, yangi ish joylari tashkil qilinib, korxonada 190 ga yaqin odam mehnat qildi. Shundan o‘rtacha 70 foizi yoshlarni tashkil etgan. Bu davrda korxona mahsulot ishlab chiqarish hajmi 4 barobarga ko‘paydi¹²³.

Albatta, kichik korxonalar ish faoliyati barcha hududlarda birdek ketmagan. Masalan, 1993-yilga kelib, Farg‘ona viloyatida kichik korxonalarning 600 ga yaqini Farg‘ona shahri va 300 ga yaqini Qo‘qon shaharlarida faoliyat olib borgan bo‘lsa, So‘x, Furqat, Buvayda tumanlari va Quvasoy shaharlarida ishlar talab darajasida bo‘lmagan¹²⁴.

Bu davrda viloyatlarda kichik korxonalarning birdek rivoj topmaganiga qator sabablar va yechilmagan muammolar sabab bo‘lib, ular quyidagilar edi: birinchidan, viloyat mutasaddilari tomonidan tadbirkorlik uchun ajratilishi va‘da qilingan yerlar vaqtida ajratib berilmadi yoki belgilangan me‘yordan oz ajratildi; ikkinchidan, haddan tashqari ko‘p tekshiruvlar, tadbirkorlik faoliyatini erkinligini

¹²¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Mahalliy sanoat, aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish, davlat savdosi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari va tashkilotlarini davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. 443-son, 23.09.1992. // Lex.uz.

¹²² FVDA, M.1220-fond, 3-ro‘yxat, 31-ish, 31-varaq.

¹²³ FVDA, M.1220-fond, 3-ro‘yxat, 31-ish, 31-varaq.

¹²⁴ FVDA, M.1220-fond, 2-ro‘yxat, 53-ish, 41- varaq.

chegaralab qo'ygan; uchinchidan, banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan; to'rtinchidan, tadbirkor o'zi ishlab chiqargan mahsulotning tannarxini erkin belgilashga ruxsat yo'q edi¹²⁵.

Yuqoridagi muammolar esa tadbirkorlikni bu davrda barqaror rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Oqibatda ishsizlik ko'paydi. O'sib kelayotgan, ishga chanqoq yoshlar ishsizlar safidan joy ola boshladi.

Bundan tashqari, istiqloqlarning dastlabki yillaridanoq Farg'ona viloyati aholisini xalq iste'mol mollari bilan ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Iste'mol bozorini mol bilan to'ldirish, aholini ish bilan ta'minlashda kichik korxonalar, kooperativlar, shaxsiy xo'jaliklar, xorijiy firmalar bilan tashkil etilgan qo'shma korxonalarda ish faoliyatini boshlagan yoki davom ettirayotgan tadbirkorlarning roli katta bo'ldi¹²⁶.

Tadbirkorlikni rivojlantirish, uni moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1991-yilda tadbirkorlar jamg'armasi tashkil etildi. Jamg'arma o'z imkoniyati darajasida 25-30 kichik korxonalarga 1-1,5 million so'mdan moddiy yordam ko'rsatib turdi¹²⁷. Bundan tashqari, chet el firmalari bilan mahalliy firmalar o'rtasida hamkorlikni amalga oshirishga amaliy yordam ko'rsatgan. Misol uchun, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq, Amerika Qo'shma Shtatlari "Tinchlik korpusi" bilan birgalikda 1994-yilga bir qator tadbirlar rejalashtirilganligini e'tirof etish kerak¹²⁸.

Jamg'arma tomonidan viloyat hokimliklari bilan hamkorlikda 1994-1995-yillarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun Dastur ishlab chiqilgan. Dastur doirasida tadbirkorlarga qo'shimcha yerlar ajratildi, turli ko'rinishdagi imtiyozlar va xizmatlar ko'rsatib kelindi¹²⁹.

1993-yil oxiriga kelib, respublikada xalq istemol mollari, qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish, turli ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etishda kichik korxonalar eng qulay va asosiy ish shakli ekanligini amalda o'z

¹²⁵ FVDA, M.1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 27-28 - varaqlar.

¹²⁶ FVDA, M.1220-fond, 2-ro'yxat, 53-ish, 41-varaq.

¹²⁷ FVDA, M.1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 30-varaq.

¹²⁸ FVDA, M.1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 31-varaq.

¹²⁹ FVDA, M.1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 32-varaq.

isbotini topdi. Kichik korxonalar soni yildan-yilga ortib bordi. Jumladan, 1991-yili Fargʻona viloyatda 622 kichik korxona davlat roʻyxatidan oʻtkazilgan boʻlsa, 1992-yili ularning soni 1490 tani tashkil etdi. 1993-yili viloyatda roʻyxatga olingan 2,5 mingdan ortiq kichik korxonalardan 1993-yil oxiriga kelib 1800 ga yaqini faoliyat koʻrsatdi. Ushbu korxonalarda 24,5 ming ishchi va xizmatchi mehnat faoliyati bilan band qilindi. Shirkat uyushmalarining qariyb 70 foizini yoshlar tashkil etgan holda, ishlab-chiqarishning har bir sohasida fidokorona mehnat qilishdi¹³⁰. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot va koʻrsatilgan xizmatlar hajmi 1993-yilda 9 mlrd. soʻmdan oshdi. Davlat byudjetiga boʻlgan toʻlovlar 2,5 mlrd. soʻmni tashkil etdi¹³¹.

Shu bilan birga yoshlarni ish bilan taʼminlash muammosini hal etish, avvalo ishlab chiqarishning rivojlanishi va yoshlarning yangi ishlab chiqarish jarayonlariga tayyorgarlik holati kabi omillar bilan bevosita bogʻliq boʻlib, bu bogʻliqlik tobora ortib bordi. Statistik maʼlumotlarga koʻra, 2000-2019-yillarda mehnat resurslari tarkibi quyidagicha boʻlgan: (2.1-jadval)¹³²

2.1-jadval

Mehnat resurslari tarkibi

	2000-y.	2001-y.	2007-y.	2012-y.	2017-y.	2019-y.
Iqtisodiy faol aholi	8708,82 (100 %)	9367,8 (68,0 %)	11299,2 (71,1 %)	12850,1 (70,0 %)	14357,3 (73,5 %)	14876,4 (75,0 %)
Iqtisodiyotda band boʻlganlar	8680,0 (99,7 %)	9333,0 (67,7 %)	10735,4 (67,6 %)	12223,8 (66,6 %)	13520,3 (69,2 %)	13547,1 (68,3 %)
Rasmiy ishsizlar	28,8 (0,3 %)	34,8 (0,4 %)	563,8 (5,0 %)	626,3 (4,9 %)	837,0 (5,8 %)	1335,3 (9,0 %)

Respublika boʻyicha 16-30 yoshdagi yoshlarning ishsizligi muammosi qiyosiy tahlil qilinganda, 2000-2019-yillarda Fargʻona vodiysi viloyatlarida ishsizlar soni oʻsganini koʻrish mumkin (2.2-jadval)¹³³.

¹³⁰ FVDA, M.1220-fond, 1-roʻyxat, 129-ish, 10-varaq.

¹³¹ FVDA, M.1220-fond, 2-roʻyxat, 53-ish, 41-varaq.

¹³² OʻzR DSQJA, 2000-2020 yil maʼlumotlari. Kirishi rejimi: <https://stat.uz> Murojaat qilinana sana 2021.02.25

¹³³ OʻzR DSQJA materiallari, Kirish rejimi: <https://stat.uz> murojaat qilingan sana: 18.03.2021

Aholi orasida ishsiz deb ro'yxatga olingan 16-30 yoshlilar soni

Viloyatlar	2000-y.	2005-y.	2010-y.	2015-y.	2019-y.
Andijon viloyati	2800	900	68,2 ming	75,6 ming	129,4 ming
Namangan viloyati	2000	2600	50,7 ming	53,3 ming	110,1 ming
Farg'ona viloyati	3400	1000	80,8 ming	85,6 ming	152,2 ming

Ko'plab rivojlangan davlatlarda, xususan AQSH, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, Germaniya ishsizlik muammosini bartaraf etishning eng samarali yo'li davlat tomonidan biznesni qo'llab-quvvatlash ekanligi amalda o'z isbotini topgan. O'zbekiston da ham ushbu maqsadda islohotlar keng davom ettirilib, tadbirkorlik faoliyati qo'llab-quvvatlandi, yoshlarni ushbu sohaga faol jalb qilishda imtiyozlar taqdim qilish bilan bir qatorda ko'plab savdo nuqtalari davlat byudjeti hisobiga tashkil qilindi. Shular jumlasiga, 1998-yilda Namangan shahrida joylashgan "Jahon bozori" va "Do'stlik" majmualari kiradi. Ushbu hududda savdo do'konlari joylashgan bo'lib, undagi savdogarlarning ko'p qismi yoshlarni tashkil qiladi¹³⁴.

Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida joylashgan "Ismoiljon gilamlari" ishlab chiqarish korxonasiga 2005-yilda asos solingan bo'lib, dastlab 15 kishi bilan ish boshlangan bo'lsa, keyingi 10 yilda ishchilar soni 1000 nafardan oshdi. Ushbu korxona rahbari I. Sultanov mahalliy hunarmandlarni bir yerga yig'ishga va "Hunarmandlar markazi" deb ataluvchi bozorni barpo etishga erishdi. Hunarmandlar markazi uch qavatdan iborat bo'lib, birinchi qavatida atlas, adras, shoyi, baxmal, beqasam va boshqa matolar ishlab chiqariladi. Ikkinchi qavatda tayyor mahsulotlar ko'rgazmasi va chevarxona o'rin olgan. Uchinchi qavatda gilam sexi joylashgan bo'lib, bu yerda ko'plab mamlakatlarga eksport qilishga mo'ljallangan gilamlar to'qiladi. Hunarmandlar markazida 600 dan ortiq yosh

¹³⁴ Namangan viloyati davlat arxivi (NVDA) 963-fond, 1-ro'yxat, 372-ish, 6-varaq.

xotin-qizlar mehnat qiladi. Binoning orqa hovlisida qadimgi Buyuk ipak yo'lida joylashgan Karvonsaroy ko'rinishida qurilgan mehmonxona mavjud bo'lib, ushbu bino uchun qurilish mollari Buxoro, Xiva va boshqa shaharlardan keltirilgan. Qurilish mollarining yoshi eng kamida 200-yilni tashkil qiladi. Tadbirkor I.Sultonov bu yerda o'zbek xalqining qadimgi madaniyatini birlashtirib o'ziga yarasha ansambl yaratgan. Ushbu mehmonxona ishchilarining barchasi yoshlardan iborat bo'lib, ular asosan chel eldan kelgan turistlarga xizmat ko'rsatadi. Ishchilarning bari ingliz va rus tillarini yaxshi biladi va shu tillarda xizmat ko'rsatishadi¹³⁵.

Tahlillarga ko'ra, 1991–2017-yillarda O'zbekistonda yoshlar orasida ishsizlik oshib bordi. Ishsiz yoshlarni ishga joylashtirish, ularni muqim daromad olish imkoniyatiga ega ishlar bilan band qilish dolzarb muammolardan bo'lib, ushbu masalani hal qilishda bir qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 10-martdagi "Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 52-son qarori shular jumlasidandir. Qaror asosida Respublikaning 193 ta tuman, shahardagi 1394 ta kasb-hunar kollejining 495228 nafar bitiruvchilari egallab turgan kasbga muvofiq ishlab chiqarish amaliyotini korxona va tashkilotlarda o'tash va ishga joylashtirish bilan qamrab olish bo'yicha kompleks aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Hisobotlarga ko'ra, Andijon viloyatida 43232 nafar, Namanganda 37552 nafar hamda Farg'ona viloyatida 56177 nafar yoshlar ishlab chiqarish korxonalariga, uch tomonlama shartnoma asosida, ishga joylashtirilganligi haqida ma'lumotlar berilgan¹³⁶.

Ammo, amalda korxonalar soni oz, ishchi kuchi ko'p edi. Bitiruvchilarni o'z mutaxassisligi bo'yicha davlat va nodavlat tashkilotlarga ko'r-ko'rona ishga joylash avj oldi.

¹³⁵ Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida joylashgan "Ismoiljon gilamlari" korxonasi rahbari Ibrohim Sultanov bilan qilingan suhbat. Suhbat 20.04.2022 yil yozib olingan.

¹³⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi arxivi Andijon viloyat bo'limi (O'zPAA AVB) 4141-fond, 36-ro'yxat, 464- ish, 34- varaq.

Masalan, qaror ijrosini monitoring qilinganda, kollej bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha statistik hisobotlarga qo'shib yozish, soxta ma'lumotlar qo'shish hollari mavjud bo'lgan. Xususan, Andijonda 512 nafar, Namanganda 1328 nafar va Farg'onada 1618 nafar bitiruvchilarning ishga joylashganligi to'g'risidagi hisobotlarga qo'shib yozish holatlari aniqlangan¹³⁷. Qolaversa, 2015-yilda yoshlarni kredit olib o'z tadbirkorligini boshlashiga yetarlicha e'tibor va ko'mak berilmagan, respublikaning 14 ta tumanida kredit olib, o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ygan yoshlar soni 10 nafarga ham yetmagan¹³⁸. Bitiruvchilarni uch tomonlama shartnoma asosida turli korxonalarga ishga joylashtirish orqali ularning bandligini ta'minlash samarasiz ekanligi amalda o'z isbotini topgan. Bunga avvalo, bitiruvchilarda amaliy bilimlarning kamligi va ish tajribasi yetarli emasligi sabab bo'lsa, keyingi o'rinda bitiruvchilar o'z mutaxassisligi bo'yicha ish topa olmagan yoki nomutaxassis sifatida ish boshlagani sabab bo'lgan.

Yoshlar bandligini ta'minlashda ularni tadbirkorlikka jalb qilish, davlat sektoridan nodavlat sektorda ishlashi uchun imtiyozlarni joriy etilishi, keyingi 2015-2018-yillarda o'z samarasini berdi. Ushbu yillarda, kichik va o'rta biznesda band bo'lganlar soni ortdi. O'zbekiston Respublikasining Farg'ona vodiysi viloyatlarida tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni respublikaning boshqa viloyatlariga qaraganda ko'pchilikni tashkil qildi. Xususan, 2015-yilda Andijon viloyatida bu 1066,3 ming kishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lgan bo'lsa, 2018-yilga kelib bu 1035,3 ming kishini tashkil qildi. Namanganda viloyatida 2015-yilda 806,9 ming kishi band bo'lgan holda, 2018-yilga kelib bu 872,3 ming kishini tashkil qildi. Farg'ona viloyatida 2015-yilda 1192,5 ming kishi band bo'lib, 2018-yilga kelib bu 1144,5 ming kishini tashkil qildi¹³⁹. Statistik ma'lumotlar tahliliga ko'ra, Farg'ona vodiysida respublikaning boshqa viloyatlariga qaraganda kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni nisbatan ko'pchilikni tashkil qiladi, ammo Namangan viloyatida ushbu sohada

¹³⁷ O'ZPAA AVB, 4141-fond, 36-ro'yxat, 464-ish, 35-varaq.

¹³⁸ O'ZPAA AVB, 4141-fond, 36-ro'yxat, 464-ish, 36-varaq.

¹³⁹ Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий нашри, 2019. – Б. 47.

band bo'lganlar soni qo'shni viloyatlardagiga nisbatan ozchilikni tashkil qilishi, viloyatda bu davrda tadbirkorlik yaxshi yo'lga qo'yilmaganini anglatadi. Shu o'rinda ma'lumot uchun qayd etib o'tish joizki, aholining 841 ming nafaridan ko'prog'ini yoki 30,7 foizini 14-30 yoshlilar tashkil etadi. Namangan viloyati hokimligi tomonidan yoshlar muammolarini o'rganish uchun tuzilgan komissiya 2018-yilda 760 ming nafar yoshlar bilan bevosita suhbatlar va tegishli tartibda so'rovnomalar o'tkazdi. Natijada, 45 ming 284 nafar (5,8 foiz) yosh ishsiz, 3 ming 229 nafar (4,2 foiz) mehnatga layoqatsiz, 87 ming 531 nafar (11,4 foiz) norasmiy ish bilan bandligi aniqlandi. 23 ming yoshlar esa tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun yer, bino va kredit olish istagini bildirgan¹⁴⁰. Tahlillarga ko'ra, ushbu hududda tadbirkorlik sohasini rivojlantirish va aholini banligini ta'minlash uchun qo'yidagi muammolarga yechim topish zurrur:

- yoshlarda sohaga oid tajribaning yetishmasligi inobatga olib, ko'pincha nafaqat tadbirkor sifatida, balki biznes bilan bog'liq bo'lgan boshqa kasbga ham yo'naltirish maqsadga muvofiq. Xuddi shu hududda korxona yaratib, ish tajribasiga ega bo'lgan tadbirkorga yo'naltirish, faqat ta'lim muassasasida olgan bilimlariga ega bo'lgan yosh kadrqa qaraganda osonroq o'zlashtiradi (nazariy ta'lim har doim ham haqiqiy vaziyatga mos kelmaydi - muallif);

- moliyaviy bazaning yetishmasligi va investitsiyalarni jalb qilishda qo'shimcha qiyinchiliklar. Qoida tariqasida, yoshlar hali o'zlarining jamg'armalariga ega emaslar (ular boshlang'ich kapital vazifasini o'tashi mumkin - muallif). Banklar yosh qarz oluvchilarga kreditlarni kamroq ishonchliligini hisobga olgan holda ma'qullashga tayyor emaslar – ko'plab kredit tashkilotlari qarz oluvchilar uchun yoshlarga nisbatan ishonchsizlik bilan qarashadi;

- sohaga oid yangiliklar va axborotning yetishmasligi. Garchi, O'zbekistonda tadbirkorlik qilishga davlat tomonidan ko'plab shart-sharoitlar va soha erkinligi uchun tegishli qonunlar ishlab chiqilgan bo'lsada, yoshlarda ushbu sohada axborot yetarli emas. Ko'pincha yosh tadbirkorlar tadbirkorlik boshlashda

¹⁴⁰ Саттаров А. Келажак эгаларининг келажаги нима бўляпти? // Наманган ҳақиқати, 2019. 26 январь.

qonun-qoidani yaxshi tushunmay ishni nimadan boshlash kerakligini bilmay yurishadi¹⁴¹.

O'zbekiston da yoshlar tadbirkorligini rivojlanishini sekinlashtiruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- ijtimoiy kayfiyat. Yoshlar muhitida ishbilarmonlik ruhi yetarlicha namoyon bo'lmayapti, ko'pchilik tavakkal qilishni emas, balki katta kompaniyada yoki davlat xizmatida ishlash barqarorlikni afzal ko'radi;

- ommaviy ong tomonidan tadbirkorlik faoliyatini idrok etish. Garchi tadbirkorlarni "chayqovchilar" sifatida qabul qilish keksa avlod vakillari kabi yoshlar uchun odatiy bo'lmasa-da, muvaffaqiyatga erishish o'rniga qiyinchiliklarni yengib o'tish sharoitida tadbirkorlikni baholash keng tarqalgan;

- yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlovchi tashkilotlar to'g'risida yoshlarda yetarlicha axborotning yo'qligi¹⁴².

O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini yo'lga qo'yish, rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ko'plab dasturlar va tashkilotlar hamda idoralar mavjud bo'lsada, ularni keng targ'ib qilish yo'lga qo'yilmagan. Ko'plab yoshlar ushbu dasturlardan xabardor emas¹⁴³.

Yoshlarning moliyaviy holatini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyati orqali bandligini ta'minlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratishdagi muammolar 2021-yilga kelib ham saqlanib qolmoqda. 2021-yilning birinchi choragida, 107443 nafar yosh ish izlab murojaat qilgan bo'lsa, shundan 21603 nafari vodiylar viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi¹⁴⁴.

Xususan, 16-30 yoshdagilar orasida ishsizlik darajasi 2020-yilning so'nggi choragida 6,6 foizni (480261 nafar) tashkil etgan. Qolaversa, ta'lim dargoxlarini tamomlab, birinchi bor ish qidirayotgan, harbiy xizmatni o'tagan yoshlar, ishga

¹⁴¹ Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida olib borilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra aniqlandi. So'rovnoma 10.07.2021 yildan 10.12.2021 yilgacha bo'lgan davrda o'tkazildi - muallif.

¹⁴² Саулина Ю. П. Развитие молодёжного предпринимательство в Российской Федерации // Предпринимательство, – XXI. – 2015. №7 – С. 128-135.

¹⁴³ Ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar orasida olib borilgan so'rovnoma natijasiga ko'ra aniqlandi. So'rovnoma 10.07.2021 yildan 10.12.2021 yilgacha bo'lgan davrda o'tkazildi - muallif.

¹⁴⁴ Yoshlarni ishga joylashtirish to'g'risida ma'lumot (2021 yil 1-chorak).(Elektron resurs) Kirish rejimi: data.gov.uz murojat qilingan sana: 23.06.2021y.

joylashishida turli hil sun'iy to'siqlarga va muammolarga uchrash holatlari mavjud bo'lgan¹⁴⁵.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilga kelib, tadbirkorlik subyektlari 408 mingga yetgan. Shundan 90 161 tasi turli sohalarga ixtisoslashtirilgan xususiy korxonalardir. E'tiborli jihati shundaki, son jixatdan poytaxtda joylashgan xususiy korxonalar birinchilikni egallasa, keyingi o'rinlarni mehnat resurslariga nisbatan yuqori bo'lgan Farg'ona (11061 ta), Qashqadaryo (9200 ta), Namangan (7188 ta) viloyatlari band etdi. Ushbu raqamlar mazkur hududlarda yoshlarning bandligi masalasida jiddiy siljishlar bo'lishiga katta umid uyg'otadi¹⁴⁶. Qolaversa, O'zbekiston Prezidentining Oliy Majlisga qilgan murojaatiga asosan "Yoshlar 1+1" dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dastur har bir yoshni bitta tadbirkorga biriktirish orqali bandligini ta'minlashni nazarda tutadi. 2021-yil yakunlariga ko'ra, Namangan viloyatida "Yoshlar 1+1" dasturi asosida tadbirkor va hunarmandlarga biriktirish orqali 14534 nafar yoshlarning bandligi ta'minlandi¹⁴⁷.

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida soliq yuki kamaygani, bank tuzilmalari takomillashib, tashqi iqtisodiy faoliyat erkinlashtirilgani bois yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish va davlat korxonalarini boshqarishda ishtirok etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi (YAIM)dagi ulushi yildan-yilga ortib bordi va bunday xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 2013-yilga kelib 2 barobarga pasaytirildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida tobora ko'proq yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yib, moddiy va ma'naviy imtiyozlar, ko'proq ish o'rinlari yaratishda ishtirok eta boshladi. Davlat va tadbirkorlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida 630 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi, shundan kichik biznes ulushi 2/3 qismini tashkil etdi. Imtiyozli soliqlar milliy hunarmandchilik rivojiga ham zamin yaratdi, natijada katta yoshdagi ustalar

¹⁴⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida". 23-son, 18.01.2021. <https://lex.uz/docs/5234746>.

¹⁴⁶ O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishda amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi (Elektron resurs) Kirish rejimi: <https://review.uz>

¹⁴⁷ Namangan viloyati hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar kotibiyatining joriy arxiv ma'lumotlari (Ma'lumotlar 28.12.2021 yilda elektron nusxada taqdim etilgan.)

to'plagan ko'p asrlik tajribasini yosh avlodga o'rgatib, yoshlarni hayotda o'z ish o'rinlarini topishda amaliy yordam berdi. Bundan tashqari soha rivojida "Tashabbus", "Kelajak ovozi", "Mehr nuri" nomli innovatsion loyihalarning ham o'rni katta bo'ldi¹⁴⁸.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni ushbu soha orqali ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashda tadbirkorlik katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, 2010-yilda Farg'ona viloyati Uchko'priq tumanida asos solingan "Ishonch" savdo do'konlar tarmog'i. Savdo do'koni asosan aholiga maishiy texnikalar va qurilish mollari muddatli to'lov evaziga sotish bilan shug'ullanadi. Do'kon rahbariyati tomonidan 2018-yilda "Rivojlanish strategiyasi"ni ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra do'kon filiallarini respublikaning barcha viloyatlarida ochishni maqsad qilgan. Shu asosda 2018-2021-yillarda respublikaning 12 viloyatida 50 dan ortiq filiallarini ochdi. Uning ishchi-xodimlari soni 3 mingdan ortiq bo'lib, shundan 90 foizini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi. Do'konning "Rivojlanish strategiyasi"da sotuvchilarga qo'yilgan talablari ichida 30 yoshdan oshmaganlar olinishi belgilangan. Bunga esa, asosiy sabablar qilib, yoshlarda ishga chanqoqlik, shaxsiy o'sishga bo'lgan intilish, kelajakka ishonch va boshqa bir qator omillar ko'rsatilgan. "Ishonch" savdo do'koni mamlakatimizda va chet elda faoliyat yuritayotgan turli firmalar – Artel, Epa, Total va boshqalar bilan hamkorlik qiladi¹⁴⁹.

Yoshlarni tadbirkorlik faoliyati orqali bandligini ta'minlashda davlat grantlari ham joriy etilgan bo'lib, 2021-yil 1-oktyabrdan eng yaxshi biznes loyihalar tanlovi tashkil etildi. "Biznesga bir qadam" deb nomlangan ushbu tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlarning har biri uchun bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha grant ajratiladi. Ushbu tanlovlarni tashkil etish maqsadida Davlat byudjetidan 100 milliard so'm miqdorida mablag' ajratiladi¹⁵⁰.

¹⁴⁸ Зарипов Ш. А. Место молодежи Узбекистана в социально-экономическом развитии страны // Молодой учёный. Международный журнал. – Москва, №7(54), 2013. – С. 60.

¹⁴⁹ "Ishonch" savdo do'konlar tarmog'i bosh direktori A. Xasanboev bilan o'tkazilgan suhbat asosida tayyorlandi. Suhbat 2.02.2022 yilda yozib olingan - muallif.

¹⁵⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини янада оширишга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Фармони // Халқ сўзи, 2021. 15 июль.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yoshlarni ish bilan ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati samarali ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish orqali bandligini ta'minlash jamiyat va davlat oldida turgan bir qator muammolarni o'z-o'zidan hal etib qolmay, yoshlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirib, o'z kelajagiga ishonch tuyg'usini oshiradi, ish bilan band bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqti kam bo'ladi, bu esa o'z vaqtida turli zararli illatlardan saqlaydi, milliy urf-odatlarimiz ruhida ulg'ayib, o'z yurtida ishlayotgan yoshlarda vatanparvarlik ruhi oshadi, bu esa Vatanga muhabbat, oilaga sadoqat tuyg'ularini rivojlantiradi, tadbirkorlik rivoji orqali ish bilan band qilingan qatlam davlat byudjetini turli harajatlardan tejashiga olib keladi, o'z o'rnida tejalgan sarmoya evaziga mamlakatning boshqa, nisbatan rivojlanmagan tarmoqlariga yo'naltiriladi.

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, ular orasida ushbu yo'nalishdagi axborot va qonun-qoidalar to'g'risida keng ma'lumotlarni ommalashtirish va targ'ib qilish orqali yoshlarda sohada uchrayotgan muammolarga yechim bo'la oladi.

2.2-§. Yosh tadbirkor kadrlarni tayyorlash tizimi va uning istiqbollari

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng asosiy e'tibor iqtisodiy erkinlikka qaratildi. Tarixdan ma'lumki, iqtisodiy erkinlik davlatning to'liq mustaqilligini anglatadi. Garchi, Sovet Ittifoqi davrida tadbirkorlik keskin qoralangan bo'lsa-da, hududda milliy hunarmandchilik sohalaridan bo'lgan temirchilik, to'qimachilik, tikuvchilik va boshqa xalq hunarmandchilik sohaları saqlanib qoldi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng xususiy mulk erkinligi qonun bilan mustahkamlanib, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochildi. Tadbirkorlik rivojlanishi bilan bir qatorda, sohada ilg'or, zamon talabiga javob beradigan, ilimli kadrlar zahirasini yaratish zaruriyati vujudga keldi. Bu esa o'z navbatida ta'lim sohasida tub islohotlarni talab etdi. Sovet Ittifoqi respublikalari iqtisodiyoti bevosita Markazga bo'ysundirilgan holda, murakkab ijtimoiy muhitni vujudga keltirgan edi. Mamlakatdagi ijtimoiy muhitni yaxshilash

uchun kommunistik tuzumdan saqlanib qolgan boqimandalik ruhiyatini o'zgartirish zarur edi. Shutufayli ham mamlakatda yosh tadbirkor kadrlarni demokratik ruhda tayyorlovchi ta'lim dargoxlarini tashkil etish va zamon talabiga mos kadrlar tayyorlash nafaqat tadbirkorlik sohasini rivojlantiradi, balki davlatni iqtisodiy jihatdan erkinligi, jozibadorligi va xalq farovonligiga erishishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ko'plab ijtimoiy muammolarga ham yechim bo'la oladi.

Tadbirkorlik, albatta, katta san'at, chuqur bilim va mahorat, qolaversa, alohida iste'dod talab qiladi. Shu bois, hamma ham tadbirkor bo'lavermaydi. Dunyoda yoshi katta aholining atigi 7-10 foizi tadbirkorlik bilan shug'ullanadi¹⁵¹. O'zbekiston Respublikasi aholisining yarmidan ko'pini yoshlar tashkil etishini hisobga olinsa, tadbirkorlik sohasiga yoshlarni jalb etish orqali davlatning iqtisodiy taraqqiyotga erishish imkoniyatlari kengayadi.

Yoshlarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish orqali ularning bandligini ta'minlash, qolaversa, ushbu sohani rivojlantirish bilan bog'lik vazifalarni chuqur anglash, amaliyotdagi muammolarni to'g'ri hal qilish maqsadida sohaga doir kadrlar tayyorlash strategiyasini ishlab chiqish zaruriyat edi. Qolaversa, mustaqillikning ilk yillarida ko'plab yoshlar ishsiz bo'lib, ularni tadbirkorlikka jalb qilishning yagona yo'li bu – ularning tadbirkorlikka o'qitish, o'rgatish hamda sohada o'z o'rniga ega bo'lishi bilan ahamiyatli edi.

Mustaqillikning dastlabki o'n yilligini tarixiy dalillar asosida tahlil qilganda, 1993-yilda Farg'ona viloyatida 11,5 mingdan ortiq ishsiz aholi ro'yxatga olingan bo'lib, shundan 70 foizini yoshlar tashkil qildi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida yangidan yaratilayotgan ish o'rinlari katta mablag'ni talab etdi. Natijada, xarbiy xizmatni o'tagan, o'rta maktabni bitirgan yoshlarning ko'pchiligi yetarli ko'nikmalarsiz va kasb-hunarsiz bo'lib mehnat bozorini to'ldirib bordi. Yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularni ish bilan ta'minlashning ilg'or usuli hisoblanadi. Ammo sohada yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan yoshlarni faoliyat turiga jalb qilib bo'lmasdi. Shu boisdan ham, butun respublika

¹⁵¹ Аллақулов Х. Кичик бизнес тараққиётда олий мактабнинг улуши катта бўлиши мумкин // Халқ сўзи, 2001. 23 август.

hududida joylashgan hunar-texnika bilim yurtlari va Xalq ta'limi boshqarmasi bilan hamkorlikda "Band bo'lmagan aholini kasbga tayyorlash, qayta o'qitish va yoshlarni milliy hunarmandchilikka o'rgatish ishlarini olib borish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi markaz" (keyingi o'rinlarda Muvofiqlashtiruvchi markaz deb yuritiladi – muallif) tuzildi¹⁵².

Muvofiqlashtiruvchi markazining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ldi:

- aholini ish bilan ta'minlanmagan qismini o'qitish, qayta tayyorlash, kasbga yo'naltirish, yoshlarga hunar o'rgatish, xalq hunarmandchiligini rivojlantirish sohasida hududda yagona davlat siyosatini olib borish va uni amalga oshirish;

- mahalliy hokimiyat organlarining aholini ish bilan ta'minlash dasturlariga, yoshlarni ish bilan ta'minlashga doir takliflar ishlab chiqish;

- o'rta maktab bitiruvchilari, harbiy xizmatdan qaytgan va band bo'lmagan yoshlar hisobini yuritish hamda ularni kerakli kasblarga yo'naltirish, qiziqishlaridan kelib chiqib, usta hunarmandlarga biriktirish;

- ishsiz yoshlarni jahon mehnat bozorida, jumladan, kompyuter texnologiyasi, texnik ta'mirlash va boshqa kichik biznes sohasida yuqori talabga ega bo'lgan kasb bo'yicha xo'jalik hisobi asosida o'qitish, keyinchalik o'z mintaqasida, respublikada va xorijda ish faoliyatini olib borishga tayyorlash¹⁵³.

Muvofiqlashtiruvchi markaz tomonidan 1993-yilda Farg'ona viloyati hududida olib borilgan hisobotga ko'ra, aholining o'sish sur'ati o'rtacha 2,5-2,6 foizni, Mehnat resurslari esa 1106,3 ming kishini tashkil qilgan. Shundan 1993-yilning o'zida maktab bitiruvchilari va harbiy xizmatni o'tab qaytgan, 32600 nafar ishsiz yoshlar ro'yxatga olingan¹⁵⁴.

1993-1995-yillar mobaynida faoliyat olib borgan Muvofiqlashtiruvchi markaz, o'zini oqlamadi, oqibadda o'z faoliyatini tugatdi. Bunga birinchidan,

¹⁵² FVDA, 1220-fond, 1-ro'yxat, 88-ish, 90-91 varaqlar.

¹⁵³ FVDA, 1220-fond, 1-ro'yxat, 88-ish, 97-varaq.

¹⁵⁴ FVDA, 1220-fond, 1-ro'yxat, 88-ish, 90-varaq

kadrlar tayyorlash tizimi faqatgina nazariy bilimlarga asoslangan bo'lib, amaliy ko'nikmalar berib borilmagani, ikkinchidan, ko'plab talaba yoshlar Muvofiqlashtiruvchi markaz pedagog-hodimlari tomonidan ko'r-ko'rona jalb qilingan bo'lib, o'zi ixtiyoriy ravishda o'rganishga harakat qilmagani, bunga esa oilaviy, iqtisodiy va boshqa ijtimoiy muammolar sabab bo'lgani, uchinchidan, jahon tajribasining ilg'or usullari o'zlashtirilmagani, chet elning nufuzli o'quv yurtlari, firmalari va biznes vakillari bilan yaqindan aloqa o'rnatilmagani asosiy sabab bo'ldi.

Natijada, sohaga oid kadrlar tayyorlash tizimida islohotlar amalga oshirildi. Ushbu maqsadda, 1995-yil 29-iyulda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bozor islohotlari talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlarining kasb-hunar ta'limining yo'nalishini o'zgartirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 296-son qarori qabul qilindi¹⁵⁵. Qaror asosan qishloqda xususiy sektorni rivojlantirish, qishloq yoshlarini faol tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish va rag'batlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy himoya qilishga oid vazifalarni amalga oshirish va ularni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida zarur kasblar va mutaxassisliklarni egallash uchun jalb qilishga, bu yo'lda ularni rag'batlantirishga qaratilgan. Qishloqda joylashgan hunar bilim yurtlari faoliyatini tubdan qayta yo'naltirishni amalga oshirish, ularni tadbirkorlik sohasi bo'yicha o'quv markazlariga – kasb va biznes maktablariga, o'rta maxsus o'quv yurtlarini esa kichik va o'rta biznes, fermer xo'jaliklari va aholiga xizmat ko'rsatish sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha kollejlarga aylantirishni ko'zda tutdi. 1995-yilning o'zida viloyat va tumanlarda 160 ta yangi turdagi kollejlari, maxsus ixtisoslashtirilgan litseylar ochildi¹⁵⁶. Jumladan,

Andijon turizm va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;

Andijon maishiy xizmat kasb-hunar kolleji;

Andijon iqtisodiyot va servis sohasi kasb-hunar kolleji;

Andijon milliy hunarmandchilik va ijtimoiy iqtisodiyot kolleji;

¹⁵⁵ FVDA, 1220-fond, 2-ro'yhat, 107-ish, 123-varaq.

¹⁵⁶ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент.: Шарқ, 2000. – Б.422.

Andijon tuman Oqyor sanoat kasb-hunar kolleji;
Namangan agrotadbirkorlik kasb-hunar kolleji;
Namangan yengil sanoat kasb-hunar kolleji;
Namangan sanoat kasb-hunar kolleji;
Namangan shahar savdo va maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;
Chust milliy hunarmandchilik va tadbirkorlik kasb-hunar kolleji;
Farg'ona sanoat va xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji;
2-Farg'ona ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji;
Farg'ona sanoat kasb-hunar kolleji va boshqalar shular jumlasidan dir¹⁵⁷.

Kollejlar, yoshlarni turli kasblarga o'rgatish, biznes va qishloq xo'jaligiga kerakli bo'lgan o'rta ma'lumotli kadrlarni tayyorlash bilan bir qatorda, kasbiy tayyorlash va o'qitish sohasini rivojlantirish, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va mazmunini boyitish, istedadli yoshlarni xalqaro va respublika olimpiadalari hamda tanlovlarda ko'plab yaxshi natijalarga erishishlarida ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator tizimli ishlar yo'lga qo'yishi kerak edi. O'sha davr o'rta-maxsus ta'lim sohasini rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning zamon talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi. Xususan,

1) kollejlar aholi yashash joylaridan uzoq bo'lgan masofada joylashtirilganligi, ayniqsa, ta'lim muassasasi joylashgan hududlarda transport tarmoqlari yetarli darajada ta'minlanmaganligi hamda ob-havo sharoitlari tufayli o'quvchilarning ko'p hollarda ommaviy ravishda dars mashg'ulotlarini qoldirishlariga sabab bo'lgan;

2) kollejlarda moddiy-texnik bazani ko'plab kasb-hunar kollejlari ta'lim yo'nalishlariga mos kelmasligi, o'quv ustaxonalarida, mahsulot ishlab chiqarishga kerakli bo'lgan xom ashyo bilan yetarli darajada ta'minlanmasligiga olib keldi. Respublika bo'yicha o'rta-maxsus ta'lim dargohlarining moddiy-texnik jihozlanishining o'rtacha darajasi atigi 56 foizni tashkil etdi, 31 ta kollejdagi amaliyot ustaxonalari umuman bo'lmagan;

¹⁵⁷ Respublika kasb-hunar kollejlari royxati. Murojaat qilingan sana: 23.02.2021 Kirish rejimi: <http://institutions.ziyounet.uz>.

3) kollejlarda darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan yetarlicha ta'minlanmagan, mavjudlarining 50 foizi rus va qoraqalpoq tillariga tarjima qilinmagan, darsliklar doimiy yangilab borilmagan;

4) kollejlarda kadrlar tayyorlashda hududlarning real iqtisodiy tarmoqlarning ehtiyojlaridan kelib chiqilmagani ortidan, mehnat bozori bitiruvchilarni ishga joylashtirishda qiyinchilik tug'dirdi;

5) kasb-hunar ta'lim muassasalarining mavjud o'quv jarayonlarni tashkil etishda, qo'llanilayotgan o'quv-me'yoriy hujjatlar hamda o'qish muddatlari kasblarning qiyinlik darajasiga javob bermadi, malakaviy amaliyotini tashkil etishda yo'l qo'yilgan kamchiliklar ta'lim sifatini tushib ketishiga va ushbu ta'lim maskanlari bitiruvchilariga bo'lgan talabni pasayishiga olib keldi. Buning natijasida o'qishni tamomlagandan so'ng ish joylarida ularni yana bir-bor o'qitish zaruratini keltirib chiqardi;

6) kadrlar tayyorlashda "Hayot davomida ta'lim olish" tamoyili bo'yicha kasbga o'rgatish tizimining yetarli rivojlanmaganligi, aksariyat hollarda ishsiz yoshlarni mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib keldi¹⁵⁸.

Kollejlarda kadrlarni hududlar ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini hisobga olmagan holda tayyorlashi bandlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqardi. Qo'plab hollarda bitiruvchilar hisobot uchungina, xususiy korxonalarga 3-4 oydan keyin bo'shatib yuborish shartlari bilan ishga joylashtirildi. Masalan, 2016-yilgi hisobotlarga ko'ra 477743 nafar bitiruvchi yigit-qizlar o'rta-maxsus ta'lim maskanlarini bitirib chiqqan va ularning 438503 nafari yoki 91,8 foizi ish bilan ta'minlangani to'g'risida ma'lumot berilgan. Ma'lum vaqt o'tgandan keyin ishga joylashganlarning 90 foizga yaqini o'z ish joylarida ishlamayotgani ma'lum bo'lgan¹⁵⁹.

1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi davrga hamohang tarzda, jahon bozoridagi talablarni inobatga olgan holda isloh qilib borilmadi. Masalan, Finlyandiya davlatida qurilish sohasida o'rta ma'lumotli

¹⁵⁸ <https://lex.uz/docs/3523206>

¹⁵⁹ Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тадбиркорлиқни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2019 йиллар): Т.ф.ф.д. ... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 93.

mutaxassis sifatida mehnat qilayotgan 139 nafar O'zbekistonlik mehnat muhojirlari 2016-yilda diplomlari soxtaligi tufayli mamlakatdan deportatsiya qilingan. Bundan tashqari, 258 nafar O'zbekiston fuqarosiga ma'lumoti to'g'ri kelmaganligi tufayli ishlashga ruxsat berilmagan¹⁶⁰. Ushbu muammolarni vujudga kelishining asosiy sababi ta'lim tizimidagi jahon tajribasini joriy etilmaganligidir.

Kadrlar tayyorlash tizidagi mummolarni yechish va jahon tajribasining ilog'or usullarini qo'llash maqsadida, 2018-yildan boshlab kollejlarda faoliyatini tubdan isloh qilishga kirishildi. Ushbu maqsadda 2018-yil 25-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313 Farmoni e'lon qilindi¹⁶¹. Farmon tadbirkorlik sohasi, shu jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari uchun mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha kadrlarni maqsadli tayyorlashni nazarda tutadi. Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida, ko'p tarmoqli kasb-hunar kollejlari o'rnida, kasb-hunar maktablari qayta tashkil etildi. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlarida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab, jami 93 ta shunday ta'lim maskanlari tinglovchilarni qabul qila boshladi¹⁶².

Qayta tashkil etilgan kasb-hunar maktablarini, oldingi kollejlardan farqi quyidagicha:

1) kasb-hunar maktablari nafaqat o'rta ta'lim bitiruvchilarini, balki bozor sharoitidan kelib chiqib yangi kasbni egallamoqchi bo'lgan, oldin o'rta, o'rta-maxsus, oliy ta'limni olgan fuqarolarni yangi kasbga o'qitishni nazarda tutadi, bunda ta'lim oluvchining yosh chegarasi belgilanmagan;

2) ta'lim 3 yillik majburiy emas, ya'ni 6 oydan ta'lim turini qiyinlik darajasiga qarab 2 yilgacha davom etishi belgilangan¹⁶³.

¹⁶⁰ Soxta diplomlar mojarosi: O'zbekiston fuqarolari Finlyandiyadan ommaviy ravishda deportatsiya qilinmoqda (Elektron resurs) murojaat qilingan sana: 12.06.2021 y. Kirish rejimi: kun.uz/82694051

¹⁶¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/3523206>.

¹⁶² Respublikamizdagi yangi tashkil etilgan 339 ta kasb-hunar maktablariga qabul 20 iyulga qadar davom etadi. (Elektron resurs). Murojaat qilingan sana: 12.03.2022 y. kirij rejimi: <https://www.uzedu.uz>

¹⁶³ O'zbekiston kollejlari barcha xohlovchilar o'qishi mumkin, darslarni adragoglar olib boradi. (Elektron resurs), Kirish rejimi: <https://sputniknews-uz.com>

Respublikada kasb-hunar maktablarini tadbirkorlik sohasidagi kadrlar tayyorlash tizimini yangicha usulda yondashilgani, jahon tajribasi asosida tashkil etilganini e'tirof etish joiz. Qolaversa, shunga o'xshash kurslarni doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq. Masalan, Yaponiyada bu jarayon juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yaponiya tadbirkorlari kichik va o'rta biznesda ishlaydigan kadrlarni o'qitish va qayta tayyorlashga katta e'tibor berishadi. Rivojlangan G'arb mamlakatlarida ham vaziyat shunday. Kadrlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish zarurati jahon iqtisodiyotining globallasuvi tufayli paydo bo'ldi. XXI asrda ilg'or texnologiyalar jadal rivojlanmoqda. Raqobatbardosh mahsulotlarni tashqi bozorga yo'naltirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ma'lum bir mamlakatning tashqi bozorlari, raqobatchilari, shartlari va qonunchilik bazasi to'g'risida tezkor va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish zarur. Bu o'z navbatida, ishbilarmon kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish zarurligini keltirib chiqaradi¹⁶⁴.

Yosh tadbirkor kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish borasida nodavlat notijorat tashkilotlar ham bir qator tashkiliy ishlarni amalga oshirdi. Xususan, O'zbekiston Tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi qoshida 1996-yilda Biznes maktab tashkil etilgan bo'lib, tadbirkorlik sohasida ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshirdi. O'quv maskanini 1996-1999-yillarda respublikaning barcha viloyatlaridagi filiallari tomonidan besh mingdan ortiq yosh tadbirkorlar "Moliya menejmenti va tadbirkorlik", "Tadbirkorlikda iqtisod va rejalashtirish", "Tadbirkorlikda bugalteriya hisobi va uning tahlili", "Tadbirkorlik va xo'jalik huquqi", "Menejmentlik va ekologiya" kabi 5 ta mutaxassislik yo'nalishida kadrlar tayyorladi¹⁶⁵.

Respublika biznes maktabi ta'lim-tarbiya jarayonlarini aniq yo'lga qo'yishdan tashqari, xorijiy hamkor bilan birga, har ikki tomon uchun ham foydali bo'lgan xalqaro miqyosdagi anjumanlarda, seminarlarda faol ishtirok etib, muhim dasturlarni tatbiq etdi. Xususan, Gollandiyaning "MSR", Daniyaning "Matador",

¹⁶⁴ O'z MA, M-37-fond, ro'yxat-1, 7597-ish, 41-varaq.

¹⁶⁵ Исаев Р. Бизнес мактаби // Халқ сўзи, 1999. 10 апрель.

Vengriyaning “TEMPUS”, “TESKO”, Germaniyaning “GTS” va BMTning “YUNIDO” dasturlari shular jumlasidandir¹⁶⁶.

Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularni ushbu sohada yetuk kadr bo‘lib hayotda o‘z o‘rnini topishida “Respublika tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish markaz”larining o‘rni beqiyosdir. Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o‘qitish markazlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PQ-2897-son qarori asosida tashkil etildi¹⁶⁷. Markaz filiallari respublikaning har bir viloyatida tashkil etilgan bo‘lib, xususan, Namangan viloyatida ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Birgina 2019-yilning o‘tgan sakkiz oyi davomida viloyat shahar-tumanlaridagi xususiylashtirilgan obyektlar negizida faoliyatini boshlagan tadbirkorlar hamda tanlangan faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha o‘z biznesini boshlash istagini bildirgan yoshlar ishtirokida viloyat hokimligi tomonidan tasdiqlangan kalednar-rejaga asosida 25-marta o‘quv kursi tashkil etildi. Ularda 615 nafar tinglovchi qatnashdi va 552 nafariga maxsus sertifikatlar topshirildi¹⁶⁸.

O‘quv kurslarda tinglovchilarga “Biznes-rejani ishlab chiqish”, “Tadbirkorlikning qonunchilik asoslari, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish va ruxsat beruvchi hujjatlarni olish”, “Bankda hisob-varaq, shu jumladan, xorijiy valyutadagi hisob-varaq ochish, kredit olish shartlari va tartibi”, “Buxgalteriya hisobi, soliq va moliyaiy hisobot”, “Soliqlar va majburiy to‘lovlar, bojxona bojlari va to‘lovlari, ular bo‘yicha imtiyozlar” kabi mavzularda zaruriy dars mashg‘ulotlari tashkil etildi. Ushbu o‘quv kurslarini bitirgan yosh tadbirkorlar, sohaning yetarli malakaga ega bo‘lib o‘z ish faoliyati davomida, bitimlar tuzish, soliq imtiyozlari, kredit imtiyozlari, davlatning bo‘sh turgan bino va inshootlaridan “nol” hisobda ijaraga foydalanishda yetarli bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lishdi. Shuningdek, Kosonsoy tumani “Mador teks”, Namangan shahridagi “SPRING TEA EXPORT-IMPORT” va “Yuksalish tekstil”, Norin tumanidagi “Olis koinot”, Uychi tumanidagi “Alibobo tekstil servis”, Uchqo‘rg‘on tumanidagi “Anvar dizayn” MCHJlarida amaliyot o‘tash yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, ushbu korxonalarni

¹⁶⁶ Исаев Р. Бизнес мактаби // Халқ сўзи, 1999. 10 апрель.

¹⁶⁷ www.norma.uz

¹⁶⁸ Мамадалиев Б. 301 та янги иш ўринлари яратилди // Наманган ҳақиқати, 2019. 17 август.

muvaffaqiyatli yurgizayotgan tadbirkorlar sohaga oid bilimlar va amaliy ko'nikmalarni o'z tajribalariga tayanib o'rgatmoqda¹⁶⁹.

Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi tashabbusi bilan "Yoshlar – kelajagimiz" va "Har bir oila – tadbirkor" Davlat dasturlari doirasida Namangan davlat universiteti, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Namangan muhandislik-texnologiya institutida o'quv mashg'ulotlar olib borilib, ularda "Norma" professional rivojlantirish markazining aholi va tadbirkorlar, jumladan, yoshlar uchun www.direktor.uz portali vositasida moliyaviy savodxonlik bo'yicha "onlayn" tarzida o'quv kurslar yo'lga qo'yildi. Ushbu o'quv kursi ilk marotaba, 2019-yilning 15-20-aprel kunlari "Tashqi savdo va eksport" mavzusida eksportyor korxonalar uchun maxsus tashkil etilib, xorijga mahsulot eksport qilayotgan va rejalashtirayotgan tadbirkorlar o'qitildi. O'quv kursi eksportyor tadbirkorlar oldida turgan ko'plab muammolarni hal etdi. Jumladan, bojxona ruxsatnomasini olish, soliq yig'implari, kerakli hujjatlar jamlanmasi va boshqalar. Bu esa eksport mahsulotlarini o'z vaqtida, sifati buzilmasdan manzillarga yetib borishini ta'minladi¹⁷⁰.

Yoshlarni keng ko'lamdagi tadbirkorlikka yo'naltirish, shu yo'nalishda joylarda tashkil etilayotgan o'quv kurslari samarasi sezilarli bo'ldi. Namangan viloyati Mingbuloq tumani Jomashuy melioratsiya va qishloq xo'jalik kasb-hunar kolleji o'quvchisi, markaz tinglovchisi B.Usmonov bankdan 100 mln. so'm imtiyozli kredit olib, maishiy xizmat shahobchasini tashkil etdi va 6 ta yangi ish o'rni yaratdi. Namangan shahar sanoat kasb-hunar kolleji bitiruvchisi A.Akramov esa 150 mln.so'm kredit olib, tikuvchilik sexi ochdi, natijada 10 nafar ishsiz fuqaro ish bilan ta'minlandi. Umuman olganda, filial tomonidan tashkil etilgan o'quv kursini 2019-yilning 8 oylik samarasida, 37 nafar yosh fuqaro tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullana boshladi. 28 nafar tinglovchi banklardan 5 mlrd. 255 mln. so'm imtiyozli kredit oldi. Natijada 301 ta yangi ish o'rni yaratildi¹⁷¹.

¹⁶⁹ Мамадалиев Б. 301 та янги иш ўринлари яратилди // Наманган ҳақиқати, 2019. 17 август.

¹⁷⁰ Мамадалиев Б. 301 та янги иш ўринлари яратилди // Наманган ҳақиқати, 2019. 17 август.

¹⁷¹ Мамадалиев Б. 301 та янги иш ўринлари яратилди // Наманган ҳақиқати, 2019. 17 август.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, so'nggi 2017-2020-yillar mobaynida mamlakatimizda tadbirkorlikga oid kadrlar tayyorlash sohasida hamkorlikning xalqaro-huquqiy bazasi takomillashtirildi. Ta'lim tuzilmalari rivojlantirilib, kadrlar tayyorlash tizimi tubdan qayta isloh qilindi. Xususan, 2017-yildan boshlab kollejlarda faoliyatini takomillashtirildi, mavjud muammolar chuqur tahlil qilinib, to'g'ri yechimlar ishlab chiqildi. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 14-yanvaridagi yig'ilishida berilgan topshiriqqa muvofiq, Andijon viloyati Oltinko'l tumani misolida kollej bitiruvchilarini yangi yondashuvlarga asoslangan mexanizmi butun respublika bo'ylab joriy qilindi¹⁷². 2020-yilda esa "Ta'lim to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda qabul qilindi. Oqibatda ta'lim 12 yillik majburiy ta'lim shaklidan, 11 yillik ta'lim shakliga o'zgartirildi, kasb o'rganish ixtiyoriyligi belgilanib, mutloqo yangi tizim joriy etildi.

2021-yil iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Farmonga muvofiq 2021-yil 1-sentyabrdan Toshkent shahrida Yoshlar biznes maktabi, 2022-yildan boshlab barcha hududlarda uning filiallari tashkil etish ko'rsatildi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Yoshlarni ish bilan ta'minlashda tadbirkorlik faoliyati samarali ekanligi amalda o'z isbotini topdi. Yoshlarni tadbirkorlik faoliyati orqali ish bilan ta'minlash bir qator jamiyat va davlat olida turgan muammolarni o'z-o'zidan hal etadi. Xususan, ishsiz yoshlar ish bilan ta'minlanadi va buning natijasida yoshlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengayb, shaxsiy jamg'armasiga ega bo'ladi. Bu o'z navbatida yoshlarning kelajakka ishonch tuyg'usini oshiradi. Tadbirkorlik faoliyati orqali ish bilan band bo'lgan yoshlarni bo'sh vaqti kam bo'ladi, bu esa o'z o'rnida yoshlarni turli zararli illatlardan saqlaydi. Qolaversa, tadbirkorlik rivojlanishi orqali ish bilan band qilingan qatlam davlat byudjetini turli

¹⁷² <http://old.mehnat.uz/cyrl/statistika/view/31>

ijtimoiy xarajatlardan tejallishiga olib keladi, o'z o'rnida tejalgan sarmoya evaziga mamlakatning boshqa, nisbatan rivojlanmagan tarmoqlariga yo'naltiriladi.

Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishda sohaga oid kadrlar tayyorlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yish va isloh qilib borish bilan belgilanadi. Chunki har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy salohiyatidan kelib chiqib, tovarlar va xizmatlar ko'rsatish turining u yoki bu turini tanlaydi. Xalqaro maydonda raqobatbardosh tadbirkor kadrlarni tayyorlash esa, ana shu uch asosiy omillarni chuqur o'rganish va vaziyatga to'g'ri baho bera olishga bog'liqdi. Shu o'rinda quyidagilar tavsiya etiladi:

birinchidan, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari muvofiqlashtirish va kadrlar tayyorlash yagona tizimini ishlab chiqish vaqti keldi, buning uchun ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik aloqalarini kuchaytirish zarur;

ikkinchidan, yurtimizdagi namunali tadbirkorlar bilan korporativ hamkorlik aloqalarini o'rnatishni jadallashtirish, amaliyot darslarini bevosita ishlab chiqarish obyektlarida olib borish maqsadga muvofiq;

uchinchidan, kadrlar tayyorlashda 30 yoshgacha o'z tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarni rag'batlantirish, turli imtiyozlarni joriy etish bo'lg'usi tadbirkorlarni sohaga bo'lgan qiziqishini orttirishga xizmat qiladi.

O'tgan davr mobaynida davlat va nodavlat tashkilotlar yoshlarni tadbirkorlikka tayyorlab keldi, ta'lim esa ko'pincha nazariyaga asoslandi xolos. So'nggi uch yilda tadbirkorlikka davlat tomonidan berilgan e'tibor, sohaga oid kadrlar tayyorlashni chuqur isloh qilishga katta yo'l ochdi. Bunda yoshlar tadbirkorligiga alohida e'tibor berilayotgani yorqin misol bo'la oladi.

2021-yildan Yoshlar biznes maktablari tashkil etildi. Ushbu maktablarning asosiy vazifasi etib, mamlakatimiz va chet elning yetakchi tadbirkor va biznes yurituvchilarini jalb etgan holda, yoshlarga tadbirkorlik faoliyati davomida yaxshi natijalarga erishish va biznes yuritishda xavf-xatardan himoyalash usullarini o'rgatish, tadbirkorlikka qiziqqan yoshlarni biznes va tadbirkorlikka o'qitish,

ularda zamonaviy biznes ko'nikmalarini shakllantirish, motivatsion biznes-seminarlar va treninglar tashkil etish belgilandi¹⁷³.

Demak, tadbirkorlik sohasida kadrlar tayyorlash davlat va nodavlat tashkilotlarning oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi. Xususan, chet davlatlar bozori va ichki bozorni o'rganish, jamiyatga eng kerakli bo'lgan xizmatlar, ishlab chiqarish mahsulotlari va boshqa ko'plab tadbirkorlikka oid sir-asrorlarni chuqur o'rganish va amalda qo'llash usullarini o'rgatishdan iboratdir.

¹⁷³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ёшларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш ва уларнинг ижтимоий фаоллигини янада оширишга оид қўшимча чара-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2021. 15 июль.

III BOB. YOSHLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR TOMONIDAN QO‘LLAB- QUVVATLANISHI, SOLIQ VA BANK SIYOSATI

3.1-§. Yoshlarning kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishida nodavlat notijorat tashkilotlarining o‘rni

Yoshlar orasida tadbirkorlik faoliyatining yildan-yilga rivojlanib borishi, ularning jamiyat taraqqiyotida muhim kuchga aylangani, hech shubhasiz mustaqillik yillarida bu sohada olib borilgan davlat siyosati nafaqat yurtimizdagi ko‘p sonli yoshlar hayotida, balki mamlakat taraqqiyotida ham nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lganining yorqin dalilidir. Ahamiyatli tomoni shundaki, ushbu sohadagi vazifalar, istiqbolli davlat dasturlarini amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda nodavlat-notijorat tashkilotlarining ham o‘rni katta.

O‘zbekiston Respublikasining “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunida “Nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foydani) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini-o‘zi boshqarish tashkilotidir”¹⁷⁴, – deb ta’rif berilgan.

Qonunga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti (keyingi o‘rinda NNT deb yuritiladi – muallif) jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy manfaatlarini, turli demokratik va insoniylik qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy-madaniy hamda ma’rifiy maqsadlarga erishish, qolaversa, xayriya faoliyatini amalga oshirish uchun tuziladi. NNT fuqarolarning ixtiyoriy birlushuvi bilan tuziladi, daromad olish ularning asosiy faoliyati bo‘lmasligi kerak. Agarda qonunda belgilanganidek, pullik xizmat ko‘rsatsa, u holda daromadni o‘zining faoliyatini takomillashtirishga sarflashi nazarda tutilgan¹⁷⁵.

¹⁷⁴ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”. O‘RQ.763-son. 14.04.1999. // Lex.uz qidiruv tizimi. Murojaat qilingan sana: 29.03.2021.

¹⁷⁵ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”. O‘RQ.763-son. 14.04.1999. // Lex.uz qidiruv tizimi. Murojaat qilingan sana: 29.03.2021.

Shu o'rinda yoshlar tadbirkorligini tashkil etishda ko'maklashish, rivojlantirish va rag'batlantirish maqsadida bevosita va bilvosita tashkil etilgan NNTlarni tahlil qilish jarayonida ularni o'z faoliyati va funksiyasiga ko'ra ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga NNT faoliyatining bir tarmog'i yoshlar bilan ishlash bo'lsa, ikkinchi guruhga butun bir muassasaning faoliyati faqatgina yoshlarga qaratildi.

Masalan, birinchi guruhga kiruvchi, O'zbekiston siyosiy partiyalari. O'zbekiston da 5 ta, ya'ni O'zbekiston xalq demokratik partiyasi, O'zbekiston Adolat sotsial-demokratik partiyasi, Milliy tiklanish demokratik partiyasi, O'zbekiston liberal demokratik partiyasi va Ekologik partiyalar mavjud bo'lib, ularning har birida yoshlar qanoti faoliyat ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasidagi siyosiy partiyalar yoshlar qanotlari 2003-2009-yillar oralig'idagi muddatda shakllandi.

- "Adolat" sotsial demokratik partiyasining "Yosh adolatchilar" deb nomlanuvchi qanoti 2003-yilda chiqarilgan Respublika konferensiyasida tuzildi¹⁷⁶. Bu partiyaning boshqaruv Nizomiga ko'ra, "Yosh adolatchilar" faoliyati yoshlarda huquqiy ongni o'stirish, qonun qoidalarga amal qilish va huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'z ichiga oladi.

- O'zLiDeP tarixi bir guruh tadbirkorlar va fermerlar 2003-yil 4-5-oktyabrda partiya tuzish tashabbusi bilan chiqishi bilan boshlandi. 2003-yil 15-noyabrda esa partiyaning birinchi ta'sis syezdi o'tkazildi va unda partiya dasturi qabul qilindi. 2004-yil 23-yanvarda partiyaning "Yoshlar qanoti" tashkil etildi¹⁷⁷. O'zLiDeP "Yoshlar qanoti"ning maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

yangilik yaratishga chanqoq, el-yurt ravnaqi va vatan manfaatlari uchun fidoyi bo'lgan, zamon ruhini teran ilg'aydigan, ishbilarmon yoshlarni, malakali yosh kadrlarni o'z atrofida birlashtirish;

yoshlar hayotiga partiyaning dasturiy maqsadi va vazifalarini tatbiq etib borish;

¹⁷⁶ O'zbekiston "Adolat" SDP ma'lumotnomasi.

¹⁷⁷ O'zLiDeP Namangan viloyati bo'limi joriy arxiv ma'lumotlari. Ma'lumotlar Partiyaning Namangan viloyati bo'limi tomonidan 12.07.2020 yilda elektron ko'rinishda taqdim etilgan.

yoshlarning jamiyat hayotida harakatchanligini oshirish;

yoshlarning ijtimoiy-iqtisoiy hayotidagi huquqiy manfaatlarini himoya qilish;

istedodli yoshlarning salohiyatini to'liq yuzaga chiqarishga ko'maklashish;

yoshlarni jamiyatda hayotida munosib joy olishi uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish¹⁷⁸.

Shu o'rinda eslatib o'tish joiz, har bir hududiy, tuman va shahar partiya Kengashlarida "Yoshlar qanoti"ning joylarda 112 dan ortiq klublarining faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga ko'maklashish maqsadida "Diplom bilan biznesga", "Yosh tadbirkor muammolarini o'rganish", "Yosh mulkdor – yurt tayanchi" hamda "Yosh fermer" loyihalari joriy etilgan bo'lib, ularda 3,5 milion yoshlar ishtirok etdi. Loyihalar doirasida 20 mingdan ortiq yoshlarga 46 mlrd. 500 mln so'm miqdorida kredirlar olishga amaliy yordam ko'rsatildi, shu yo'l orqali 50 mingdan ortiq ish o'rinlari yaratildi¹⁷⁹.

2011-yildan boshlab yoshlarni tadbirkorlik sohasiga qiziqishini ortirish, ularni ushbu sohadagi bilimlarini mustahkamlash maqsadida partiyaning "Yoshlar qanoti" dasturi doirasida "Ishbilarmon o'quvchi" maxsus stipendiyasi ta'sis etildi. Stipendiya tanlovi o'quvchilarni tadbirkorlik va ishbilarmonlik ko'nikmalarini qay darajada o'zlashtirganligi, zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari hamda internet xizmatidan foydalanish borasidagi bilimlari, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish borasida ishlab chiqqan innovatsion loyihalari asosidagi mezonlar bo'yicha tanlab olinadi. Tanlovning viloyat bosqichida eng yuqori o'rin olgan 5 nafar o'quvchiga "Agrobank" va "Sanoatqurilishbank" tomonidan yil davomida har oy maxsus belgilangan miqdorda stipendiya to'lab borilgan. Ushbu loyiha yoshlarga motivatsiya berib, tadbirkorlikka oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, sohaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni sinchiklab

¹⁷⁸ O'zLiDeP Namangan viloyati bo'limi joriy arxiv ma'lumotlari. Ma'lumotlar Partiyaning Namangan viloyati bo'limi tomonidan 12.07.2020 yilda elektron shaklda taqdim etilgan.

¹⁷⁹ O'zLiDeP Namangan viloyati bo'limi joriy arxiv ma'lumotlari. Ma'lumotlar Partiyaning Namangan viloyati bo'limi tomonidan 12.07.2020 yilda elektron shaklda taqdim etilgan.

o'rganishda ular o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratishni nazarda tutdi. Natijada, ko'plab o'quvchi yoshlarda tadbirkorlik va ishbilarmonlik savodxonligi oshdi¹⁸⁰.

- Xalq demokratik partiyasi Markaziy Kengashi Ijroiya qo'mitasining 2006-yil 16-martdagi qarori bilan "Istiqbol" yoshlar qanoti tuzildi. Ushbu o'z faoliyati davomida, yoshlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida faol ishtirok etishga, vatanparvarlik tadbirlarini tashkillash va yoshlarni yagona shior ostida birlashtirishga chaqiruvlaridan iborat¹⁸¹.

- "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining "Yoshlar kanali" 2008-yil 18-dekabrda faollar yig'ilida tashkil etildi O'MTDP "Yoshlar qanoti" o'z oldiga yoshlarda vatanparvarlik, milliy ruh tuyg'ularini tarbiyalash bilan bir qatorda, ular orasidagi ishsizlikni milliy hunarmandchilikni rivojlantirish orqali bartaraf etish, bu yo'lda vazirlik idoralari, mahalliy hokimiyatlar bilan hamkorlik qilishni maqsad qilgan. 320014 partiya a'zolaridan 157188 nafarini yoshlar tashkil etadi¹⁸².

Partiya safida 30 yoshgacha (O'zLiDePda 34 yoshgacha) bo'lgan a'zolari O'zLiDePda – 49,9 foizni, "Milliy tiklanish" DPda – 53,6 foizni, XDPda – 31,9 foizni, Adolat SDPda -40,4 foizni tashkil etadi¹⁸³.

O'z tuzilmasi va funksiyasiga ko'ra, O'zLiDeP mamlakatda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgani bois, uning faoliyatida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ko'proq e'tibor berildi. 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ijrosini ta'minlash hamda o'z tadbirkorligini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarning ekspertlar va investorlarga o'z biznes loyihalari taqdimotini namoyish etish, ularga mutaxassislar tomonidan tegishli maslahatlar berilishi hamda eksport sohasidagi ilg'or tadbirkorlar natijasini o'rganish va amaliy tavsiyalar olish imkoniyatini yaratish maqsadida "Start up invest", "Start up

¹⁸⁰ Тadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – Ўзбекистон либерал демократик партияси "Ёшлар қаноти" "ishbilarmon y'quvchi" stipendiyasi uchun k'urik-tanlov y'tkazilishini ma'yлум qiladi // Turkiston, 2011. 12 mart.

¹⁸¹ Сиёсий кучларнинг сўл қаноти // Жамият, 2007. 8 март.

¹⁸² "Yoshlar qanoti" // mt.uz/yoshlar-qanoti

¹⁸³ "Yoshlar qanoti" // mt.uz/yoshlar-qanoti

export” va “Start up innovation” loyihalari tashkil etildi¹⁸⁴. Ushbu loyihalarni ko‘lamini kengaytirish maqsadida esa O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi va O‘zLiDeP Siyosiy Kengashi Ijroiya qo‘mitasi o‘rtasida mamlakatni 2019-2020-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlantirish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga amalga oshirayotgan tashriflariga puxta tayyorgarlik ko‘rish maqsadida o‘zaro hamkorlikda yangi istiqbolli innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga qaratilgan Memorandum imzolandi¹⁸⁵.

Ushbu hujjatga ko‘ra, ikki tashkilotlar hamkorligida turli yo‘nalishdagi tadbirlar o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan.

Xususan, hududlarni zamonaviy rivojlantirish maqsadida yangi innovatsion g‘oya va takliflarni ishlab chiqish maqsadida joylarda keng jamoatchilik vakillari, tadbirkorlar, yoshlar va ilmiy tadqiqotchilar ishtirokida uchrashuvlar o‘tkazish rejalashtirilgan.

Bundan tashqari hududlardagi mavjud erkin iqtisodiy sanoat zonolari, kichik sanoat zonolari hamda texnoparklarda tadbirkorlik subyektlari bilan uchrashib, ilg‘or innovatsion texnologiyalar asosida yuqori qo‘shilgan qiymatli, import o‘rnini bosuvchi, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarayotgan va xizmatlar ko‘rsatayotgan tajribali tadbirkorlar bilan faoliyatlarini boshlamoqchi bo‘lgan loyiha tashabbuskorlari o‘rtasida “Startup innovation”, “Startup invest” va “Startup export” loyihalari bo‘yicha mahorat darslari o‘tkazish ham nazarda tutilgan¹⁸⁶.

Shuningdek, o‘zaro hamkorlikda yangi istiqbolli innovatsion loyihalarni ishlab chiqishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlab olinib, unga ko‘ra qator targ‘ibot ishlari o‘tkazilishi ham maqsad qilingan. Ushbu loyihalarni keng targ‘ib etish va amalga oshirish yoshlar tadbirkorligini rivojlantiradi .

¹⁸⁴ O‘zLiDeP Namangan viloyati bo‘limi joriy arxiv ma‘lumotlari. Ma‘lumotlar Partiyani Namangan viloyati bo‘limi tomonidan 12.07.2020 yilda elektron shaklda taqdim etilgan.

¹⁸⁵ Innovatsion rivojlantirish vazirligi va O‘zLiDeP o‘rtasida Memorandum imzolandi // O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish vazirligi rasmiy veb-sahifasi, Kirish rejimi: mininnovation.uz/uz/news/ murajaat qilingan sana: 2021.03.29

¹⁸⁶ Innovatsion rivojlantirish vazirligi va O‘zLiDeP o‘rtasida Memorandum imzolandi // O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlantirish vazirligi rasmiy veb-sahifasi, Kirish rejimi: mininnovation.uz/uz/news/ murajaat qilingan sana: 2021.03.29

O‘zLiDeP tomonidan yosh tadbirkorlar joylarda duch kelayotgan muammolarga amaliy yordamlar ham berib kelindi. Buning natijasida yosh tadbirkorlarni qiynayotgan bir qator muammolar, xususan, yer ajratish, bino ajratish, kredit, subsidiya, soliq va boshqa imtiyozlarni olishda doimiy yordam ko‘rsatildi (3.1.1. – ilova). Yosh tadbirkorlar faoliyatida eng ko‘p uchragan muammolar kredit olish masalasida bo‘lib, Respublika bo‘yicha 2016-2021-yillarda 5870 ta muammo joyida ijobiy hal etilgan. Shundan, Andijon viloyatida 2192 ta, Namangan viloyatida 2420 ta, Farg‘ona viloyatida 34 tasi to‘g‘ri keladi¹⁸⁷.

Ikkinchi guruhga kiruvchi NNTlar tarixi 1991-yilda tashkil etilgan Yoshlar Ittifoqi bilan boshlanadi. 1991-1996-yillar mobaynida Yoshlar ittifoqi nodavlat notijorat tashkiloti faoliyat yuritgan. Ushbu tashkilot o‘tish davri yoshlarini birlashtirish, mavjud muammolarini yechish bilan bir qatorda ularni moliyaviy erkinligini ham qo‘llab-quvvatlagan. Yoshlar ittifoqi faoliyatiga doir hisobotlarda 1991-yilda ular orasida ishsizlik eng jiddiy muammolardan biri sifati ko‘rsatilgan bo‘lib, o‘sha davrdagi Respublikadagi 600 ming ishsizning yarmidan ko‘pini yoshlar tashkil qilishi ko‘rsatilgan. Ushbu muammoni ijobiy hal qilishda Yoshlar ittifoqi vazifalari sifatida birinchidan, yoshlarni ish bilan ta‘minlashda davlat siyosatini yuritish bo‘lsa, ikkinchidan, yigit va qizlar mehnatini tashkil qilishning yangi jamoatchilik shakllarini joriy etish deb, belgilangan. Qolaversa, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishda, alohida firmalar, ishlab chiqarish obyektlari va korxonalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash yo‘li bilan ko‘paytirishni nazarda tutuvchi takliflar ishlab chiqqan¹⁸⁸. Albatta, ushbu takliflar yoshlar orasida ishsizlik muammosini bir muncha yengillatsada, amalda ko‘p xarajat va vaqt talab etar edi. Bu esa yosh davlat oldida turgan muammolar safini kengaytirdi, xolos. Yoshlar ittifoqi amalda o‘z vazifasini uddalay olmadi. Natijada, 1996-yil 17-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-1425-sonli Farmoniga ko‘ra, Yoshlar Ittifoqi o‘rnida “Kamolot” jamg‘armasi tuzildi.

¹⁸⁷ O‘zLiDeP markaziy kengashining 2021 yil 15 noyabrdagi № 01-28/ 883 xatiga asosan tayyorlandi.

¹⁸⁸ O‘z MA, M.168-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 6-varaq.

1996-yil 31-mayda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 207-son qaroriga muvofiq, jamg‘armaning tashkiliy tuzilmasi tuzildi va quyidagilar Jamg‘arma faoliyatining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini yochish ishlarida qatnashish, ta’lim olishi, bandlik masalalari, konstitutsiyaviy huquqlarini to‘la amalga oshira olishlari uchun zarur shart-sharoit yaratish;

- yoshlarning ma’naviy hayotiga oid keng qamrovli ishlarni yo‘lga amalga oshiruvchi muassasalar, davlat idoralari, mehnat jamoalari, ilmiy, ijodiy uyushmalar, jamoat tashkilotlari, homiylar, jamoat arboblari faoliyatini muvofiqlashtirish;

- yoshlarda umuminsoniy qadriyatlar, milliy axloq, odob, demokratik yo‘nalishlarni takomillashtirish asosida barkamol ma’naviy xislatlar, yurtga muhabbat, Vatanga sadoqat, millatlararo do‘stlik rishtalarini mustahkamlash uchun zarur muhit va shart-sharoitning yaratilishiga ko‘maklashish;

- yoshlarga zamonaviy bilim, texnologiyalarni egallash, bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari va amaliyotini o‘zlashtirish, yangicha fikrlash omillarini hosil qilishda yordam ko‘rsatish, iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash¹⁸⁹.

“Kamolot” jamg‘armasining asosiy vazifasi yoshlarni o‘z atrofiga birlashtirish bilan birga, uning kelajakda alohida mustaqil NNT sifatida faoliyat yuritishiga tayyorlab kelish edi. Butun faoliyati davomida yoshlarning o‘qishi, mehnat qilishi uchun yaratilgan imkoniyatlarning samaradorligini oshirish, ularning mustaqil ravishda huquqiy, iqtisodiy bilim olishlarini, tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyatini rag‘batlantirish qilib belgilangan bo‘lsada, barcha vazifalar to‘la-to‘qis bajarilmay, qog‘ozda qolib ketdi¹⁹⁰.

“Kamolot” jamg‘armasi yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etishda amaliy ishlarni olib boraolmagani bilan ham o‘zining maqsadlarini to‘la bajara olmadi. Jamg‘arma yoshlarning ijtimoiy tashkiloti sifatida emas, balki “oddiy bir jamg‘arma” sifatida qarashlar asosida faoliyat yuritishiga moyillik kuchli bo‘ldi.

¹⁸⁹ O‘zbekiston Respublkasi Prezidentining “ O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg‘armasi to‘g‘risida”gi PF-1425-son Farmoni // 17.04.2021 yil lex.uz qidiruv tizimi.

¹⁹⁰ Ўзбекистон Ёшларининг “Камолот” жамғармаси низоми // norma.uz.

Hatto jamg'armaning butun faoliyati davrida harakat dasturi ham ishlab chiqilmadi. Jamg'arma yoshlarga yetakchilik qilish, juda bo'lmaganda, yoshlar ishlarini muvofiqlashtirish qobiliyatiga ega tashkilot darajasiga ko'tarila olmadi¹⁹¹.

2001-yil 25-aprelda "Kamolot" jamg'armasi o'rnida O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakati ("Kamolot" YOIH) tuzildi. Shu kuni "Kamolot" YOIHning ta'sis qurultoyi bo'lib o'tdi. Ta'sis qurultoyda harakatning Dasturi va Nizomi qabul qilindi¹⁹². O'zbekiston tarixida shu davrdan boshlab "Kamolot" YOIH faoliyat ko'rsata boshladi.

Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, ushbu sohaga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirish maqsadida "Kamolot" YOIH, "Mikrokreditbank", "Agrobank", O'zbekiston savdo-sanoat palatasi hamkorligida har yili an'anaviy tarzda "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor", "Eng yaxshi biznes-loyiha" hamda "Yosh tadbirkor kamoloti – qishloq taraqqiyoti kafolati" loyihalari tashkil etildi. Mazkur tanlovlar yoshlarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadlariga qaratilgan edi. 2010-yilning o'zida loyihada muvaffaqiyatli qatnashib, imtiyozli kreditga ega bo'lgan 70 nafar yosh tadbirkorlar o'z biznes rejalari asosida mehnat faoliyatini yo'lga qo'ydilar¹⁹³.

2011-yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan "Kamolot" YOIHning hududiy hamda mahalliy bo'limlari qoshidagi "Yoshlar ijtimoiy xizmatlari" markazlari negizida yigirmata "Yosh tadbirkor" konsultativ markazi tashkil qilindi. "Yosh tadbirkor" konsultativ markazining asosiy vazifasi tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan yoshlarga ko'maklashish, ularni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish hamda davlat ro'yxatidan o'tish, tijorat banklaridan mikrokreditlar olishga doir ma'lumotlarni berishdan iborat bo'ldi¹⁹⁴.

¹⁹¹ Топилдиев О. Р. Ёшлар – келажакимиз. – Наманган: "Наманган" нашриёти. 2013. – Б. 28.

¹⁹² О`з МА, М.13-fond, 1-ro'xat, 1-ish, 2-varaq.

¹⁹³ Юсупов Р. Энг яхши бизнес лойиҳа // Туркистон, 2010. 6 ноябрь.

¹⁹⁴ "Ёш тadbirkor" бизнес тренинги // Туркистон. 2011. 11 май.

“Yosh tadbirkor” konsultativ markazlari koordinatori va trenerlarining malakasini oshirish, hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik sohasida yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlarni targ‘ib qilish, ommalashtirish maqsadida, 2011-yildan boshlab maxsus o‘quv seminarlar tashkil etildi¹⁹⁵. Seminar doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, o‘z biznesini ro‘yxatdan o‘tkazish, o‘qitishni samarali interfaol usullari, biznes reja yozish tartiblari, biznesning moliyaviy manbalari, kreditlar va lizing olish talablari kabi ko‘nikmalar berildi.

2012-yildan boshlab yosh tadbirkorlar joylarda duch kelayotgan muammolarni o‘rganib tahlil qilish, ularni tezkorlik bilan hal etish, tegishli hokimlik va joylardagi davlat organi tashkilotlariga takliflar kiritish maqsadida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati hududiy bo‘limlari qoshida “Yoshlar ishonch telefonlari” tashkil etildi¹⁹⁶. Iшонch telefonlarini tashkil etishdan maqsad esa, endigina tadbirkorlik faoliyatini boshlayotgan yoshlar duch kelayotgan muammo va qiyinchiliklar, ularni ushbu faoliyat turini davom ettirishdagi ikkilanishlari, ortga qaytish yoki boshqa kasb tanlash holatlarini bartaraf etish edi. Ammo ta’kidlash joizki, ushbu sohada “Kamolot” YOIH tomonidan davomli ishlar amalga oshirilmadi. Xususan, yoshlar murojaatlarini ro‘yxatga olish, ularning hisobini yuritish, yosh tadbirkorlar joylarda duch kelayotgan muammolarni kopleks hal etish uchun davlat organlariga takliflar kiritish, ta’sirchan choralar ko‘rish maqsadida yoshlarga oid davlat siyosatini joylarda ijrosini ta’minlovchi organlar bilan hamkorlik qilish va boshqalar. Umuman olganda, “Kamolot” YOIH asosiy vazifalari to‘laqonli ado etmadi, pirovardida ushbu tashkilot ham o‘zini oqlamadi.

Qolaversa, tahlillarga ko‘ra, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayotidagi muammolarini ijobiy hal eta olishi kerak bo‘lgan tashkilot o‘z faoliyatida jiddiy kamchilik va nuqsonlar yo‘l qo‘ygan. U asosan, o‘z atrofida harakat faoliyatiga xayrixoh bo‘lgan yoshlarni birlashtirib, faqat ularni qiziqtirgan

¹⁹⁵ “Ёш тadbirkор” бизнес тренинги // Туркистон. 2011. 11 май

¹⁹⁶ FVDA, 2007-fond, 2-ro‘yxat, 1-ish, 8-varaq.

masalalar yuzasidangina ish olib bordi. Natijada yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo'lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'zini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida ko'rsata olmadi¹⁹⁷.

“Kamolot” YOIH o'z faoliyati davrida boshqa nodavlat tashkilotlar va uyushmalar, xalqaro tashkilotlar bilan yaqindan aloqa o'rnatmadi yoki ishni aniq tashkil eta olmadi. 2014-yilda Toshkent yuridik kolleji o'quvchilari tomonidan tengdosh tadbirkorlarga huquqiy yordam ko'rsatish maqsadida tuzilgan “Youth Business group” mas'uliyati cheklangan jamiyati ber necha bor “Kamolot” YOIH bilan aloqa o'rnatish va hamkorlik qilishga xarakat qilgan. Ammo “Kamolot” YOIH buni ham e'tibordan chetda qoldirgan¹⁹⁸. Aslida, “Youth Business group” mas'uliyati cheklangan jamiyatining maqsadi “Kamolot” YOIHga a'zo yosh tadbirkorlarga huquqiy maslahat, huquqiy ko'mak va moddiy yordam berish bo'lgan. Rivojlangan davlatlar tajribasida bunday nodavlat tashkilotlar tarixi juda ham ko'p uchraydi va ular ayni hozirgi kundagi dunyoga mashxur Apple, Tesla, General Motors va boshqa kompaniyalarning paydo bo'lishiga asosiy sababchilardan bo'lgan. O'zbekiston sharoitida ham katta kompaniyalarni tashkil topishi uchun NNTlar o'zaro hamkorlik aloqalariga, hamkorlikdagi loyihalarga katta etibor berishi zarur.

“Kamolot” YOIHdagi kamchiliklardan yana biri qog'ozbozlik ishlariga haddan tashqari berilib ketilishidir. Masalan, 2017-yilga kelib “Kamolot” YOIHning 4 millionga yaqin a'zosi bo'lgan. Demak, 10 milliondan ziyod yigit-qizlarning 40 foizini tashkil etgan. Ammo, tashkilotga a'zolik ko'p hollarda faqat qog'ozda mavjud bo'lib, amalda esa aksariyat a'zolar “Kamolot” YOIH to'g'risida aniq tasavvurga ega bo'lmagan, uning maqsad va vazifalarini bilmagan, o'z yetakchilarini tanimagan, Harakat faoliyatida ishtirok etmagan¹⁹⁹.

¹⁹⁷ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 2017. – Б. 506.

¹⁹⁸ ЎзМА, М.13-fond, 2-ro'yxat, 554-ish, 37-39 varaqlar.

¹⁹⁹ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017.– Б. 507

Natijada yurtimizdagi minglab yoshlar, ayniqsa, qishloq joylarda nafaqat “Kamolot” YOIHning, ayni vaqtda davlat va jamiyatning e’tiboridan chetda qoldi. Ular bilan hech kim deyarli shug’ullanmadi, ular o‘z holiga tashlab qo‘yildi. Buning oqibatida uyushmagan, ya’ni ishlamaydigan, o‘qimaydigan, tayin bir mashg‘ulotga ega bo‘lmagan, salbiy ta’sirlarga beriluvchi yoshlar soni ortib bordi. Yoshlar o‘rtasida jinoyat sodir etish, diniy ekstremistik oqimlarga, terrorchi guruhlariga qo‘shilib qolish holatlari ko‘payib borishi kuzatildi. Birgina 2016-yilda yoshlar ishtirokida 1 million 740 mingga yaqin huquqbuzarlik, 23 ming 440 ta jinoyat sodir etilgani, yosh oilalar o‘rtasida 8 mingdan ortiq ajralish holati qayd etildi²⁰⁰.

“Kamolot” YOIH bunday holatga kelib qolishiga obyektiv va subyektiv sabablari mavjud edi. Obyektiv sabablarga Nodavlat notijorat tashkiloti sifatida faoliyat ko‘rsatgan muassasaga Vazirlik darajasidagi topshiriqlar yuklatilgan, oqibatda topshiriqlar bajarilmagan, subyektiv sababi esa “Kamolot” YOIH rahbariyat hodimlari tomonidan ishga rasmiyatchilik bilan yuzaki va loqayd munosabatda bo‘lishi sabab bo‘lgan. Bundan tashqari, “Kamolot” YOIH hududlardagi faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun mahalliy hokimliklar tomonidan alohida binolar ajratib berilmagan. Misol uchun, hududiy bo‘linmalarning 81 tasi mahalliy hokimliklar binosida, 96 tasi turli korxona va muassasalar binosida joylashgan. Bu o‘z-o‘zidan yoshlarning o‘z tashkilotiga erkin kirib-chiqishini qiyinlashtirgan. Bundan tashqari, Farg‘ona viloyatida Yoshlar markazi binosining birinchi qavatida yoshlar uchun mo‘ljallangan to‘garak va klublar faoliyati to‘xtatilib, mazkur bino hokimlik tomonidan boshqa tashkilotga berib yuborilgan. Farg‘ona viloyati So‘x tumanidagi “Kamolot” YOIH hududiy boshqarmasi avariya holatidagi binoda ishlab kelgan²⁰¹. Albatta, bu holatlar “Kamolot” YOIH xodimlari ishni tashkil qilishida salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

²⁰⁰ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Тошкент, “Ўзбекистон”. 2017. – Б. 508.

²⁰¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 511.

O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi shunday katta tashkilot, achinarli holga kelib qolishi va uning ko‘plab yo‘l qo‘ygan xatolarini takrorlamaslik maqsadida yoshlar tashkiloti faoliyatini qaytadan Yoshlar ittifoqi nodavlat notijorat tashkilotini sifatida tashkil etish va unga ko‘plab imtiyoz hamda ustunliklar berish taklifi mamlakat Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2017-yil 30-iyun kuni “Kamolot” YOIHning IV qurultoyida berildi. Ko‘pchilik yoshlar ushbu takliflarni har tomonidan qo‘llab-quvvatladilar. Shu kun O‘zbekiston tarixiga “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tuzilgan kun deb kirdi va har yili 30-iyun mamlakatimizda “Yoshlar kuni” sifati keng nishonlanadigan bo‘ldi²⁰².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyulda qabul qilgan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qullab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son Farmoniga asosan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi markaziy kengashi raisiga, ayni paytda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi vazifasini bajarishni ham yuklatildi. Bundan tashqari, Prezident Administratsiyasining yoshlar masalalari xizmatiga rahbarlik qilish va O‘zbekiston Respublikasi Prezident tomonidan tayinlanadigan O‘zbekiston Respublikasi Senati a‘zosi hisoblanishi belgilab qo‘yildi²⁰³. Ayni paytda, bunday vakolatlar berilishi O‘zbekiston yoshlar ittifoqi zimmasiga ko‘plab vazifalarni yuklash bilan bir qatorda, javobgarlikni ham kuchaytirdi. Qolaversa, Yoshlar ittifoqi hududiy bo‘limlari rahbarlarini ham vakolatlari e‘tibordan chetda qolmadi. O‘zbekiston yoshlar ittifoqining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar kengashlari raislari, tegishliligi bo‘yicha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi

²⁰² Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъийят билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 516.

²⁰³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. ““Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”. 05.07.2017. PF-5106-son. // lex.uz qidiruv tizimi, murojaat qilingan sana: 30.03.2021.

hisoblanadi va maqomi bo'yicha, ularning birinchi o'rinbosarlariga tenglashtiriladi²⁰⁴ – deb belgilab qo'yilgan. Bu esa yoshlarga oid muammolarni hal etishda davlat tashkilotlari va nodavlat tashkilotlarini o'zaro hamkorligini rivojlantirdi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon yoshlar bandligini ta'minlash masalasiga ustuvor vazifa sifatida qaralib, o'tgan davr mobaynida 841147 nafar yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashildi. Xususan, yillar kesimida yoshlar bandligini ta'minlash borasida olib borilgan ishlar tahliliga ko'ra, 2017-yilda 28760 nafar, 2018-yilda 46062 nafar, 2019-yilda esa 360197 nafar yoshlarni ish bilan ta'minlashga erishildi²⁰⁵.

Dunyoda ko'plab mamlakatlarining yoshlari o'z biznesini boshlashda deyarli bir xil muammolarga duch kelishadi. Bular asosan, 53 foiz mablag'ning yo'qligi, 27 foizida tajriba va sohaga oid bilim hamda ko'nikmani yetishmasligi hisoblanadi²⁰⁶. Bunday vaziyatda yoshlarning tadbirkorlik maydoniga chiqishi uchun davlatning ko'magi muhimdir. Mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligini sohasida yig'ilib qolgan muammolarni hal etish, yoshlarni biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish maqsadida yoshlar NNTlarini sonini, ularning funksiyasini va faolligini oshirish muhim rol o'ynaydi. Bu esa yoshlarni nafaqat tadbirkorlik maydonida, balki dunyo biznes bozorida ham o'z o'rnini topish uchun keng imkoniyat eshigini ochadi.

Ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Yoshlar – kelajagimiz” davlat Dasturi (keyingi o'rinda Dastur) mamlakatda yoshlar tadbirkorligi sohasidagi ishlarda tub burilish yasadi²⁰⁷. Dastur doirasida belgilab berilgan

²⁰⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”. 05.07.2017. PF-5106-son. // lex.uz qidiruv tizimi, murojaat qilingan sana: 30.03.2021.

²⁰⁵ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining joriy arxiv ma'lumotlari (Ma'lumotlar elektron shaklda 12.10.2021 yilda taqdim etilgan)

²⁰⁶ Власов Г. Ю. Как повысить активность молодёжного предпринимательство // Российское предпринимательство, 2011, №10 (2). – С. 14.

²⁰⁷ “Yoshlar - kelajagimiz” Davlat Dasturi // Халқ сўзи, 2018. 28 июнь.

vazifalardan so‘ng, yoshlar tadbirkorlik faoliyatining barcha sohalarini tubdan isloh qilishga mo‘ljallangan keng qamrovli ishlarni amalga oshirish butun respublika hududida qizg‘in tus oldi.

Dasturda zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg‘ayrat yoshlarni tarbiyalash, mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishni muhim shartlaridan biri deb e’tirof etildi²⁰⁸.

Dastur 2018-yilgacha to‘planib qolgan bir qator tizimli muammolarni hal etish hamda kelajakdagi strategiyasini ishlab chiqishni nazarda tutdi. Xususan, joylarda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish, yosh tadbirkorlarni istiqbolli g‘oyalarini ro‘yobga chiqarish, shu asosda yoshlar bandligini ta’minlashga erishish borasidagi ishlarni joylardagi hokimliklar va davlat organi xodimlarini e’tiborsizligi oqibatida vujudga kelgan muammolarni bartaraf etish Dasturning asosiy maqsadi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyundagi “Yoshlar – kelajagimiz” davlat Dasturi to‘g‘risida”gi PF-5466-son Farmonini bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-avgustda 669-son qarori qabul qilindi²⁰⁹. Qarorga ko‘ra, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar – kelajagimiz” Jamg‘armasini (keyingi o‘rinda Jamg‘arma - deb yuritiladi – muallif) tuzishni nazarda tutadi.

Jamg‘arma o‘z funksiyasiga ko‘ra, yosh tadbirkorlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish, biznes reja tuzish, “start up” g‘oyalarni ro‘yobga chiqarishda ularni qo‘llab-quvvatlashdan to Jamg‘arma resurslari doirasida ajratilgan kreditlarni realizatsiyasini monitoring qilishgacha bo‘lgan vazifalarni bajaradi. (Jamg‘arma faoliyati haqida 3.3-paragrafda keng ma’lumot berilgan).

Shu bilan birgalikda, Respublika miqyosida 25 ta “Yosh tadbirkorlar”

²⁰⁸ “Yoshlar - kelajagimiz” Давлат Дастури // Халқ сўзи, 2018. 28 июнь.

²⁰⁹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida 16.08.2018 yil 669-son qarori // lex.uz qidiruv tizimi murojaat qilingan sana 30.03.2021.

kovorking markazi hamda 157 ta “Yoshlar mehnat guzari” komplekslari qurilib foydalanishga topshirilib, ularda jami 1787 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishiga erishildi. Mazkur komplekslarda 70 ta savdo do‘koni, 65 ta tikuv sexi, 58 ta ayollar va erkaklar saloni, 39 ta avtoservis, 35 ta novvoyxona va qandolat sexi, 22 ta umumiy ovqatlanish shahobchasi, 19 ta hunarmandchilik ustaxonasi, 14 ta o‘quv markazi, 8 tadan kitob do‘koni, telefon tuzatish ustaxonasi, kompyuter xizmati, foto studiya, dorixona va boshqalar tashkil etildi²¹⁰.

Bundan tashqari, yoshlarni hududdagi yirik va samarali faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik loyihalari bilan tanishtirish maqsadida joylardagi 1826 ta yirik ishlab chiqarish korxonalari, texnoparklar va sanoat zonalariga biznes-sayohatlar tashkil etilib, ularga 57 ming nafarga yaqin yoshlar jalb etildi. Natijada 2 mingdan ortiq yoshlarning bandligini ta’minlashga ko‘maklashildi²¹¹.

2020-yilda Xitoyning “China campus network” nodavlat ta’lim agentligi, “Alibaba business school”, “Great wall consulting” kompaniyalari bilan hamkorlikda “O‘zbekistonda elektron tijorat istiqboli” mavzusida onlayn biznes forum tashkil etilganini e’tirof etish zarur. Chunki XXI asr elektron tijorat asri sifatida dunyo hamjamiyati tomonida eng qulay savdo bozori sifatida tan olingan bo‘lib, ushbu sohani O‘zbekistonga kirib kelishi yoshlar tadbirkorligida katta natijalar beradi²¹².

Qolaversa, yoshlar turmush hayotini yaxshilash, tadbirkorlik bilan shug‘ullanish barqaror daromad olish hamda ularga bunday faoliyatni yo‘lga qo‘yishning amaliy jihatlarini o‘rgatishga qaratilgan video materiallar va darsliklar, motivatsion roliklar, elektron biznes kitoblar, audio kitoblar, tadbirkorlik sohasidagi imtiyozlar katalogi, biznes reja namunalarini o‘z ichiga olgan @biznesga_qadambot telegram bot faoliyati yo‘lga qo‘yildi²¹³. Ushbu bot orqali, Respublikaning istalgan nuqtasidan Jamg‘arma rahbariyati bilan bog‘lanish

²¹⁰ “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi joriy arxivi (YoK JJA), 2020 yil ma’lumoti. 3-06 jild, 3-varaq.

²¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi joriy arxiv ma’lumotlari. (Ma’lumotlar elektron shaklda 12.10.2021 yilda taqdim etilgan).

²¹² YK JJA, 2020 yil ma’lumotlari. 3-06 jild, 4-varaq.

²¹³ YK JJA, 2020 yil ma’lumotlari. 3-06 jild, 5-varaq.

imkoniyati mavjud bo'lib, uning yordamida barcha yoshlar o'z muammolari, takliflari va shikoyatlarini tez va samarali yechishlari mumkin bo'ldi. Bu albatta, Jamg'armaning faoliyatini barcha hududlarda birdek olib borilishini ta'minladi.

Jamg'armaning Namangan viloyati hokimligi bilan hamkorlikda olib borgan ishlari orqali yoshlar tadbirkorligida bir muncha yutuqlarga erishildi. Xususan, Jamg'armaning ishchi Dasturi Namangan viloyati hokimligining yillik "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan bo'lib, ijrosini ta'minlash uchun 805 kishidan iborat ishchi guruh tuzildi. Ishchi guruhning asosiy vazifasi hududlar kesimida yoshlar tadbirkorligiga oid muammolarni o'rganish, ularga kompleks yechim topishdan iborat bo'ldi. Birgina, 2018-yilning 11-iyulidan 8-avgustiga qadar 769 ta mahalla o'rganib chiqildi. Natijada, 45 284 nafar ishsiz yoshlarni qiynayotgan 14500 ga yaqin muammolar aniqlandi, shundan 3919 tasiga joyida yechim topildi, 10500 taga yaqin muammolar esa, kompleks yechim topish maqsadida, shahar va tumanlar hokimligi "Yo'l xarita"lariga kiritildi. Natijada, Namangan viloyatining 296 nafar yosh tadbirkorlariga ajratilishi ko'zda tutilgan 62035 mlrd. so'm kreditlar mablag'laridan, 2018-yil oktyabr oyigacha 27 mlrd. 480 mln. so'm kredit ajratilib, tadbirkorlikni boshlashga ko'maklashildi va 1021 nafar yoshlarga yangi ish o'rinlari yaratildi. Shuningdek, O'zbekiston yoshlar ittifoqi tavsiyasi asosida 25 nafar yosh tadbirkorga 6 mlrd. 290 mln. so'm kredit ajratilib, 272 nafar yosh ish bilan ta'minlandi²¹⁴. Buning e'tiborli jihati shundaki, Jamg'arma faoliyatini o'z-o'ziga tashlab qo'ymasdan, davlat bilan hamkorligi kuchaydi. Oqibatda yoshlar tadbirkorligiga davlat organlari tomonidan jiddiy e'tibor berila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6017-son Farmoniga asosan "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi 2021-yil 1-yanvardan mustaqil nodavlat notijorat tashkilot sifatida qayta tashkil etildi²¹⁵. Bu esa yoshlar

²¹⁴ Бувамирзаева Г. Ёш тadbirkorлар парвози // Наманган ҳақиқати, 2018. 24 октябрь.

²¹⁵ YKJJA, 2020 yil ma'lumotlari. 3-06 jild, 6-varaq.

tadbirkorligi tarixida yana bitta NNT paydo bo'lishiga olib keldi. Shu o'rinda, 2017-2021-yillar mobaynida yoshlar tadbirkorligiga jiddiy e'tibor berilishi natijasida, sohaga oid NNTlar soni keskin oshdi. 2021-yilga kelib davlat ro'yxatidan o'tgan, nizomiga ko'ra maqsad va vazifalari yoshlar masalalari bilan bog'liq bo'lgan NNTlar soni 794 tani tashkil qildi²¹⁶. Davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligi esa yangi pog'onaga chiqdi.

Tadbirkorlikka keng yo'l ochish, sohada uchrayotgan muammolarni aniqlash va amaliyotda to'g'ri yechim topish kabi ishlar bilan O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi ham shug'ullanib kelmoqda. Palataning Andijon viloyatida amalga oshirgan ishlari natijasida 8 ta axborot-konsultativ markaz ishga tushirildi. Axborot-konsultativ markazlarining ko'magida 2548 nafar tadbirkor palata a'zoliciga o'tdi. Ushbu axborot-konsultativ markazlarning say harakati bilan qishloq joylarida 1182 yangi ish o'rinlari yaratildi. Nodavlat sektordagi daromadlar salmog'i 85,3 foizga ortdi²¹⁷.

Xulosa o'rnida qayd etish joizki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda yoshlar tadbirkorligi harakatiga asos solindi. Aytish mumkinki, yoshlar zamonaviy dunyo o'zgarishlariga qo'rqmay qadam tashlovchi, davlatdagi islohotlar o'rkazishdagi muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarida faol ishtirok eta oluvchi sifatida ijtimoiy kuchga aylandi. Asosan ko'proq iste'molchi sifatida qaralgan yoshlar, so'nggi yillarda moddiy ne'matlar yaratuvchi, zamonaviy texnologiyalar asosida jahon bozorida raqobatlasha oladigan eksportbop ishlab chiqarayotgan, xalqaro bozor munosabatlari darajasida fikr yurita oladigan, uzoqni ko'zlab qabul qilinayotgan istiqbolli dastur va loyihalarning faol ijrochisi bo'lgan tadbirkorga aylanmoqda. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarning faollashuvi va davlat tashkilotlari bilan hamkorligida olib borilgan ishlari natijasida ushbu soha yangi pog'onaga ko'tarildi. Bunda yoshlarning kichik biznes va xususiy tadbirkorlikdagi faoliyatlarini yanada rivojlantirishda xalqaro tajribani O'zbekiston da qo'llash

²¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2021 yil 7 apreldagi 9/8-3/3-356 sonli hatiga ilova.

²¹⁷ O'z MA, M.37-fond, 1-ro'yxat, 2531-ish, 160-varaq.

bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'lamida nafaqat Markaziy Osiyo, balki rivojlangan dunyo davlatlari bilan munosabatlari geografiyasini kengayib borayotganligi diqqatga sazovordir.

3.2-§. Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda soliq imtiyozlari va ularning soha rivojiga ta'siri

Mamlakatda bozor islohotlarini amalga oshirishda hududlarning ijtimoiy-demografik qiyofasi, undagi yoshlarning salmog'i va ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hisobga olish nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni doimiy daromad manbaiga ega bo'lishi va tadbirkorlikni u yoki bu turini yo'lga qo'yishida, albatta, mamlakatda soliq sohasida olib borayotgan siyosatga ham bevosita bog'liqdir. Shuning uchun ham mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab to hozirgi kunga qadar ushbu sohada qator islohotlar amalga oshirilib, tadbirkorlarga solinadigan soliq yukini kundan-kunga yengillashtirib kelinmoqda. Bunda asosiy e'tibor soliq yukini kamaytirish hisobiga soliq to'lovchilar sonini ortishiga erishish bo'ldi.

Istiqlolning ilk kunlaridan boshlab soliq sohasida bir qator ilohotlar amalga oshirildi. Masalan, 1993-yilda 36 mlrd. so'mni tashkil qilgan 6 foizli resurs to'lovlari 1994-yilga kelib bekor qilindi. Ishchi-xizmatchilar to'laydigan daromad solig'i 50 foizdan 40 foizga tushirildi. Qo'shimcha qiymat solig'i esa 25 foizni tashkil qildi²¹⁸. Bu, albatta, soliqlarni bir muncha tushurishga qaratilgan dastlabgi qadamlar edi, ammo aholi va tadbirkorlar daromadini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Oqibatda daromadni yashirish holatlari paydo bo'ldi.

Bunga birgina misol, 1993-yilda Farg'ona viloyatining o'zida 1311 nafar tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlardan 733 nafarida soliq qonunchiligi buzilib, 32 mln. so'm soliq yashirilgan holatlari qayd etilgan²¹⁹. Ushbu muammoning vujudga kelishiga bir qator omillar sabab bo'lgan, birinchidan, soliq yukini yuqoriligi bo'lsa, ikkinchidan, soliq to'lovchilarni soha

²¹⁸ FVDA, 1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 32-varaq.

²¹⁹ FVDA, 1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 32-varaq.

qonunchiligiga oid bilimlari yetishmaganligi, uchinchidan esa, tadbirkorlarning soliq organlariga hisobot topshirish shartlarini yaxshi tushunmaganlari sabab bo'lgan.

Ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida, 1994-yilda Farg'ona viloyati Davlat soliq inspeksiyasi tomonidan Farg'ona politexnika instituti qoshida topografiya-servis markazi ishga tushirildi²²⁰. Bundan ko'zlangan maqsad soliq to'lovchi tadbirkorlarni o'qitish va soliq sohasidagi qonunchilik yangiliklari bilan tanishtirib borish edi.

Soliqlardan tashqari, uy mehnati asosida sotish uchun mo'ljallab ishlab chiqariladigan mahsulotlarga ma'lum summa evaziga patent²²¹ olish majburiy bo'lib, sohaga hali kirib kelmagan yoshlar oldida bir qator muammolarni vujudga keltirar edi. Masalan, 1994-yil yanvar holatiga Andijon viloyati hokimiyati tomonidan 243 f-sonli qarori bilan patent olish majburiy bo'lgan 64 turdagi tadbirkorlik faoliyatining ro'yxati va patent summasi tasdiqlangan (3.2.1-ilova)²²². Patent to'lovi har oyda amalga oshirilishi belgilangan bo'lib, tadbirkorlik turiga qarab 2 ming so'mdan 30 ming so'mgacha narx belgilangan. Farg'ona viloyati hokimining 1994-yil 30-martdagi 99-sonli qarori bilan tasdiqlangan ilovada esa, 18 turdagi tadbirkorlik faoliyati patent olish summalari ko'rsatilgan bo'lib, 50 ming so'mdan 600 ming so'mgacha narx belgilangan (3.2.2-ilova)²²³. Pirovardida tadbirkor soliq yuki va patent to'lovlaridan qochishga urinish holatlari yuz bergan yoki faoliyatini to'xtatgan.

Shu davrda tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlanmaganining sabablaridan yana biri, bu noqonuniy tekshiruvlarning haddan tashqari ko'pligi edi. Farg'ona viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan Bog'dod va Buvayda tumanlarida o'rta va kichik biznes subyektlari qonuniy manfaatlarining buzilish holatlari aniqlangan bo'lib, unda viloyat Davlat soliq boshqarmasining Bog'dod va Buvayda

²²⁰ FVDA, 1220-fond, 3-ro'yxat, 31-ish, 32-varaq.

²²¹ Патент - (лот. "patentis" – аниқ, очик) – 1. Хусусий тарзда тadbirkorlikнинг бирор бир тури билан шуғулланишга рухсат берувчи гувоҳнома, тегишли хужжатлар асосида молия органлари томонидан берилади; 2. Ихтиро, фойдали модель, саноат намунаси каби интеллектуал мулк муаллифлигини тасдиқловчи гувоҳнома. Қаранг: Иқтисодий атамаларнинг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент, 2021. – Б. 173.

²²² Andijon viloyati davlat arxivi (AVDA) 734-M fond, 1-ro'yxat, 227-ish, 6-10-varaqlar.

²²³ FVDA, 1220-fond, 2-ro'yxat, 14-ish, 158-varaq.

tumanlaridagi bo'limlari tomonidan kichik va o'rta biznes subyektlarida viloyat hududiy komissiyasining ruxsatisiz noqonuniy tekshirishlar o'tkazilganligi hamda jarimalar qo'llashda jiddiy qonunbuzilish hollariga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lgan²²⁴.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi PF-1987-sonli "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-darbirlari to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-maydagi 232-sonli "Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori e'lon qilingan bo'lib, unda tadbirkorlik subyektlariga ko'plab soliq imtiyozlari belgilangan. Xususan, xodimlari umumiy sonining yetmish besh foizini o'rta maktablar va hunar texnika bilim yurtlari o'quvchilari tashkil etadigan yuridik shaxslar daromad solig'idan ozod etildi²²⁵.

Tadbirkorlik faoliyatiga erkin yo'l ochish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun soliq sohasiga oid ilohotlarni davom ettirildi. Soliq yukini kamaytirish va soliq to'lovchilarga soddaroq tizimni tashkil qilish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi "Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalarga soliq solish tartibi to'g'risi"da 159-sonli qarori qabul qilindi²²⁶. Qarorga ko'ra, soliq to'lovchilarning hisobotlar taqdim etishida qulayliklar yaratildi. Xususan, soddalashtirilgan soliq to'lovchilar yilda va har chorakda bir marotaba hisobot topshiradigan bo'ldilar. Bu esa kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida mehnat qilayotgan yoshlarni vaqti tejalishiga, o'sha vaqtni o'z tadbirkorligini yanada rivojlantirishga sarflashi uchun imkon yaratdi.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, o'rta korxonalarning soddalashtirilgan soliq to'lash tizimiga o'tkazilishi bilan yagona soliq to'lovchilar soni yana 5 foizga ko'paydi. 2004-yilga kelib kichik va o'rta biznes subyektlari ro'yxatdan o'tgan jami korxonalarning 93 foizini tashkil etdi. Bu 2002-yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,5 foiz ko'p demakdir. Tahlillar natijasida shu narsa ayon

²²⁴ FVDA, 1220-fond, 5-ro'yxat, 1-ish, 144-varaq.

²²⁵ FVDA 1220-fond, 4-ro'yxat, 33-ish, 18-26-varaqnap

²²⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalarga soliq solish tartibi to'g'risida" 159-son, 15.04.1998. // <https://lex.uz/docs/817615>

bo'ldiki, bunda kichik va o'rta biznes subyektlari salmog'ining o'sishi, asosan, sanoat, qishloq xo'jaligi va qurilish kabi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarida ko'zga tashlandi²²⁷.

Tadbirkorlik sohasini rivojlantirish yo'lida olib borilayotgan ishlar ma'lum natijalar berganiga qaramay, soha rivojiga to'siq bo'layotgan muammolar saqlanib qolaverdi. Ushbu muammolarni o'rganish, ularni bartaraf etish maqsadida viloyat hokimliklari tomonidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Farg'ona viloyati hokimining 2001-yil 18-iyundagi 144-F sonli "Ro'yxatdan o'tib ishlamayotgan kichik va o'rta biznes korxonalarining faoliyat ko'rsatmaslik sabablarini o'rganib chiqish to'g'risida"gi farmoyishi qabul qilindi. O'rganishlar natijasida 2001-yil 1-oktyabr holatiga Farg'ona viloyati bo'yicha umumiy 2930 ta kichik va o'rta biznes subyektlari, turli sabablarga ko'ra, faoliyat ko'rsatmayotgani aniqlangan (3.2.3-ilova)²²⁸. O'rganishlar natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, tadbirkorlik faoliyatini jadal yo'lga qo'yishda ko'plab muammolar qatorida soliq yukini og'irligi ham sabab bo'layotgani aniqlandi.

Soliq sohasida tadbirkorlarga imtiyozlarni kengaytirish va soliq yukini kamaytirish islohotlari davom ettirildi. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 25-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2004-yil byudjet parametrlari to'g'risida"gi 567-sonli qaroriga muvofiq esa, yuridik va jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tartibida bir qator o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu qarorga ko'ra, 2003-yildan boshlab yuridik shaxslar daromadiga solinadigan soliq stavkasi 20 foizdan 18 foizga tushirildi²²⁹. Shu o'rinda qayd etib o'tish kerak, 2004-yilga kelib, Farg'ona viloyatida yalpi ichki mahsulotdagi kichik va xususiy tadbirkorlik ulushi, 42,1 foizni tashkil etib, 2001-yilga solishtirganda 6,2 foizga ko'payganini ko'rsatadi. Viloyatda 2003-yilda yaratilgan yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi (79,8 foiz) hamda aholiga pullik xizmat ko'rsatish (57,7 foiz) sohalarida eng yuqori ko'rsatkichga erishgan. Ushbu sohada yaratilgan ish o'rinlar soni yildan-yilga ortib borishi natijasida aholi, ayniqsa yoshlar ish bilan ta'minlanib,

²²⁷ Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorlikни ривожлантиришдаги иштироки (1991-2019 йй.): Т.ф.ф.д... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 102.

²²⁸ FVDA, 1220-fond, 5-ro'xat, 43-ish, 36-38-varaqlar.

²²⁹ Янгиликлардан хабарингиз борми? // XXI аср, 2004. 15 январь.

muqim daromad manbaiga ega bo'la boshlagan. Bu boradagi Farg'ona viloyati ko'rsatkichlarini tahliliga ko'ra, 2001-yilda 39600 ta, 2002-yilda 42606 ta yangi ish o'rinlari tashkil etilgan bo'lsa, 2003-yil davomida kichik biznes subyektlarini yangitdan tashkil etish hisobiga 42637 yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lib, ushbu sohada mehnat qilayotganlar soni 654 ming kishiga yetgan²³⁰.

Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va soliq yukini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Kuzatilishicha, o'tgan davr mobaynida iqtisodiy islohotlar jarayonida O'zbekiston da soliq yuki darajasi yildan-yilga pasayib borgan. Agar 1995-yil 2-iyulda daromad solig'i 38 foiz, 1999-yil 33 foiz, 2002-yil 20 foiz va 2004-yil 18 foiz qilib belgilangan bo'lsa²³¹, 2009-yilga kelib tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan yagona soliq to'lovi 7 foizgacha tushirishga erishildi. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i esa 1 foizga kamaytirilib 9 foiz etib belgilandi²³². Natijada kichik biznesni va xususiy tadbirkorlikni mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi sezilarli darajada oshib bordi. Masalan, 1991-yilda xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1 foiz atrofida bo'lsa, 2010-yilga kelib bu ko'rsatgich 52 foizdan ortiqni tashkil qildi, ushbu sohada bandlik darajasi iqtisodiy tarmoqlarda band aholi umumiy sonining 49,7 foizidan 74,5 foizigacha ortdi. Aholi daromadlarining 47 foizidan ziyodi tadbirkorlik faoliyatidan tushgan daromadlar hissasiga to'g'ri keldi²³³.

2011-yilgi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini yanada rivojlantirish maqsadida ular uchun yagona soliq stavkasi 7 foizdan 6 foizgacha pasaytirildi. Bazaviy stavkaning pasaytirilishi Andijon viloyatidagi soliq to'lovchilarning ushbu toifasi uchun 2,5 mlrd so'mdan ortiq mablag'ni tejash imkonini berdi²³⁴. Soliq islohotlari natijasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining qonuniy ro'yxatdan o'tib faoliyat ko'rsatishi sezilarli darajada oshdi. Natijada, 2012-yilning birinchi yarmiga kelib ro'yxatga olingan tadbirkorlik subyektlari soni 38725 tani tashkil etdi. Bu davr

²³⁰ Ёрматова И. Кичик ва ўрта бизнес-иқтисодий тараққиёт асоси // Фарғона ҳақиқати, 2004. 18 октябрь.

²³¹ Янгиликлардан хабарингиз борми? // XXI аср, 2004. 15 январь.

²³² Солиқдаги ўзгаришлар // Андижоннома, 2010. 21 январь.

²³³ Эгамназаров И. Банклар – тadbirkorларнинг ишончли ҳамкори // Андижоннома, 2011. 14 сентябрь.

²³⁴ 2011 йил: солиқдаги янгиликлар // Андижоннома, 2011. 8 январь.

mobaynida shu yo‘nalishni rivojlantirish hisobiga 28900 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi²³⁵. Oxirgi 6 yil davomida yagona soliq to‘lovi 15 foizdan 6 foizga tushirilishiga qaramasdan, ushbu soliq turi bo‘yicha Andijon viloyati mahalliy byudjetiga tushumlar miqdori barqaror oshib bordi²³⁶. Buning asosiy sababi bo‘lib kichik biznes va tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotni yaratishdagi salmog‘i oshib borishi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 18-iyuldagi “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi²³⁷. Farmon qabul qilinishidan maqsad ortiqcha byurokratik g‘ovlarni bartaraf etish, zamon talablariga mos kelmaydigan litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini, statistik, moliyaviy va soliq hisobotlari shakllarini qisqartirish, ularni taqdim etish mexanizmini takomillashtirish hisobiga respublikada qulay ishbilarmonlik muhitini vujudga keltirish, biznes subyektlarini tashkil qilishni soddalashtirish va shunday subyektlarning yanada erkin faoliyat yuritishlarini ta‘minlash borasida izchil hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirish bo‘ldi.

Natijada, ruxsat berishga oid 80 ta tartib-tamoyil va 15 ta litsenziyalanadigan faoliyat turini bekor qilish belgilandi. Shu asosda litsenziyalanadigan faoliyat turlari bo‘yicha bunday xarakterdagi hujjatlarni olish uchun to‘lanadigan yig‘imlar miqdori kamida 2 barobarga kamaytirildi²³⁸.

Shuningdek, tadbirkorlarga amalda qulay sharoit yaratish maqsadida internet tarmog‘ida yagona veb-sayt yaratib, unga litsenziyalanadigan faoliyat turlari va ruxsat berish tartib-taomillari ro‘yxati, litsenziya va ruxsatnomalar olish uchun talab qilinadigan hujjatlar to‘g‘risida axborot, tegishli faoliyat turlarini amalga oshirish uchun litsenziya va ruxsatnomalar olgan tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risidagi doimo yangilab boriladigan ma‘lumotlarni joylashtirish belgilab

²³⁵ Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlik rivojlanayapti // Андижоннома, 2012. 14 июнь.

²³⁶ Маҳаллий бюджет ва солиқ сиёсатининг инсонпарварлик тамойили // Андижоннома, 2010. 21 сентябрь.

²³⁷ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-4453-son. 16.07.2012. (Elektron resurs) Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/2033432> murojaat qilingan sana: 26.06.2021 y.

²³⁸ Нуриддинов О. Имтиёзлар қўлами кенгаймоқда // Андижоннома, 2013. 19 июнь.

qo‘yildi²³⁹. Bu esa tadbirkorlarning sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va xabardorlik darajasini oshirishga xizmat qildi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan internet tarmog‘i orqali soliq to‘lovchilarga ko‘rsatilayotgan interaktiv xizmatlarni yanada takomillashtirish borasida olib borilgan ishlar, bunday xizmatlardan foydalanayotgan soliq to‘lovchilar sonining kundan-kunga ortib borishiga olib keldi. Natijada, 2012-yilning o‘zida tadbirkorlik subyektlarining 78 foizdan ko‘prog‘i soliq hisobotini elektron ko‘rinishda taqdim etishga o‘tdi²⁴⁰.

2015-yilning 1-iyulidan boshlab kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga oid barcha rejali tekshiruvlar to‘rt yil davomida faqat bir marotaba o‘tkazilishi belgilandi. Agarda biron-bir tadbirkorlik subyekti soliqlarni o‘z vaqtida to‘lamagan, uning bu harakati birinchi marotaba amalga oshirilgan, aybi aniqlanib, davlatga yetkazilgan zarar 30 kun davomida to‘liq qoplansa, amaldagi Jinoyat kodeksining 184-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilmaydigan bo‘ldi²⁴¹.

2017-yilga kelib tadbirkorlik subyektlarida tekshirishlar o‘tkazishga moratoriy²⁴² e‘lon qilindi. Buning natijasida keyingi to‘rt yilda mamlakatda tadbirkorlar soni ikki barodarga ko‘payib, 400 mingtaga yetdi²⁴³.

Farg‘ona viloyati Toshloq tumani “UzAvtoToys” xususiy korxonasi rahbari S. Zokirovning so‘zlariga ko‘ra, 2020-yilga kelib chet eldan import qilingan ishlab chiqarish texnikalarni olib kelib faoliyat boshlagan yoki davom ettirgan tadbirkorlar majburan NDS to‘lovchi sifatida ro‘yxatga olinadi. Bu esa yangi ish boshlagan yoshlar orasida soliq hisobotlari va ish yuritishda qiyinchiliklar tug‘dirgan²⁴⁴.

²³⁹ Нуриддинов О. Имтиёзлар кўлами кенгаймоқда // Андижоннома, 2013. 19 июнь.

²⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PF-4453-son. 16.07.2012. (Elektron resurs) Kirish rejimi: <https://lex.uz/docs/2033432> murojaat qilingan sana: 26.06.2021 y.

²⁴¹ Хабибидинов Х. Солиқ имтиёзлари ва преференциялари кичик бизнес ҳамда хусусий тadbirkorlik субъектлари ривожда рағбатлантирувчи омил бўлмоқда // Халқ сўзи, 2016. 12 ноябрь.

²⁴² Мораторий – мажбуриятларни бажаришни кечиктириш. Қаранг: Топилдиев В. Р. Фукаролик ҳукуқи. – Тошкент: “Университет”, 2014. – Б.6.

²⁴³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 29 декабрь. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – Б. 40.

²⁴⁴ Farg‘ona viloyati Toshloq tumanida joylashgan “UzAvtoToys” xususiy korxonasi rahbari Sobirjon Zokirov qilingan suhbat. Suhbat 21.04.2022 yilda yozib olingan.

2020-yil 8-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori qabul qilindi²⁴⁵. Qarorga ko‘ra, aholi o‘zini-o‘zi band qilishi va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun faqatgina soliq idorasini ogohlantirib qo‘yishning o‘zi kifoya bo‘ldi. Bunday faoliyat turi qarorga ilova tariqasida keltirilgan bo‘lib, jami 69 turdagi tadbirkorlik faoliyatini nazarda tutadi (3.2.4.-ilova)²⁴⁶. Aslida bungacha ham xalqimiz bunday faoliyat turi bilan shug‘ullanib kelgan. Hunarmandchilik, ustachilik, zargarlik, novvoylik, duradgorlik, sartaroshlik kabi kasb egalari shular jumlasidandir.

Mazkur muhim hujjat bilan sohada yangi tartiblar joriy etildi. Jumladan, o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar shug‘ullanishi mumkun bo‘lgan faoliyat (ishlar, xizmatlar) turlari ro‘yxati keltirildi. Mazkur faoliyat (xizmatlar, ishlar) turlari faqatgina 24 ta edi. Endilikda ularning soni 69 taga yetdi. Bu esa, norasmiy sektorda band bo‘lganlar sonini yanada kamayishiga olib keladi. Eng e‘tiborli jihati shundaki, avvalgi tartibga ko‘ra fuqaro vaqtinchalik mehnat guvohnomasini olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 4,5 barobori miqdorida to‘lovni amalga oshirishi kerak edi. Bu fuqarolarning e‘tiroziga sabab bo‘layotgan edi. Endilikda, qarorga muvofiq, o‘zini-o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tgan fuqaro o‘z faoliyatidan tushgan daromadi barcha soliqlardan ozod etildi, ixtiyoriy tarzda ijtimoiy soliqni 2020-yil uchun bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 50 foizini to‘laydi, bunda tadbirkor to‘lagan soliq summasi byudjetdan tashqari pensiya ta‘minotga yo‘naltirilgan bo‘lib, kelgusida tadbirkor pensiya bilan ta‘minlanadi. O‘zini-o‘zi band qilish yo‘li bilan ish boshlagan tadbirkor, 2021-yil 1-fevraldan boshlab BHM bir barobarida ixtiyoriy to‘lov amalga oshiradi. Ushbu mablag‘ to‘liqligicha Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan

²⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини-ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”. ПҚ-4742-сон. 08.06.2020. // Халқ сўзи, 2020. 9 июнь.

²⁴⁶ О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini-o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-4742-son. 08.06.2020. // <https://lex.uz/docs/4849607#4850687>.

kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun oʻrnatilgan pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi²⁴⁷.

2021-yil iyul oyiga kelib, Respublika boʻyicha oʻzini-oʻzi band qilgan shaxslar soni 852372 nafarni tashkil qildi, shundan 30 yoshgacha boʻlganlar ulushi 310148 nafarni tashkil etdi. Hududlar kesimida Samarqand, Andijon va Fargʻona viloyatlarida oʻzini-oʻzi band qilgan yoshlar boshqa hududlarga nisbatan koʻpchilikni tashkil qilmoqda (3.2.5.-ilova)²⁴⁸.

Yoshlar quyidagi yoʻnalishdagi tadbirkorlik faoliyatiga qiziqish bildirmoqdalar:

- maishiy xizmatlar (manikyur, uyda kir yuvish va dazmollash, kosmetolog, sartaroshlik, pedikyur, kalitlar yasash, poyabzal taʼmirlash va boshqalar) – 106 482 nafar;

- qishloq xoʻjaligi yoʻnalishi boʻyicha xizmatlar (yirik va mayda chorva mollarini boqish, parvarishga yordam berish va boshqalar) – 71 694 nafar;

- sanoat yoʻnalishi boʻyicha xizmatlar (yogʻoch oʻymakorligi, plastik romlar va boshqalar) 51 575 nafar;

- ijtimoiy xizmatlar (oʻy xoʻjaligi ishlarini bajarish, uyda bolalarga taʼlim berish va boshqalar) – 44 273 nafar;

- xalq isteʼmoli mollari ishlab chiqarish va xizmatlar koʻrsatish (nonvoylik, salat tayyorlash va boshqalar) – 26 639 nafar;

- AKT sohasida (ijtimoiy tarmoqlarda reklamalar tayyorlash, matn tayyorlash va boshqalar) 9 485 nafar yosh roʻyxatdan oʻtgan²⁴⁹.

Soliq organlarida xabar berish tartibida oʻzini-oʻzi band qilgan shaxs sifatida roʻyxatdan oʻtish mutlaqo bepul. Bu jarayonni soliq (“Soliq”) mobil ilovasi (“Oʻzini-oʻzi band qilish” boʻlimi) yoki my.soliq.uz portalida soliq toʻlovchining shaxsiy kabinet orqali masofadan amalga oshirish mumkin. Roʻyxatdan oʻtish

²⁴⁷ Мансуров З. Ўзини ўзи банд қилиш афзалликлари // Наманган ҳақиқати, 2021. 9 июнь.

²⁴⁸ Yoshlar oʻzini-oʻzi band qilishni tanlamoqda. Davlat soliq qoʻmitasining 2021 yil arxiv materiallari. Kirish rejimi: solik.uz.

²⁴⁹ Yoshlar oʻzini-oʻzi band qilishni tanlamoqda. Davlat soliq qoʻmitasining 2021 yil arxiv materiallari. Kirish rejimi: solik.uz.

QR-kodli²⁵⁰ ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi. Jismoniy shaxsning barcha ma'lumotlari soliq to'lovchilarning yagona reyestriga kiritiladi.

Xulosa o'rnida, O'zbekiston Respublikasi mustaqillika erishgandan so'ng, tadbirkorlik faoliyatiga keng yo'l ochildi. Bunda davlat tomonidan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi barobarida soliq imtiyozlari berib borildi. Xususan, amalda bo'lgan soliq solish tartibiga doimiy ravishda o'zgartirishlar kiritish orqali tadbirkorlik subyektlariga yengilliklar berildi. Natijada, mustaqillikning ilk yillarida tadbirkorlikni mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatgich 50 foizdan ortdi va so'ngi yillarga kelib 56,5 foizga yetdi. Bu sohada ish bilan band bo'lganlar aholining 78 foizi mehnat qilmoqda²⁵¹. Qolaversa, respublikaning yarmidan ko'pini tashkil qiluvchi yoshlar masalasida, ularni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishida soliq imtiyozlari birdek qo'llanilib kelindi. Ayniqsa so'nggi 2017-2021-yillarda bu boradagi davlat siyosatida mutlaqo yangi tizim joriy etilib, biznes muhitini yanada yaxshilash bo'yicha muhim masalalar oldinga surildi. Bunga birgina, 2020-2021-yillarda soliq siyosati amlga oshirilgan islohotlar guvoh bo'la oladi. Masalan, 2020-yil 1-yanvarda amalda bo'lgan yangi Soliq kodeksiga muvofiq soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Birinchi marta tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismi qaytarildi va tadbirkorlarning 3,4 trln. so'm mablag'i o'z ixtiyorida qoldi. 2021-yildan boshlab tadbirkorlarning 25 yoshdan oshmagan ishchi-xodimlari uchun hisoblangan ijtimoiy soliq summasini byudjetdan to'liq qaytarib berish tartibi joriy qilindi²⁵². Natijada 2021-yilning ikkinchi yarmida 170 mlrd. so'm, kelgusi yilda esa 500 mlrd. so'm mablag' 240 ming nafar yoshni ishga qabul qilgan tadbirkorlar

²⁵⁰ QR-kod (ingl. Quick Response code — tezkor aniqlash kodi; qis. QR code) — matrixlangan shtrix kod (yoki ikki o'lchamli shtrix kod), dastlab Yaponiyada avtomobil sanoatida qo'llanilgan. Qo'shimcha ma'lumot olish uchun: <https://ru.wikipedia.org/wiki/QR>

²⁵¹ Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга қўтарамиз. — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2018. — Б.7.

²⁵² Мирзиёев Ш. М. Миллий тикланишдан — миллий юксалиш сари. 4-жилд. — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. — Б. 24.

ixtiyorida qoladi²⁵³. Qolaversa, so‘nggi 4 yilda 30 yoshgacha bo‘lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko‘payib, ular 500 mingdan oshganini e‘tirof etish kerak²⁵⁴.

3.3-§. Yoshlar tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda bank kreditlarining ahamiyati

O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki yillaridanoq qonunchilik va huquqiy bazani rivojlantirish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, kichik biznes subyektlariga xizmat ko‘rsatuvchi bozor infratuzilmasini rivojlantirishga katta e‘tibor berildi.

Bozor iqtisodiyoti tadbirkorlar faoliyatiga asoslangan iqtisodiyotdir. Tadbirkorlik esa keng ma’noda erkin va qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyat hisoblanadi. Tadbirkor – uddaburon, tashabbuskor, ishning sir-asrorlarini yaxshi biladigan, xatarli ishga tayyor va yuqori iqtisodiy madaniyatli, o‘zining hamda o‘zgalarning manfaatini ko‘zlab, qonuniy yo‘l bilan daromad topadigan kishidir. Tadbirkor faoliyatiga bu qirralarni harakatga keltirish va milliy iqtisod asosini yaratishda ularning jismoniy va aqliy qobiliyatlari hamda hududlarning demografik salohiyati bilan birga moliyaviy ahamiyati g‘oyat katta. Binobarin, tadbirkorlar faoliyatining moliyaviy asosini banklar tashkil etadi. Banklar esa qadimdan jamiyat taraqqiyotining jamg‘armasi hisoblangan.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining jadal rivojlantirish maqsadida bir qator iqtisodiy islohotlar amalga oshirilishi bilan birga, banklar faoliyatini chuqur isloh qilish ishlari ham amalga oshirildi. 1995-yilda “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi²⁵⁵. Ushbu qonun asosida Markaziy bank va tijorat banklarining maqomi, vazifalari, vakolatlari aniq belgilab qo‘yildi. Shu bilan birga banklar faoliyatining xuquqiy

²⁵³ Мирзиёев Ш. М. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз. // Халқ сўзи, 2021. 1 июль.

²⁵⁴ Мирзиёев Ш. М. Азму шижоатли ёшларимиз билан биргаликда янги Ўзбекистонни албатта бунёд этамиз. // Халқ сўзи, 2021. 1 июль.

²⁵⁵ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни. “Ўзбекистон Республикасининг Марказий банки тўғрисида”. 21.12.1995. // Халқ сўзи, 1995. 21 декабрь

bazasi yaratildi. Bu esa barqaror pul muomalasini ta'minlab, bank tizimi faoliyatiga tadbirkorlarning ishonchini oshirdi.

Bundan tashqari tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 1993-yil 21-iyulda jamg'arma tashkil etildi. 1995-yil 26-iyulda jamg'arma Biznes-fond nomi bilan qayta tashkil etildi²⁵⁶.

Natijada, 1998-2002-yillarda Namangan viloyatida kichik va o'rta biznes subyektlariga ajratilgan jami kreditlar miqdori 4399,3 mln. so'm dan 8228,8 mln. so'mga ko'paydi yoki shu yillarda kredit miqdori qariyb 187,1 foizga o'sdi. Viloyatdagi 2002-yilda tadbirkorlarga ajratilgan jami 8228,8 mln. so'm kreditning 7241,7 mln. so'mi yoki 88,0 foizi banklarning o'z mablag'lari hisobidan bo'lsa, qolgan qismi esa boshqa jamg'armalar mablag'lari hisobiga to'g'ri keldi. Viloyatdagi tadbirkorlarga kredit berish miqdori va uning o'sish sur'ati Pop, Kosonsoy va Uchqo'rg'on tumanlarida yuqoriligi qayd etilgan bo'lsa, Norin, Mingbuloq, Chust, Uychi va To'raqo'rg'on tumanlarida banklarning mijozga kredit berishning o'sishi viloyat ko'rsatgichidan (181,2 foiz) ancha past bo'lib, 124,3 – 172,5 foizni tashkil etdi. Shunisi e'tiborliki, jami ajratilgan kreditlar miqdorining 58,3 foizi viloyat markazi Namangan shahrida joylashgan banklar hissasiga to'g'ri kelib, viloyatning tuman banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilgan kredit miqdori bilan taqqoslaganda katta tafovut qildi. Jumladan, viloyat bo'yicha jami ajratilgan kreditlarga Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on tumanlarining umumiy hissasiga atigi 4,2 foizni tashkil etdi, xolos. Vaholanki, viloyatning iqtisodiy jihatdan bir muncha rivojlangan To'raqo'rg'on, Chust, Kosonsoy, Pop tumanlarining har birida bu ko'rsatgich 5,2 foizdan 7,3 foizgacha qayd etilgan. Bu esa viloyat ko'lamida Mingbuloq, Norin va Yangiqo'rg'on tumanlarida kichik biznes va tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga kam e'tibor berilganidan dalolat beradi²⁵⁷. Oqibatda tadbirkorlikni moliyalash tizimida bir qator muammolar yuzaga keldi. Xususan, banklarni tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan, tadbirkor o'ziga qulay bo'lgan vaqtda

²⁵⁶ O'z MA, M.67-fond, 1-ro'yxat, 41-ish, 94-varaq.

²⁵⁷ Мавланов А.М. Тadbirkorlikni rivojlantirishda bank faoliyatining mintaqaviy xususiyatlari / Ўзбекистон география жамияти ахборотномаси , 23-жилд, Тошкент-2003 Б.173

bankga murojaat qilish o'rniga, bank uchun qulay bo'lgan haftaning faqat bir kunida xizmat ko'rsatilgan²⁵⁸. Banklar va tadbirkorlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda banklarning tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish tizimini yanada yaxshilash maqsadida davlat tomonidan islohotlarni amalga oshirishga kirishildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi PQ 1987-sonli "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 27-maydagi 232-sonli "Kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoyishi va 1999-yil 10-iyundagi 296-sonli "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi ma'ruzasida keltirilgan asosiy qoidalar amalga oshirish to'g'risida"gi qarori, shuningdek, 1999-yil 15-iyundagi 273 F-sonli buyrug'i asosida 1999-yil 20-iyulda Markaziy bankning "Tijorat banklari tomonidan byudjetdan tashqari jamg'armalarning kredit liniyalari orqali yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlash tartibi" ishlab chiqildi. Tartibga ko'ra, tadbirkorlik subyektlari kredit mablag'larini olish uchun quyidagi hujjatlarni bankka taqdim qilishlari lozim edi. Kredit mablag'ini olish uchun ariza, pul oqimini tahlil qilgan holatdagi biznes-reja va oxirgi hisobot davri uchun davlat soliq xizmati organlarining mahalliy (mintaqaviy) organi tomonidan tasdiqlangan balans, debitorlik va kreditorlik qarzdorligi to'g'risidagi guvohnoma, shuningdek 90 kundan ortiq qarzdorlik uchun hisob-kitoblar, moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot taqdim qilinishi lozim. Bundan tashqari, bank jamg'arma tavsiyasini ham talab qilish huquqiga ega ekanligi ko'rsatib o'tildi²⁵⁹.

Jamg'arma mablag'lari hisobiga ajratilgan kredit mablag'larini maqsadli sarflanishi, ularni tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun sarf qilinishini nazorat qilib borish uchun bank va jamg'arma hamkorlikda

²⁵⁸ FVDA, 1220-fond, 3-ro'yxat, 30-ish, 27-28-varaqlar.

²⁵⁹ O'z MA, M-67 fond, 1-ro'yxat, 231-ish, 107-varaq.

monitoring guruhi tashkil qilingan holda nazorat-tahlil olib borilishi belgilandi. Shunga qaramay, joylarda ko'plab xato va kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Masalan, birgina Farg'ona viloyatini tahlil qiladigan bo'lsa, Markaziy apparat tomonidan berilgan topshiriqqa ko'ra, har chorakda kreditorlar tomonidan faoliyatga doir axborot taqdim qilish holatlari qoniqarsiz holatda bo'lib, hisobotlar o'z holiga tashlab qo'yilgan. Markaziy apparat tomonidan banklarga 2000-yil 6-oktyabrda 10/198-729 raqam bilan yo'llangan xatda, kreditorlar bilan tuzilgan shartnomaga asosan VI chorak monitoringini o'tkazish topshirilgan. Ammo ushbu xat e'tiborsiz qoldirilgan²⁶⁰.

Biznes-fondning Farg'ona viloyati filiali kredit taqdim etishni ro'yxatga olish daftarini yuritish holati juda chalkash edi. Misol uchun S. Isroilova, ro'yxat orasiga oldingi sana bilan yozilgan holatda kredit ajratilgan. Bundan tashqari T. Mamadaliyev, G'. Mamadjanov, R. Raxmanovlarga ariza bergan sanadan 6-9 oy o'tib kredit ajratilgan bo'lsa, ulardan keyin ro'yxatdan o'tgan, M. Xoshimov, T. Salohitdinov, A. Jo'raboyevlarga ariza bergan kunning o'zidayoq kredit mablag'lari taqdim etilgan²⁶¹.

Biznes-fondning Namangan viloyati filiali ishchi hodimlari tomonidan tadbirkorlarga kredit mablag'lari ajratishda jinoyat alomatlari aniqlangan. Xususan, Biznes-fondning kredit bo'lim boshlig'i, T.Xamdamov bir vaqtning o'zida Uchqo'rg'on tumanida joylashgan "Saloy-ota" xususiy firmasi bosh hisobchisi lavozimida ishlab kelgan. Faoliyati davomida Fondning kredit mablag'larini ushbu firmaga ajratish yo'li orqali maqsadsiz sarflab yuborgan. Namangan shahar Xo'jalik sudining №1236/99 ajrim xatida aybi to'liq isbotlanganiga qaramay, Fond rahbari X.Mamajanova T.Xamdamovni aybini yashirib, fondga ishlashini ta'minlab kelgan²⁶².

Bank faoliyatida ham bir qator kamchiliklar kuzatilgan, xususan, jamg'armalar tomonidan ajratilgan kredit liniyalari banklar tomonidan maqsadsiz sarflangan yoki tadbirkorlarga berilmasdan bank hisobida qoldirilgan. Masalan,

²⁶⁰ O'z MA, M.67-fond, 1-ro'yxat, 272-ish, 224 varaq.

²⁶¹ O'z MA, M.67-fond, 1-ro'yxat, 272-ish, 225-varaq.

²⁶² O'z MA, M.67-fond, 1-ro'yxat, 272-ish, 74-80-varaqlar.

2000-yilning ikkinchi yarim yillik tahlilida Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridagi “Paxta-bank” va “Tadbirkorbank” kredit mablag‘larini tadbirkorlarga to‘liq ajratilmagan holatlari kuzatilgan. Oqibatda, rejadagi 50 mln. so‘mlik 26 tadbirkorlik loyihasi moliyalashtirilmay, faoliyati to‘xtatilgan²⁶³. Bundan tashqari bank rahbarlari tomonidan Adliya vazirligining 2000-yil 2-martdagi 505-sonli “Tijorat banklarining kredit siyosatiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomning kreditlarni garov bilan ta‘minlash bandidi qo‘pol ravishda buzilish holatlari tez-tez uchrab turgan.

Masalan, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani hokimining 1999-yil 25-iyuldagi Qaroriga asosan “Yangi asr” innovatsion o‘quv markazining faoliyatini to‘xtatilgan bo‘lishiga qaramay va tegishli tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilmasdan, savdo-sotiqni rivojlantirish uchun 2000-yilda 2 marotaba 6 mln. 256 ming so‘mdan kredit mablag‘lari ajratilgan. Xuddi shunday holat Qo‘qon shahrida ham kuzatilgan²⁶⁴. Bank kreditlarini noto‘g‘ri taqsimlanishi, kredit summasini vaqtida qaytarilmaslik holatlari va boshqa shunga o‘xshash muammolar 2000-yilda “Biznes-fond” liniyasi bo‘yicha 385 mln. so‘mlik, 236 ta, “Aholini ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish” liniyasi bo‘yicha 266 mln. so‘mlik 115 ta, “Dehqon-fermer ho‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash” liniyasi bo‘yicha 198 mln. so‘mlik 56 ta tadbirkorlik loyihalarini moliyalashtirishsiz qolishiga sabab bo‘ldi²⁶⁵.

Yuqorida qayd etilgan holatlar tadbirkorlik subyektlarini kredit mablag‘larini olishda muammolar mavjudligini ko‘rsatadi. Davlat tomonidan banklarni tadbirkorlarga kredit taqdim etishdagi muammolariga yechim bo‘la oladigan islohatlarni davom ettirildi.

2001-yil 10-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo‘jaliklarini mablag‘ bilan ta‘minlash, moddiy-texnik ta‘minlash, ularga bojxona imtiyozlari berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi²⁶⁶. Qarorga ko‘ra, davlat mulkini boshqarish va tadbirkorlikni

²⁶³ O‘z MA, M.67-fond, 1-ro‘yxat, 272-ish, 200-206-varaqlar.

²⁶⁴ O‘z MA, M.67-fond, 1-ro‘yxat, 272-ish, 201-varaq.

²⁶⁵ O‘z MA, M.67-fond, 1-ro‘yxat, 272-ish, 200-varaq.

²⁶⁶ FVDA, 1220-fond, 5-ro‘yxat, 17-ish, 177-varaq.

qo'llab-quvvatlash viloyat boshqarmasi, tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi, dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi, "Biznes-fond" bo'limlari va tijorat banklariga tadbirkorlarni dastlabki sarmoyani shakllantirishida har tomonlama qo'llab-quvvatlashi belgilandi.

Xususan, "Biznes-fond"ning davlat mulkini xususiylashtirishdan tushgan mablag'lari hisobiga shakllantiriladigan kredit resurslarining kamida 50 foizi, shuningdek, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kredit resurslarining kamida 50 foizi har yili mikrofirmalar va kichik korxonalar, dehqon (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan) va fermer xo'jaliklarining dastlabki (boshlang'ich) sarmoyasini shakllantirish uchun tijorat banklarida maqsadli kredit liniyalari ochishga yo'naltirilishi belgilandi. Kreditlar 3 yilgacha 12 oy imtiyozli davri bilan taqdim qilindi, foiz stavkasi esa Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining oltidan bir qismini tashkil etdi²⁶⁷.

Ushbu kreditlarni ajratishni e'tiborli jihati shundaki, tadbirkorlik faoliyatini dastlabki ro'yxatdan o'tkazishda kerakli bo'lgan boshlang'ich sarmoyani ta'minlab, tadbirkorni o'zida mavjud sarmoyasini ustav kapitali uchun emas, balki o'z faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratdi.

Tadbirkorlik sohasini davlat tomonidan isloh qilinishi, uni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish yo'lida islohotlar davom ettirildi. Xususan, 2000-yilga kelib, jahon tajribasi asosida, tadbirkorlik faoliyatini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida mikrokredit tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi²⁶⁸. Bugungi kunga qadar respublikamizda mikrokreditlash tizimi – xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy moliyaviy ko'mak sifatida keng foydalanib kelinmoqda.

Tadbirkorlik faoliyatini mikrokreditlash tizimini isloh qilish va takomillashtirish maqsadida bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi²⁶⁹. Ushbu hujjatlar asosida kichik biznes, xususiy tadbirkorlik hamda fermerlikni

²⁶⁷ FVDA, 1220-fond, 5-ro'yxat, 17-ish, 178-varaq.

²⁶⁸ Болтабоева М. М. Ўзбекистон Республикаси хотин-қизларининг кичик бизнес ва тadbirkorlikni rivojlantirishdagi ishtiroki (1991-2019 йй.): Т.ф.ф.д ... дисс. – Андижон, 2019. – Б. 83.

²⁶⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Mikrokreditbank aktsiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to'g'risida". PF-3750-son, 06.05.2006; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Mikrokreditbank" aktsiyadorlik-tijorat bankining tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida". PF-4051-son, 10.11.2008. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". PF-4232-son, 28.07.2010.

rivojlantirish, yakka tartibdagi mehnat faoliyatini, oilaviy biznes va kasanachilikni taraqqiy ettirish yo'li bilan yangi ish o'rinlarini yaratishda xotin-qizlar va yoshlarga mikromoliyaviy yordam ko'rsatish ustuvorlik kasb etdi. Bu kabi islohotlar, yoshlarni tadbirkorlar orasida ulushini oshirdi hamda ularni moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Tahlillarga ko'ra, tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga imtiyozli kreditlar berish hajmi yildan-yilga ortib bordi. Birgina Andijon viloyatida 1997-yilda tadbirkorlarga 221,6 mln. so'm kredit berilgan bo'lsa, 2001-yilga kelib bu ko'rsatkich 17483 mln. so'mga yetdi yoki 79-martaga ko'paydi²⁷⁰.

2003-yilga kelib, respublikada 35 ta tijorat banklari va ularning 800dan ortiq filiallarining faoliyati yo'lga qo'yildi. Banklar faoliyatini Markaziy bank nazorat qilib bordi. O'sha davrdagi islohotlarning e'tiborli jihati shundaki, tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan kredit operatsiyalarini o'tkazishni tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar bekor qilindi. Tadbirkorlik faoliyati, kichik va o'rta biznes korxonalariga mikro kreditlar ajratishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilindi. Natijada, mikro kreditlarning 50 foizga bo'lgan miqdorini naqd pul berish hamda bank bilan doimiy aloqada va yaxshi kredit tarixiga ega tadbirkorlarga esa faqatgina ariza va biznes reja asosida mikro kreditlar berish tartibi joriy etildi²⁷¹.

Barcha davrlarda mehnat bozorida yoshlarni ish bilan ta'minlashga alohida urg'u berilib, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yoshlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, uy mehnati hamda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali barqaror daromad topishga ko'maklashib kelingan. Bu borada davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan tizimli choralar ko'rilib, muayyan ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ushbu maqsadda O'zbekiston Respublikasi "Kamolot" YOIH va bir qator dahldor tashkilotlar tomonidan turli xil loyihalar ishlab chiqildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 28-iyuldagi "Ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni talablaridan

²⁷⁰ Andijon viloyatining 1991-2001 yillarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishi hamda iqtisodiy islohotlarni boriishi haqida // Andijon nomoma, 2002. 15 iyun.

²⁷¹ Mavlalov A. M. Tadbirkorlikni rivojlantirishda bank faoliyatining mintaqaviy xususiyatlari // O'zbekiston geografiya jamiyati axborotnomasi. 23-jild. – Toshkent, 2003. – B.173.

kelib chiqib, ta'lim muassasalarini bitirgan yoshlarni ish bilan ta'minlash, yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi yoshlar va xotin-qizlar uchun bank xizmatlaridan yanada kengroq foydalanishlariga imkon berdi.

Xususan, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarining tadbirkorlik sohasiga keng jalb qilish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va tijorat banklaridan imtiyozli mikrokreditlarni olishga ko'maklashish maqsadida "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor", "Yosh tadbirkor – kelajak poydevori" hamda "Mening biznes g'oyam" loyihalari tashkil etildi²⁷².

Ushbu loyihalar doirasida 2013-yilgacha 7427 nafar yoshlarga 28 mlrd. so'mdan ortiq imtiyozli kreditlar olishga ko'maklashildi va 30 mingdan ortiq yoshlar doimiy ish bilan ta'minlandi²⁷³. Buning natijasida tadbirkorlik sohasida yoshlarning hissasi 13 foizga oshdi²⁷⁴.

Shuningdek, 2013-yilda "Tijorat banklari tomonidan kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi Nizom ishlab chiqildi²⁷⁵. Nizomga ko'ra, o'quvchi kollejni bitirgan yildan boshlab, dastlabki uch yilda tadbirkorlik faoliyatini boshlash va rivojlantirish maqsadida 6-12 oyli imtiyozli davr bilan mikrokredit olishlari mumkin bo'ldi. 2013-yilning yanvar-iyul oylarida yosh tadbirkor, hunarmand va fermerlarga ajratilgan kreditlarning umumiy miqdori 231,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shundan, Andijon viloyati yoshlariga 14,8 mlrd. so'm, Namangan viloyatiga 15,1 mlrd. so'm va Farg'ona viloyatiga 19,9 mlrd. so'm kreditlar ajratildi (3.3.1.-ilova)²⁷⁶. Bundan tashqari, 2013-yil oxiriga kelib yosh avlodni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan tadbirlar 13 foizga ko'paydi, undagi yoshlar soni esa 20,5 foizga ortdi²⁷⁷.

²⁷² O'z MA, M.13- fond, 2-ro'yxat, 363-ish, 143-varaq.

²⁷³ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 363-ish, 143-varaq.

²⁷⁴ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 356-ish, 66-varaq.

²⁷⁵ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 390-ish, 174-varaq.

²⁷⁶ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 390-ish, 182-varaq.

²⁷⁷ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 356-ish, 66-varaq.

Shu o'rinda qayd etish joizki, 2013-yilning o'zida "Mening biznes g'oyam", "Yosh tadbirkor – kelajak poydevori", "Yosh tadbirkor – yurtga madadkor" va boshqa turli loyihalarga ariza bilan qatnashish istagini bildirgan yoshlar soni 54,3 mingdan ortiqni tashkil etgan bo'lib, saralash bosqichidan o'tganlar soni 205 nafarni tashkil etgan xolos. Loyihaning Respublika bosqichidan o'tgan 72 nafar yoshlarga o'z tadbirkorligini boshlash uchun 208 mln. so'm kredit mablag'lari taqdim etilgan. Bundan ko'rish mumkinki, bank kreditlarini olish va o'z biznesi boshlash istagida bo'lgan yoshlar soni ko'pchilikni tashkil etadi, ammo loyihalarda g'oliblar soni chegaralangani va kredit taqdim etish shartlari qiyinligi tufayli kredit olib o'z tadbirkorligini boshlagan yoshlar soni ariza berganlarning 1 foizini ham tashkil etmagan²⁷⁸. Qolaversa, 121 nafar yosh tadbirkorlarga 1,1 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilgan. Ushbu mablag' miqdori yildan yilga ortib borganiga qaramay, kredit taqdim etilgan yosh tadbirkorlar sonni yil sayin kamayib bordi.

Masalan, 2008-yilda 9348 nafar yosh tadbirkorga 44,6 mlrd. so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2014-yilga kelib 1921 nafar yosh tadbirkorga 15,9 mlrd. so'm miqdorida kredit taqdim etilgan. Shunga qaramay, mavjud qiyinchiliklarni sabot bilan yengib o'tib, o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ya olgan yoshlardan biri, namanganlik Islombek Ilhom o'g'li Qutfiddinovdir²⁷⁹.

Ko'plab loyihalarda doimiy faol qatnashib kelgan va o'z tadbirkorligini yo'lga qo'ygan I. Qutfiddinov, 2012-yilda o'tkazilgan "Tashabbus-2012" ko'rik tanlovida "Eng yaxshi yosh tadbirkor" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi hamda BMT Taraqqiyot dasturining "O'zbekiston biznesi forumi" loyihasi sertifikatini topshirildi. U shu yili BMTning "Taraqqiyot dasturi" doirasida Turkiya Respublikasida biznes sirlarini o'rganib, malakasini oshirib qaytdi. Bundan tashqari, I. Qutfiddinov, 2012-yilda "Vatan taraqqiyotida mening xissam" ko'rik tanlovi g'olibi bo'lib, "Yilning eng yosh tadbirkori" - deb e'tirof etildi²⁸⁰. I. Qutfiddinov mehnat faoliyatini Namangan shahridagi "Vodiy yog'och savdo"

²⁷⁸ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 483-ish, 273-varaq.

²⁷⁹ Namangan shahri Davlatobod tumani "Imron teks group" kompaniyasi rahbari Islombek Qutfiddinov bilan yozib olingan intervyu. Intervyu 27.12.2021 yilda yozib olingan.

²⁸⁰ O'z MA, M.13-fond, 2-ro'yxat, 367-ish, 60-varaq.

xususiy korxonasi direktori o‘rinbosari sifatida boshlagan. 2015-yilda “Imron Textile Group” xususiy korxonasiga asos soldi. 100 kishi bilan ish boshlagan korxona o‘tgan (2015-2021 yy.) davr mobaynida Yevropa davlatlariga trikotaj mahsulotlarni eksport qildi. Yillik aylanmasi 300 ming AQSH dollaridan boshlab 1,1 mln. AQSH dollarigacha yetdi. Xozirgi kunda korxonaning ishchi xodimlari soni 500 nafardan ortiq bo‘lib o‘rtacha oylik maoshi 5-6 mln so‘mdan to‘g‘ri keladi.

I. Qutfiddinov xususiy biznesdan tashqari davlat ishlarida ham faollik ko‘rsatmoqda. Xususan, u 2018-yil 1-avgustdan “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi Namangan shahar bo‘limi rahbari lavozimida ishladi. “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi ijrochi direktori X.Sattarovning 2020-yil 2-oktyabrdagi buyrug‘i bilan I. Qutfiddinov fondning Namangan viloyati bo‘limi rahbari etib tayinlandi²⁸¹. Hozirgi kunda I. Qutfiddinov o‘z tajribasi asosida namanganlik yoshlarni tadbirkorlikka qiziqtirib, sohaga oid maslahatlar va amaliy ko‘mak berib kelmoqda. Uning “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi Namangan viloyati bo‘limidagi ikki yillik ish faoliyati davrida 152,7 mlrd. so‘mlik 525 ta loyiha moliyalashtirilib, 3,5 mingta yangi ish o‘rni yaratildi²⁸².

2013-yilda Andijon viloyatidan ham “Mening biznes g‘oyam” tanloviga ariza bergan yoshlarning 6 nafari Respublika bosqichida g‘olib bo‘ldi. Ularning biznes loyihalari “Agrobank” aksionerlik tijorat banki (ATB), “Mikrokreditbank” Ochiq aksionerlik tijorat banki va “Ipotekabank” ATBlar tomonidan moliyalashtirildi²⁸³.

“Mening biznes g‘oyam” loyihasining ishtirokchilari yildan-yilga ortib bordi, 2014-yilda ariza berganlar soni 135378 nafarni tashkil etdi, loyiha doirasida 58 ming yoshlarga respublikaning barcha viloyatlarida, jumladan, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida o‘quv seminarlar tashkil etildi. Ushbu o‘quv seminarlarda “biznes tartibga soluvchi me‘yoriy-xuquqiy xujjatlar”, “kichik

²⁸¹ В Намангане назначен руководитель фонда “Yoshlar – kelajagimiz” (internet resurs) Kirish rejimi: uza.uz murojaat qilingan sana: 17.05.2021

²⁸² O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar – kelajagimiz jamg‘armasi joriy arxivi 2018-2020 yil ma’lumotlari 3-06 jild, 2-varaq.

²⁸³ O‘zMA M-13 fond, 2-ro‘yxat, 391-ish, 46-varaq

biznesning yuridik maqomini tanlash”, “tijorat banklarining kredit siyosati” hamda boshqa tadbirkorlikka oid mavzularda trening mashgʻulotlar oʻtkazildi. 2014-yil sarhisobiga koʻra, tanlovlarda jami moliyalashtirilgan yoshlarning biznes loyihalari 381 tani tashkil etdi²⁸⁴. Minglab arizalar va biznes loyihalarning atigi 381 tasi moliyalashtirilishi, albatta achinarli. Bunga esa, banklarinning ushbu sohaga kam eʼtibor bergani sabab boʻldi. Masalan, Vazirlar Mahkamasida tashkil etilgan “Yoshlar siyosatini amalga oshirish monitoring guruhi”ning Markaziy bankka yoshlarga ajratilayotgan kreditlar va unga oid takliflar berish topshirigʻi bajarilmay, eʼtiborsiz qoldirilgani va bu haqda Markaziy bank tomonidan monitoring guruhiga yoshlar tadbirkorligi, hunarmandchilik va fermerlik faoliyatini kreditlashga oid oxirgi 5 yillik tanqidiy-tahliliy maʼlumotlar va istiqbolli takliflar taqdim etilmagan²⁸⁵.

Oʻtgan 1991-2018-yillar davomida banklarning yoshlar tadbirkorligiga oid kreditlar berishi tartibga solinmagan va toʻgʻridan-toʻgʻri kredit taqdim etilmagan. Taqdim etilgan kreditlar faqatgina yilda bir marta tashkil etiladigan loyihalarda gʻolib boʻlgan, son jihatdan chegaralangan yoshlarga taqdim etilgan. Birgina 2014-yilning oʻzida Andijon viloyatidan ushbu tanlovda 4905 nafar ishtirokchi qatnashgan boʻlsa, shundan 190 nafarigina imtiyozli kredit olishga erishgan²⁸⁶. Tadbirkorlikni moliyalashtirishdagi qiyinchiliklar oqibatida koʻplab yoshlar oʻz biznes rejalarini bank kreditlari orqali boshlashdan chegaralangan. Bu esa yoshlarni tadbirkorlik boshlamay turib, ushbu sohadan ketishiga olib kelgan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda va bank kreditlarini olishni toʻgʻridan-toʻgʻri amalga oshirish maqsadida, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat Dasturi toʻgʻrisida”gi 2018-yil 27-iyundagi PF-5466-son Farmoni eʼlon qilindi²⁸⁷. Farmonga muvofiq, “Yoshlar – kelajagimiz” jamgʻarmasi tomonidan yoshlarning biznes tashabbuslari, startaplari, gʻoyalari va loyihalarini amalga oshirish uchun tijorat banklari orqali yillik 7 foiz stavka bilan imtiyozli kredit va mol-mulkni lizingga berish amaliyoti tatbiq etildi. Farmonning eʼtiborli

²⁸⁴ ЎзМА М-13 фонд, 2-роʻyxat, 393-ish, 36-37-varaq.

²⁸⁵ Оʻз МА, М.13-фонд, 2-роʻyxat, 390-ish, 82-varaq.

²⁸⁶ Оʻз МА, М.13-фонд, 2-роʻyxat, 489-ish, 59-varaq.

²⁸⁷ “Yoshlar – kelajagimiz” Давлат Дастури // Халқ сўзи, 2018. 28 июнь.

jihati shundaki, yosh tadbirkorlarning 2 mlrd.gacha bo'lgan biznes loyihalari jamg'arma qoshida tuzilgan maxsus komissiya tavsiyasiga asosan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2 mlrd. so'mdan yuqori bo'lgan biznes tashabbuslari, startaplari, g'oyalari va loyihalarini moliyalashtirish ularning biznes-rejalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Loyiha boshqaruvi milliy agentligi bilan kelishilgandan so'ng amalga oshirilishi belgilandi. Bu esa yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirishni osonlashtirdi. Natijada Respublikaning barcha hududlarida yosh tadbirkorlar soni keskin ko'paydi²⁸⁸.

Masalan, jamg'arma tomonida 2018-2019-yillar mobaynida yosh tadbirkorlarning 7690 ta biznes loyihalariga jami 1 trln. 614 mlrd. so'm miqdorida imtiyozli kredit mablag'lari ajratish orqali 39577 ta yangi ish o'rni yaratilishiga erishildi²⁸⁹. Xususan, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va qishloq xo'jaligi sohalaridagi tadbirkorlik loyihalari viloyatlar kesimida quyidagicha amalga oshirildi:

Andijon viloyatida 148,9 mlrd. so'mlik 777 ta loyiha moliyalashtirilib, 4334 ta yangi ish o'rni;

Namangan viloyatida 131,6 mlrd. so'mlik 444 ta loyiha moliyalashtirilib, 2587 ta yangi ish o'rni;

Farg'ona viloyatida 132,1 mlrd. so'mlik 694 ta loyiha moliyalashtirilib, 4020 ta yangi ish o'rni yaratildi²⁹⁰.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, ushbu sohaga yoshlarni keng jalb qilish maqsadida banklar va tadbirkorlar o'rtasidaga aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan ilohotlar natijasida, 2021-yilga kelib, yoshlar tadbirkorligini mikrokreditlashning yangi tizimi joriy etildi. Tadbirkorlik tashabbusiga ega jismoniy shaxslar, shu jumladan yoshlar va xotin-qizlarga biznesni boshlash uchun 33 mln. so'mgacha mikrokreditlar ta'minotsiz, mikrofirma va kichik korxona ta'sischilariga esa 225 mln. so'mgacha mikrokreditlar ajratilishi yo'lga qo'yildi. Bu orqali, 2021-yilda yoshlar tadbirkorlik

²⁸⁸ YK JJA, 2020 yil, 3-06 jild, 1-varaq.

²⁸⁹ YK JJA, 2020 yil, 3-06 jild, 1-varaq.

²⁹⁰ YK JJA, 2020 yil, 3-06 jild, 2-varaq.

faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 45 mln. AQSH dollar, ularni kasb-hunar, xorijiy tillarga o'qitish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga 5 mln. AQSH dollar miqdorida mablag' ajratildi. Natijada, 15 ming nafar yoshlarni o'qitish va o'z biznesini boshlashi uchun keng imkoniyatlar yaratildi²⁹¹.

Xulosa o'rnida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlar – kelajagimiz" davlat Dasturi to'g'risidagi Farmoni asosida olib borilgan ishlar natijasida yillar mobaynida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimidagi cheklovni olib tashlandi. Yoshlar o'z biznes rejalarini oldingidek ko'p vaqt oladigan loyihalar va tanlovlar natijasiga ko'ra emas, balki to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Yillar mobaynida turli loyihalarda qatnashib, g'olib bo'lib, o'z biznes g'oyasini amalga oshirmoqchi bo'lgan yoshlar son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilgani, ammo byurokratik to'siqlar va moliyalashtirilishi chegaralangan loyihalar o'rniga Davlat dasturi qabul qilinishi hamda Farmon asosida Jamg'arma tashkil qilinishi, ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal etibgina qolmay, balki soha rivojiga ham salmoqli hissa qo'shdi.

Uchinchi bob bo'yicha xulosa

O'tgan davr mobaynida yoshlar zamon bilan hamnafas qadam tashlovchi, jamiyatdagi islohotlar, muhim qarorlar qabul qilish jarayonlarining faol ishtirokchisi sifatida o'zini namoyon etib borayotir. Asosan ko'proq iste'molchi sifatida qaralgan yoshlar, so'nggi yillarda moddiy ne'matlar yaratuvchi, zamonaviy texnologiyalar asosida jahon bozorida raqobatlasha oladigan eksportbop ishlab chiqarayotgan, xalqaro bozor munosabatlari darajasida fikr yurita oladigan, uzoqni ko'zlab qabul qilinayotgan istiqbolli dastur va loyihalarning ijrochisi bo'lgan faol tadbirkorga aylanmoqda. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarning faollashuvi va davlat tashkilotlari bilan hamkorligida olib borilgan ishlar natijasida ushbu soha yangi pog'onaga ko'tarildi.

Mamlakatda tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi barobarida soliq imtiyozlari berib borildi. Xususan, amalda bo'lgan soliq solish tartibiga

²⁹¹ O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi joriy arxiv ma'lumotlari. (Ma'lumotlar elektron shaklda taqdim etilgan.)

doimiy ravishda o'zgartirishlar kiritish orqali tadbirkorlik subyektlariga yengilliklar berib borildi. Natijada tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida sezilarli o'rin egalladi. Qolaversa, respublikaning yarmidan ko'pini tashkil qiluvchi yoshlar masalasida, ularni tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishida soliq imtiyozlari birdek qo'llanib kelindi. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonda qisqa davr mobaynida bu boradagi davlat siyosatida mutlaqo yangi tizim joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator Farmon va farmoyishlari asosida olib borilgan ishlar natijasida yillar mobaynida yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish tizimidagi cheklovni olib tashlandi. Yoshlar o'z biznes rejalarini oldingidek ko'p vaqt oladigan loyihalar va tanlovlar natijasiga ko'ra emas, balki to'g'ridan-to'g'ri moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. So'nggi yillarda bu borada maxsus Davlat dasturi qabul qilinishi hamda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun Jamg'arma tashkil qilinishi, ushbu sohadagi mavjud muammolarni hal etibgina qolmay, balki soha rivojiga ham salmoqli xissa qo'shdi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligi masalalari tahlili va tadqiqi quyidagi hulosalarga asos bo‘ldi:

1. Mustaqillik yillarida yoshlarning ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik to‘g‘risidagi orzularini ro‘yobga chiqarish, ularning jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatidagi rolini oshirish uchun shart-sharoit yaratildi. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, yoshlarning tadbirkorlik faoliyati yanada samarali bo‘lishi uchun bu sohani isloh etish, yigit va qizlarning erkin faoliyat yuritishlari uchun qo‘lay shart-sharoitlar yaratish, ularning tashabbus va startap loyihalarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yuzasidan hukumat tomonidan tizimli ravishda ulkan ishlar amalga oshirildi.

2. Mustaqillik yillarida yoshlar manfaatini himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilib, qator farmonlar va me‘yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Ushbu chora-tadbirlar natijasida yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi faolligi yildan-yilga ortib, ularga nisbatan yangicha munosabatlar qaror topdi.

3. Yoshlarni iqtisodiy jarayonlarga jalb etishga qaratilgan davlat siyosatining ijtimoiy ahamiyati yanada kuchaydi, kichik biznes va tadbirkorlik harakatida yoshlar ishtirokini yanada kengayishiga qaratilgan jamoatchilik nazorati guruhlari tashkil etildi, yoshlar hayotidagi muammolarni o‘rganish, ularga kompleks yechim topish maqsadida “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi. Natijada, ko‘plab yosh oilalarga iqtisodiy tomondan maqsadli va manzilli davlat ko‘magi berildi. Shuningdek, minglab oilalar ajralib ketishi oldi olindi, ko‘plab yoshlar ishga joylashtirildi, yigit va qizlarga tadbirkorlik faoliyatini boshlashi uchun subsidiyalar ajratildi va imtiyozli kreditlar berildi.

4. Yoshlarning jamiyatda faol ijtimoiy kuchga aylanishida, ularning kichik biznes va tadbirkorlik sohasidagi faoliyatining kengayishida yoshlar tashkilotlari muhim o‘rin tutadi. O‘zbekistonda mavjud 9 mingdan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlarning 794 tasi yoshlar manfaatini himoya qiladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, siyosiy partiyalarning “Yoshlar qanoti”,

O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlar o‘z faoliyatida yoshlar muammolarini bartaraf etish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish, milliy xususiyatini inobatga olgan holda va xalqaro tajribaga tayanib, yoshlar hayotida uchrayotgan muammolar yechimini topishga, yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

5. Mamlakatda tadbirkor yoshlarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar ularning oila va jamiyat hayotida munosib o‘rin egallashlariga, tadbirkorlikni keng yo‘lga qo‘yishlariga imkon bermoqda. Ayni paytda, ko‘plab ishbilarmon yoshlarni o‘z atrofiga birlashtirgan “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tomonidan tadbirkor yoshlarga ko‘mak berilishi, ular tashabbuslarining qo‘llab-quvvatlanishi, pirovardida yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda tadbirkorlik faoliyati orqali yoshlarni ish bilan band etishda sezilarli yutuqlarga erishildi.

6. O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2000-yillardan boshlab mikrokredit berish tizimi joriy etilishi natijasida aholi bandligining yangi shakllari va turlari paydo bo‘ldi. Tadbirkor yoshlarning faoliyatiga moddiy ko‘maklashish, tadbirkorlik faoliyatini imtiyozli kreditlar bilan ta‘minlash maqsadida 2018-yildan boshlab “Yoshlar–kelajagimiz” jamg‘armasi orqali 1 trln 614 mln imtiyozli kredit mablag‘lari to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoshlar tadbirkorligi uchun ajratildi. Natijada minglab yangi ish o‘rinlari yaratildi.

7. Yoshlar, ayniqsa, qishloq yoshlarini tadbirkorlikka jalb qilish, shu yo‘l bilan ularning bandligini ta‘minlash maqsadida bir qator tadbirkorlik faoliyat turlari soliqdan ozod etildi. Qolaversa, ixtiyoriy ravishda eng kam oylik ish hakini pensiya jamg‘armasi o‘tkazish orqali ish stajiga ega bo‘lish va kelajakda davlat tomonidan pensiya bilan ta‘minlanishi belgilab qo‘yildi. Ushbu chora-tadbirlar va imtiyozlar natijasida yoshlar orasida tadbirkorlar sezilarli darajada ko‘paydi.

8. Har bir viloyat hokimligi tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya orqali yoshlar muammolari o‘rganib chiqildi. Natijada yoshlarni tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun to‘siq bo‘layotgan muammolar joyida bartaraf etildi yoki kompleks yechim topish maqsadida umumiy ro‘yxatdan o‘tkazildi.

Tadqiqot ilmiy xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasida faoliyat olib borayotgan yoshlar erishgan yutuqlarni targ'ib etish maqsadida ularning tajribasini ijtimoiy tarmoqlar, television ko'rsatuvlar va kichik risolalar nashr etish orqali keng yoyish. Shu yo'l bilan yoshlarda tadbirkorlikni boshlash va rivojlantirish uchun motivatsiya berish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish mumkin.

2. O'zbekiston Respublikasida "Tadbirkorlik kodeksi"ni qabul qilish va unda yoshlar tadbirkorligiga alohida to'xtalib o'tish, yoshlar tadbirkorligining huquqiy maqomini belgilash, bunda 18-30 yoshli fuqarolar tadbirkor sifatida davlat ro'yxatdan o'tgandagina ushbu maqomga ega bo'lishini nazarda tutish, shu orqali "tadbirkor" va "yosh tadbirkor" tushunchalariga alohida izoh berish, davlat idoralarining yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishdagi vazifalarini aniq belgilash. Aniq belgilangan vazifalar orqali sohani rivojlantirish nafaqat ishsizlik muammosini, balki yoshlar masalasidagi ma'naviy, moddiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarga yechim bo'la oladi;

3. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga "yosh tadbirkor" tushunchasini kiritish orqali soliq imtiyozlarini taqdim etish, bunda tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlarga quyidagi imtiyozlar tadbqiq etiladi: yosh tadbirkorlar soliq to'lovchi sifatida 50 foiz chegirmaga ega bo'ladi. Ushbu soliqlarni yoshiga qarab 18 yoshdan 22 yoshgacha 75 foiz, 23 yoshdan 26 yoshgacha 50 foiz, 27 yoshdan 30 yoshgacha fuqarolar 25 foizi soliq chegirmasiga ega bo'lishini nazarda tutuvchi o'zgartirish kiritish orqali yosh tadbirkorlar sonini kelgusi 10 yilda keskin oshishiga va bu orqali byudjetga soliq tushimlari ortishiga erishish mumkin. Bundan tashqari, yosh tadbirkorlar o'z biznesini boshlash jarayonida tajribasizligi va tadbirkorlik sohasiga oid me'yoriy hujjatlarni yuritish qonun qoidasi o'zlashtirmagani sababli hisobotlarni topshirishda kechikishlar yuz bermoqda. Oqibatda, ularning nomidagi hisob raqamlari to'xtatib qo'yilmoqda. Ushbu holatlarni inobatga olib, davlat tashkilotlari tomonidan yosh tadbirkorlarga

bepul xizmat ko'rsatuvchi konsalting markazlarini ochish va bepul hisobotlar tayyorlashga ko'maklashish.

4. Kichik biznes va tadbirklorlik sohasida faoliyat olib borishni rejalashtirgan yoshlar o'rtasida zaruriy axborot, marketing, menejment sohalari bo'yicha bilimlarni oshirish uchun mahsus o'quv kurslarini bepul va manzilli tashkil etish hamda ularga amaliy-o'quv yordam berish, zamonaviy qishloq xo'jaligi texnik vositalarini qo'llashga doimiy ko'maklashish lozim.

5. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning beshinchi bandida ko'rsatilganidek, yosh xotin-qizlar o'rtasida saqlanib qolayotgan ishsizlik darajasini qisqartirish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish uchun joylarda mehnat yarmarkalari imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim muassasalari va turli firma va tadbirkorlik subyektlari bilan korporativ hamkorlikni mustahkamlash zarur.

6. Yoshlar tadbirkorligini yillar kesimida tahlil qilish va istiqbolli rejalarni ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining hisobotlarida tadbirkor yoshlar faoliyatiga oid statistik ma'lumotlar bazasini yaratish zarur.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

1. Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 21 июня 2011 года “Организация заседания высокого уровня по вопросам о молодёжи”// vmo.rgub.ru
2. Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 18 декабря 2009 года “О провозглашении 2010 года Международным годом молодёжи”// vmo.rgub.ru
3. Проект резолюции ООН от 1 декабря 2009 года “Политика и программа, касающиеся молодёжи” // vmo.rgub.ru
4. “Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсатининг асослари тўғрисида”ги қонун // Халқ сўзи, 1992. 8 январь;
5. Ўзбекистон Республикасининг “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 37-сон.
6. “O‘zbekiston Respublikasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining №344-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/470217>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar — kelajagimiz» davlat dasturi to‘g‘risidagi PF-5466-son farmoni // <https://lex.uz/docs/3826820#4458418>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mikrokreditbank aksiyadorlik tijorat bankini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-3750 sonli//<https://lex.uz/docs/1004693>
9. “Mikrokreditbank” aksiyadorlik-tijorat bankining tadbirkorlik sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi faoliyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4051 sonli // [lex.uz/docs/ 1408078? Two lang=1](https://lex.uz/docs/1408078?Two%20lang=1)
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2010 йил 28 июлдаги “Таълим муассасаларининг битирувчиларини тадбиркорлик фаолиятига жалб этиш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-4232-сонли

Фармони // “Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами”, 2010 йил, 30-сон, 251 модда.

11. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 5 yanvar PF-1030-son “Хусусий тadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish va uni rag‘batlantirish to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/180780>.

12. Ўзбекистон Республикасининг 1998 йил 30 апрель “Фермер хўжалиги тўғрисида”ги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. 1998. -№5-6.

13. О‘zbekiston Respublikasining 2000 yil 25 may 69-II-son “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/31846>

14. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 noyabr PF-5242-son “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni // lex.uz/docs/3416134.

15. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevral PQ-2750-son “Tadbirkorlik sub‘ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora –tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

16. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “О‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni // О‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. -№6. -Toshkent: Adolat, 2017. -B.25-150.

17. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 fevral PQ-2750-son “Tadbirkorlik sub‘ektlariga davlat xizmatlarini ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora – tadbirlar to‘g‘risida”gi Qorori / <https://www.lex.uz/docs/3103829?ONDATE=01.02.2020>.

18. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 mart PQ-4231-son “Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori/ <https://lex.uz/docs/4231026>

19. О‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 24 oktyabr PQ-4498-son “Tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan

loyihalarni kreditlash tartibini takomillashti-rishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori / <https://lex.uz/docs/4569641>.

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30 yanvar 52-son “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash dasturlari diorasiida bog‘dorchilik, uzumchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori / <https://lex.uz/docs/4719597>

21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6208 Farmoni /<https://lex.uz/docs/5382151>.

22. O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Vazirlar Mahkamasining 23-sonli qarori.

23. O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta‘minlash to‘g‘risida”gi Qonuni // www.lex.uz

24. “Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va bandligiga ko‘maklashish, ularni ijtimoiy himoya qilish hamda bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6208 farmoni // lex.uz

